

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

SHOIRA ABDUMAJITOVNA ABDUJALILOVA

INKLYUZIV TA’LIM GOSPITAL PEDAGOGIKA

(Barcha pedagogik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun)

DARSLIK



CHIQQIY -2025

Darslik Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti ilmiy Kengashining 2025 yil 02-iyundagi 10 - sonli bayonnomasida muhokamadan o'tgan va nashrga tavsiya uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi markaziga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi:

Abdijaliloba Sh. - “Pedagogika, psixologiya va boshlangich ta’lim” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Saparova G.K. - TIPI “Pedagogika, psixologiya va boshlangich ta’lim” kafedrasida v.b.professori, pedagogika fanlari nomzodi

Qodirova F.U. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Maxsus pedagogika” kafedrasida mudiri p.f.d., prof

Darslik Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 09-Iyuldagi 258-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga givohnoma berildi. Ro'yxatga olish raqami № 364792.

© Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, 2025.

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
I-BOB. INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSADI VA VAZIFALARI.....	10
1.1. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari.....	10
1.2. Inklyuziv ta'limning imkoniyatlari.....	21
II BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TURLARI VA ULARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH.....	26
2.1. Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish.....	26
2.2. Inklyuziv ta'limning ijtimoiylashuvi.	32
III BOB. IKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARI.....	40
3.1. Iklyuziv ta'limning huquqiy asoslari.....	40
3.2. Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.....	50
3.3. Inklyuziv ta'limga jalb etishda quydagi bosqichlar amalga oshirildi.....	52
IV BOB. INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILISH BOSQICHLARI.....	55
4.1. Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.....	55
4.2. Oilada tarbiya shakllari.	59
V BOB. INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA TA'LIM MUASSASALARI OILA HAMKORLIGIDA ISHLASH.....	66
5.1. Oilada tarbiya shakllari.....	66
5.2. Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi.....	72
5.3. Oilada bolaga qanday munosabatda bo'lish kerak.....	75
VI BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMDA TIBBIY-REABILITACION DIAGNOSTIKASI.....	81
6.1. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPKning ro'li.....	81
6.2. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda tibbiy-reabilitacion diagnostikasi.....	90
VII BOB. TURLI DARAJADAGI INTELLEKTUAL QIYINCHILIKLARGA EGA, AUTISTIK SPEKTR VA SENSOR BUZILISHLARGA EGA BOLALAR BILAN INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH STRATEGIYALARI VA SHARTLARI.....	98
7.1. Bolalarning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida maktabgacha.....	98
7.2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida nutqni rivojlantirishga doir ishlar tizimi...105	
7.3. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy vazifalari..107	
7.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning mazmuni va metodlari.	109
7.5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida aqliy tarbiya berish vazifalari.....	111

VIII BOB. GOSPITAL PEDAGOGIKANING MAQSAD VA VAZIFALARI.....	120
8.1. Gospital pedagogikaning to'g'risida tushuncha.	120
8.2. Gospital pedagogikada jismoniy cheklangan ta'lim oluvchilarga ta'lim berish vositalari.....	128
8.3. Gospital pedagogikaning jismoniy cheklangan ta'lim oluvchilarni tarbiyalash omillari.	135
IX BOB. OG'IR XASTALIKKA CHALINGAN BOLALARGA TASHKIL ETILADIGAN DARSNING DIDAKTIK TA'MINOTI.....	147
9.1 Dars - ta'limning asosiy shakli.....	147
9. 2 Namoyish qilish metodi – asboblari, tajribalar, texnik qurilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq.....	154
9. 3. Bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	161
X BOB. GOSPITAL PEDAGOGIKAGA JALB ETILUVCHI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KREATIV YONDASHISH.....	166
10.1. Bolalar nutqida nuqsonlarning kelib chiqish sabablari.....	166
10.2. Bolalardagi nutq kamchiliklarini tekshirish va aniqlashning sistemali usullari.....	172
10.3. Nutqning umumiy buzilishi (NUB) bo'lgan bolalar bilan tibbiy va pedagogik ish tamoyillari.....	186
XI BOB. OG'IR XASTALIKKA CHALINGAN BOLALARGA TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK-DIDAKTIK VA IJTIMOYIY-PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH.....	199
11 1. Og'ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik jarayonni tashkil etish.....	199
11.2. Og'ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik ish.....	204
11.3. Og'ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik himoya qilish.....	206
XII BOB. UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O'QITISH BO'YICHA PEDAGOGIK... 	209
12.1. Umumta'lim makteblarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish.....	209
12.2. Umumta'lim makteblarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayon.....	210
12.3. Umumta'lim makteblarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish yo'llari.....	213
XIII BOB. "MEHRILI MAKTEB" O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH.....	215
13.1. Mehrli maktabning faoliyatida gospital ta'lim.....	215
13.2. Mehrli maktab haqida ma'lumot.....	219
13. 3. Kompetensiya tushunchasi.....	222
XIV BOB. GOSPITAL PEDAGOGIKADA OTA-ONALARGA AMALIY YORDAM KO'RSATUVCHI PEDAGOGIK XIZMAT.....	224
14.1.Ota-ona, maktab va o'qituvchi hamkorligidagi harakat ta'limni qo'llab quvvatlashning samarali usulidir.....	224

14.2. Ota-onalarga ko‘mak: Tarbiyasi qiyin bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish tartibi.....	230
XV BOB. OG‘IR XASTALIKKA CHALINGAN BOLALARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH TIZIMINING TARKIBIY TUZILISHI.....	235
15.1.Og‘ir xastalikka chalingan bolalar.....	235
15.2.Inklyuziv ta’limda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish.....	240
15.3. Rivojlanishning og‘ir va ko‘p kasalliklari bo‘lgan bolalar bilan o‘quv jarayonini amalga oshirish xususiyatlari (ROKKBB)	245
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	254
MAVZUGA OID GLOSSARIYLAR.....	256

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zahirida inson manfaatlariga ustuvorlik berilgan bo'lib, yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z hayotida his etishlari uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional va oliy ta'lim sohasidagi islohotlarni alohida e'tirof etish lozim. Yosh avlodga sifatli ta'lim berish masalasi hozirgi kunda mamlakatimizning «Inson qadri uchun» degan ustuvor tamoyilga asoslangan strategiyasida ham muhim siyosiy komponentlar qatoriga kiritilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev inson qadri tushunchasini izohlar ekan, «Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz» deb ta'kidlaydi. Prezidentimiz tomonidan 2025 yilni «Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili» deb e'lon qilinishini alohida e'tirof etish lozim. Chunki ta'limning sifati va jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan zanjirli bog'lanishga ega, ya'ni sifatli ta'lim olish yo'lga qo'yilsa, bilimli, raqobatbardosh, zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlar yetishib chiqadi, bunday kadrlar esa kasbiy va boshqaruv faoliyatida oqilona qarorlar qabul qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi. Bugungi ta'lim tizimi yoshlarni, kelajagimizning munosib vorislari sifatida tayyorlashni bosh maqsad qilib olgan. Bunda sog'lom yoshlar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarga ham bir xilda ta'lim berishga qaratilgan inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari va mazmunini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu borada, 2020-yil 23-sentyabr Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz // «Xalq so'zi» gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018)7 kuni O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni qabul qilinib, inklyuziv ta'lim ta'lim olish shakli sifatida belgilandi. Inklyuziv ta'lim alohida

ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilishidir. Respublikamizda inklyuziv ta'limni takomillashtirish masalasi hukumatimizning ko'plab hujjatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida, ma'ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o'zining munosib aksini topgan. Xususan, imkoniyati cheklangan yoshlarga ta'lim berish sifatini oshirish hamda turli ixtisoslik va yo'nalishlardagi bosma va audiokitoblarga bo'lgan ehtiyoj har olti oyda o'rganilib, shu asosda adabiyotlar ro'yxati shakllantirib borish, oliy ta'lim muassasalarining tegishli ixtisoslik va yo'nalishlari bo'yicha fanlardan audiomateriallar va barcha umum o'rta ta'lim muassasalariga tayyorlanayotgan pedagoglarni inklusiv ta'lim gospiatal pedagogika fani asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo'lga qo'yish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilmoqda. Lekin bu borada yetarlicha kamchiliklar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida bu boradagi asosiy muammolar qayd etilgan:

- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu muammolarning yechimi bevosita oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuzim ta'limning pedagogik psixologik qonuniyatlari, inklyuziv ta'limning mazmuni va tamoyillariga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish zaruriyatiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishini hamda bo'lajak o'qituvchilar uchun ularning nogironligi bo'lgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini joriy qilish hamda ularning didaktik va metodik ta'minotini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaralgan mazkur darslik bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim faoliyatiga tayyorlashda muhim didaktik vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

I-BOB. INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zahirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda. Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta'sirlanadi. O'sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir.

Bolalarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi (tiklash) va ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuvi)-bu nafaqat qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va innovatsiyalarning paydo bo'lishi bilan tadrijiy rivojlanib boradigan bu nozik sohada professional yondashuvni talab qiladigan sarmashaqqat mehnatdir. Bu sohaning takomillashuvida nogironligi bo'lgan bolalar bo'yicha idoralararo muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuvi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan 2007 yilda «O'zbekistonda inklyuziv ta'lim» loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, loyihada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Navoiy shahridagi «Umr» imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi, Samarqand shahridagi «Hayot» nomli nogironlarga yordam berish markazi, Jizzax shahridagi «Istiqbolli avlod» markazi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi «Umid» tashabbuslarga ko'mak berish va rivojlantirish markazi, Termiz shahridagi «Imkon» imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko'mak berish markazi, Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi «Ziyo» maxsus zaruratli bolalarga ijtimoiy ko'mak berish markazi, maqsadli hududlar hokimliklari, O'zbekistondagi Shvetsariya elchixonasi hamkorlik qilishdi. Ushbu loyiha doirasida Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo'qon, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlarida joylashgan ayrim maktabgacha ta'lim muassasa, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda inklyuziv texnologiya asosida ta'lim-tarbiya olishdi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o'ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda.


Chunki inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'iy nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi,

hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug'diradi. Shuni nazarda tutib, mazkur monografiyada inklyuziv ta'limning o'ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayonida yo'lga qo'yish uchun zaruriy pedagogik-psixologik yondashuv yo'llarini aniqlash ko'zda tutildi. Shunisi borki, inklyuziv ta'lim nafaqat nogiron bolalar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ham fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o'quvchilarning bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi.

Lekin ba'zan sog'lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o'z tengdoshlariga qo'shilmay, tortinishi, o'z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyalib turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o'stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta'lim amaliyoti va ta'lim xizmatlarini tashkillashtirishda o'zgarishlar qilishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta'lim jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o'qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas'uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi.



**Inklyuziv
ta'lim**



- barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

Inklyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi.

Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bimalol, xavfsirasmasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.

Shuningdek, inkluziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy

hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilarni sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qitishni anglatadi. Inklyuziv ta’lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan:

- inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog‘liq emasligi prinsipi;
- har bir shaxsning his qilish va o‘ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- har bir o‘quvchining o‘z tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlovi va do‘stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;
- turli-tumanlik o‘quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta’minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Inklyuziv ta’limning maqsadi - alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta’lim berishni ta’minlashdan iborat.

Inklyuziv ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;
- ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta’lim jarayonida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sog‘lom bolalar bilan birga bir maktabda, sinfda o‘qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab alohida qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladilar. Bunday qo‘llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi.

Shuning uchun ham maktab ta’limining dastlabki bo‘g‘inlaridan boshlab, bunday o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan tashkil etiladigan ta’lim jarayoni inklyuziv ta’lim shakllarini aniqlash va uni umumiy ta’lim jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Bunday integratsiya ularning o‘zlariga xos bo‘lgan ta’limiy ehtiyojlariga mos kelishi lozim. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’lim muassasasida o‘qishni davom ettirishlari va faqatgina o‘zlari kabi imkoniyati cheklanganlar muhitida bo‘lishlari ularning rivojlanishlari, ijtimoiylashishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘quvchilar bir turda bo‘lishi ularning muhitga moslashishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday o‘quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qitish metodlarini ularga moslashtirish, biroq aloqa o‘rnatish sohasida muammolarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni ular bilan uyg‘unlashtirish ularning ijtimoiy rivojlanishlariga sharoit yaratmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar boshqa o‘quvchilar bilan bir xildagi

xatti-harakatlarni amalga oshirish tajribasiga ega bo'lishlari kerak. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim berishning istiqbolli shakllaridan biri ularni guruhlar yoki sinflarga izchil tarzda asta-sekin uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda o'quvchilarning sinfdoshlari yoki guruhdoshlari bilan aloqa o'rnatishlari va o'qish layoqatlarini hisobga olishlari talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar taraqqiyotining ko'lami shu qadar kattaki, ular uchun bir xildagi ta'lim jarayonini tashkil etish imkonsizdir.

Bunday sharoitda ko'plab o'quvchilar ta'lim jarayoniga qamrab olinmaydi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar tarkibining turli-tumanligi shuni ko'rsatadiki, ularga ta'lim berish jarayoni bir qator holatlarni mujassamlashtirishi kerak. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar ta'limining keng ko'lamliligi va serqirraliligini hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lim jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Ularda me'yorda rivojlanuvchi tengdoshlari bilan qiyoslagan holda umumiy o'rta ta'lim jarayonida hayot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O'quv jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni taqdim etish asosida o'z tengdoshlari va yaqinlari bilan birgalikda hayotiy ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratiladi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga turli variantlarda ta'lim berish uchun qulay sharoit yaratish kerak.

Masalan: O'quvchining bilimlarni egallash imkoniyatini hisobga olgan holda cheklangan ta'lim beriladi. Bunday ta'limning mazmuni umumiy o'rta ta'limning mazmuniga muvofiq kelishi kerak. Bunda tengdoshlari orasida hamda ular bilan umumiy tarzda muayyan vaqt davomida o'qitish amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarni tizimli tarzda pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Mazkur yo'nalishda o'quvchilar o'z tengdoshlari orasida bo'lib, ular uchun cheklangan ta'lim olish imkoniyati yaratiladi. Bunda ularning rivojlanishi bilan bog'liq holda kelib chiqqan muammolarni bartaraf etish nazarda tutiladi. O'quv jarayoni va sinf xonasidagi shart-sharoitlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ehtiyojlariga muvofiq kelishi lozim. Bunday sharoitda ta'lim jarayoni individuallashtirilgan, uning muddatlari esa cho'zilgan bo'ladi. Jumladan, ko'zi

o'qovchilar uchun to'qqiz yillik umumiy o'rta ta'lim jarayoni o'n yil davom etishi mumkin. Masalan, tayanch harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan o'qovchilar uchun boshlang'ich ta'limning maqbul varianti sifatida umumiy o'rta ta'lim dasturlari yoki ruhiy jihatdan cheklangan o'qovchilar uchun tuzilgan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Integratsiyaning bunday shakli samarali bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Bunda o'qovchilarning nutqi, muloqot imkoniyatlari, xatti-harakatlaridagi muammolar tengdoshlariniki bilan solishtiriladi. Ruhiy jihatdan orqada qolayotgan imkoniyati cheklangan o'qovchilardagi murakkab holatlar bilan oddiy holatlar orasidagi darajalanish sog'lom sinfdoshlarinikiga ko'ra boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi. Shuning uchun ham o'quv jarayonida bunday o'qovchilar sinfdoshlaridan orqada qolishi yoki ulardan o'zib ketishi mumkin.

Bu o'z navbatida o'quv dasturlariga o'zgatirishlar kiritish, o'qovchilarga korreksion yordam ko'rsatish, intellektual yuklamalarni ko'paytirish, ularning imkoniyatlarini cheklamagan holda dastur doirasidan tashqariga chiqishni taqozo qiladi. Imkoniyati cheklanmagan bolalar uchun inklyuziv ta'lim berish rivojlanishida muammolar mavjud bo'lgan o'qovchilarni o'z tengdoshlari bilan birgalikda o'qitishni nazarda tutar ekan, mazkur yo'nalish aksariyat bolalar uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy va aqliy rivojlanishda orqada qolgan o'qovchilar uchun maxsus sinflar ochish imkonini beradi. Bunday o'qovchilarga muvaffaqiyatli ta'lim berish uchun mohirlik bilan tashkil etilgan maxsus pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ularni integrallashtirilgan sinflardagi o'qovchilar sonini keskin kamaytirish talab etiladi. Inklyuziv ta'limning ushbu varianti individual tarzdagi yakuniy natijalarni qo'lga kiritishni taqozo qiladi. Shuning uchun inklyuziv ta'limning sifatini aniqlash maqsadida muayyan parametrlar va ko'rsatkichlarni (indikatorlar) belgilab olish lozim.

Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga

olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning ijtimoiy fanlar sohasidagi dasturlari inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan bilimlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda gender tenglik, ta'lim olish huquqi kafolatlarini kuchaytirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda kadrlar tayyorlash tizimining asosiy va hal qiluvchi bosqichi sifatida boshlang'ich ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta'lim jarayonining tashkiliy, metodik komponentlarini, didaktik tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan o'qituvchilarni ta'limda alohida ehtiyojlari bor bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlashning nazariy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish orqali inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda sog'lom tengqurlari bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish ehtiyojini jahon standartlari asosida ta'minlashda tashkilotlararo maqsadli va amaliy natijalarga yo'nalgan hamkorlik hamda integrativ chora-tadbirlar taqozo etiladi. Ta'lim klasteri sharoitida barcha bolaga birdek sifatli ta'limni tashkil etishda o'qituvchining roli va mavqei, otalar va keng jamoatchilikning pedagogik savodxonligini oshirish taqozo etiladi.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan.

1. 2. Inklyuziv ta'limning imkoniyatlari.

Inklyuziv ta'lim – ta'lim muassasalari uchun barcha bolalarga ta'lim berish imkoniyatidir. Ushbu ta'lim insonning asosiy huquqi sifatida tushunishga asoslanadi. Inklyuziya keng ma'noda ham, tor ma'noda ham qo'llaniladi. Keng ma'noda - u urush qurboni bo'lgan alohida ehtiyojli bolalar, qochoq bo'lgan

bolalar, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari, ijtimoiy zaif oilalarning bolalari, iste'dodli bolalar, sog'ligida muammolari bo'lgan bolalar va boshqalarni o'z ichiga oldi.

Inklyuziv ta'lim g'oyalari ijtimoiy - madaniy nazariyalarga asoslanadi. Psixolog L.Vigotskiy (1868-1934) inklyuziv ta'lim g'oyasining asoschisi bo'lib, uning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi orqali bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim oladilar. L.Vigotskiy oliy aqliy funksiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi va keyin shaxsiy bo'ladi deb aytib o'tgan.

Shunday qilib, bu ijtimoiy hamkorlik har doim rivojlanish va o'rganishning asosiy usuli hisoblanadi. Shuningdek, u ta'lim rivojlanishdan oldin ekanligiga ishongan. Kattalar bolaning "bevosita rivojlanish zonasida" bo'lgan ko'nikma yoki bilimlariga e'tibor berib, o'rganishni rag'batlantirishlari mumkin. L.Vigotskiy "bunday rivojlanish zonasi"ni bolaning biladigan yoki qila oladigan va qobiliyatli odam yordamida nima qilishlari yoki tushunishlari mumkin bo'lgan maydon yoki makon sifatida aniqladi.

L.Vigotskiyning ijtimoiy - madaniy rivojlanish nazariyasi pedagogning ro'lini aniq belgilaydi. Biz farzandlarimizni yaxshi bilishimiz va ularning "yaqin rivojlanish markazi" doirasida o'quv faoliyatini aniqlash uchun ular bilan faol muloqotda bo'lishimiz kerak. Agar bolalar birinchi navbatda ijtimoiy hamkorlik orqali o'rgansalar, biz pedagoglar bolaning boshqa bolalar va kattalar bilan o'zaro aloqada bo'lgan vaqlini maksimallashtirishimiz kerak. Makrabsiz yoshdagi bolalarning shovqinli (lekin baland bo'lmagan), band (lekin tartibsiz bo'lmagan) guruhi - bu normal o'quv muhitidir.

Ko'pgina mamlakatlarda inklyuziv ta'lim amaliyoti bu nazariyaning to'g'riligini ko'rsatib berdi. Tadqiqotlarga ko'ra, alohida ehtiyojli bolalar o'z tengdoshlari bilan birga o'qisalar. o'rganishda, ijtimoiy muloqotda ancha yaxshi natijalarni ko'rsatishga moyildirlar.

Barcha bolalar inklyuziv ta'lim amaliyotidan yaxshi foyda oladilar. Odatda, alohida ehtiyojli bolalar rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan bir guruhda bo'lishi ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko'nikmalarini

rivojlantirishga harakat qiladi. Rivojlanayotgan bolalar alohida ehtiyojlari bor odamlar duch keladigan muammolarni tushunib boradilar. Ular boshqalarning ehtiyojlariga sezgir bo'lib, farqlarni yaxshiroq anglaydilar. Ular barcha odamlar muhim muammolarni bartaraf eta olishlariga va muvaffaqiyatga erishishlari mumkinligini bilib oladilar.

Pedagoglarga guruhida alohida ehtiyojli bolalar bo'lishi ham manfaatlidir, bunda ular o'quv uslublaridagi farqlarni kuzalishda malakaga ega bo'lishlari mumkin. Ular, shuningdek, bolalarning individual kuchli tomonlarini baholashda o'zlarga ko'proq ishonch orttiradilar va shu bilan birga qo'llab-quvvatlash kerak bo'lgan tomonlarini aniqlaydilar. Bu barcha bolalarni o'qitishda tarbiyachilarga bolaning individual kuchli tomonini va alohida ehtiyojlarini aniqlashga va shu asosida ta'lim ulubini yaxshilashga imkon beradi. Inklyutiv ta'limning mavjudligi bolalar hir-biridan ko'p jihatdan farq qilishini va bu farqlar to'siq emas, balki qimmatli manba ekanligini tan olish demakdir. Bolalarning turli ta'lim ehtiyojlari va imkoniyatlari va ularning turli rivojlanish sur'atlarini o'quv faoliyati va ta'lim straregiyasini individuallashtirish va differensiallashtirish yo'li bilan qondirish mumkin.

Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlari:

- alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning umumiy ta'limi bilan muntazam guruhlarda pedagoglar bilan birgalikda mutaxassislar jamoasi shug'ullanadilar;
- alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning qanchasini bir guruhga muvaffaqiyatli kiritish mumkinligini aniqlab olish zarur.

Odatda, bu miqdor har bir bolaning xususiyatlari turiga va pedagogning o'z maktabgacha ta'lim tashkilotidan oladigan yordamiga bog'liq. Masalan, boshqa mutaxassislar yordami bilan pedagog faqat bitta og'ir kasallikka chalingan bolani yoki yengil tashxis qo'yilgan bir necha bolani o'z guruhiga olishi mumkin. Guruhdagi bolalar umumiy sonining 5-10 % dan ko'p bo'lmagan shtati bo'yicha alohida ehtiyojga muhtoj bolalarni ham o'z ichiga olish amaliyoti mavjud.

- agar guruhda 20 nafar bola bo'lsa, alohida ehtiyojga muhtoj 1-2 nafar bolani qabul qilish;

- farzandlarining ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishiga doir qaror qabul qilishda ota - onalar va boshqa oila a'zolari foal ishtirok etishi;

- barcha pedogoglar (guruh tarbiyachisi, maktabgacha ta'lim psixologi ya defektologi, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) jamoa bo'lib ishlaydi va ularning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiradi.

- qarorlar bir-biri bilan samarali hamkorlik qiladigan jamoa a'zolari tomonidan qabul qilinadi;

- strategiyalar va ta'lim berish butun bolalarning rivojlanishini ta'minlaydi va har bir alohida bolaning maxsus rivojlanish ehtiyojlarini hisobga oladi;

- maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash individual bolaning rivojlanish xaritasi, bolalarning kuchli tomoni va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tuzilgan;

- dasturlarning samaradorligi muntazam baholanadi;

barcha manfaatdor tomonlar jalb etiladi (oilalar, a'zolari, pedagoglar, boshqa mutaxassislar);

- barcha pedagoglar maxsus ehtiyojli bolalarni o'qitish va rivojlanish xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari, treninglar orqali maxsus tayyorgarlikdan o'tib, malakalarini oshirish, maxsus adabiyotlarni o'rganishlari kerak.

Inklyuziv maktabning maqsadi

a) hamma o'quvchilarga ijtimoiy hayotda, jamoada va jamiyatda faol ishtirok etishga imkon yaratib berish va jamiyatning bir a'zosi sifatida bir-birlariga yordam berish, shu bilan birga to'laqonli aloqalarni ta'minlashdan iborat.

b) o'quvchilarga ta'lim berish kerak bo'ladigan malakalarni egallashni

c) tengdoshlaridan farq qiluvchi o'quvchilarga nisbatan o'z munosabatlarini o'zgartirmoqchi bo'lgan o'qituvchilar jalb qilinadi

d) jamoa ishlarida va mahalliy jamiyatda faol ishtirok etishida shu jamiyatning bir a'zosi sifatida bir-biriga yordam berishga qaratilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Inklyuziv ta'limning qanday imkoniyatlariga ega?

2. Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'ziga xos qanday xususiyatlari bor?

3. Inklyuziv maktabning qanday maqsadi mavjud?



II BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TURLARI VA ULARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH

2.1. Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish.

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday etiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ta'lim tizimiga alohida ahamiyat berilgan. Birinchi Prezidentimiz tomonidan boshlangan ta'lim sohasidagi islohotlar bugungi kunda Sh. M. Mirziyoyev tomonidan izchil davom ettirilmoqda. Jahon sivilizasiyasi shuni korsatadiki, ta'lim tizimini yuqori darajaga ko'tarmasdan turib boshqa sohalarda yutuqlarga erishib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi hamda ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, qonunning 20-moddasida esa "Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi." deb, ko'rsatib o'tilgan. Dunyo mamlakatlarida nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o'ziga munosib o'rinni egallashlariga ko'maklashish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotining "Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi", "Aqliy jihatdan orqada qolgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Deklarasiyasi"

“Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, “Ta’lim hamma uchun” reja-dasturi to‘g‘risidagi Dakar deklaratsiyasi, “Osiyo va Okeaniya mamlakatlari nogironlar huquqlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari dasturi”, “Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha Standart qoidalar”, “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo‘lib, bu xalqaro-huquqiy asoslar ta’lim jarayoniga inklyuziv yondashuvni samarali joriy etishni nazarda tutadi.

Umumjahon miqyosida alohida e’tiborga muhtoj bolalarning ruhiy holatini inobatga olgan holda psixologik korreksiyalash metodlari, oila, jamoa va guruhlarda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, texnologik ko‘maklashuvchi vositalar imkoniyatlarini oshirish borasida samarali ilmiy, ilmiy-texnik, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda. Umumiy o‘qitish tizimida inklyuziv ta’limning pedagogik-psixologik jihatlarini, nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’limiy ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqiy tengligi sharoitini yaratish, jamiyat a’zosi sifatidagi o‘rnini mustahkamlashga oid muammolar bu izlanishlarning asosini tashkil etib, ular nogiron bolalarning individual xususiyatlari va adaptiv imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy moslashuvini texnologik ta’minlash hamda qo‘llab-quvvatlash o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik tizimini takomillashtirishda alohida o‘rin egallaydi.

Mamlakatimizda bolalarning jismoniy salomatligini ilk yoshidan boshlab tashxislash, sog‘liqlarini doimiy nazorat qilish va mustahkamlash, har bir bolaning sifatli bilim olishlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar inklyuziv ta’limni ham rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Alohida e’tiborga muhtoj bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga samarali jalb etish milliy pedagogikada bugun yechimini kutayotgan muhim masalalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, nogiron aholining, boshqa ehtiyojmand toifalarning to‘laqonli hayot faoliyatini ta’minlash uchun ularga tibbiy, ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish va

takomillashtirish” kabi vazifalar belgilanib, bu borada nogiron bolalarga ta’lim-tarbiya berishga dunyoviy yondashuvlarni o’rganish, ular asosida milliy inklyuziv ta’lim jarayonini tashkil etish va takomillashtirish, o’quvchilarning o’z-o’zini baholash texnologiyalari, moslashuv va muloqotni tashkil qilishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdan kuchga kirgan yangi taxrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF–4947-sonli Farmoni, 2017-yil 1-avgustdagi “Nogironlarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF–5006-sonli Farmoni hamda 2017-yil 1-dekabrda “Nogironligi bo’lgan shaxslarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi PF–5270-sonli Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O’zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko’rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-yil 13-oktyabrda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4860-son qarori va Qarorga 1-ilova sifatida qabul qilingan “2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish KONSEPSIYASI va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu mavzuni yoritishga oid huquqiy asoslardir.

Inklyuziv ta’lim alohida e’tiborga muhtoj bo’lgan bolalarning tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o’qishi, ular bilan o’zaro do’stona munosabatda bo’lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirishda muhim o’rin tutadi. Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun esa quyidagi talqin ko’proq to’g’ri keladi. Inklyuziv ta’lim – inglizcha so’zdan olingan bo’lib, inclusive, inclusion – uyg’unlashmoq,

uyg'unlashtirilgan, o'ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma'nolarini, lotinchada esa includ – qamrab olaman, jalb qilmoq, ya'ni alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan va oddiy bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishdir. Inklyuziv ta'lim – davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biridir.

Ta'lim yo'nalishlari turlari va bolalar toifalari	Tayyorlov guruhlar	Boshlang'ich sinflar	Yuqori sinflar	Jami (yil)
I-II turlar:				
Kar bolalarning umumiy o'rta ta'limi	1	1 — 4	5 — 11	11
Zaif eshituvchi va keyinchalik kar bo'lgan 1-bo'lim bolalarining umumiy o'rta ta'limi	1	1 — 4	5 — 11	11
Zaif eshituvchi 2-bo'lim bolalarining umumiy o'rta ta'limi	1	1 — 4	5 — 11	11
III-IV turlar:				
Ko'zi ojiz bolalarning umumiy o'rta ta'limi	1	1 — 4	5 — 11	11
Zaif ko'ruvchi bolalarning umumiy o'rta ta'limi	1	1 — 4	5 — 11	11
V tur:				
Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'limi	—	1 — 4	5 — 11	11
VI tur:				
Tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'limi	—	1 — 4	5 — 11	11
VII tur:				
Psixik rivojlanishi sust bolalarning boshlang'ich ta'limi (tenglash sinflari)	—	1 — 4	—	4
VIII tur				
Aqli zaif bolalar uchun to'liqsiz umumiy o'rta ma'lumot	—	1 — 4	5 — 9	9
* Barcha turdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan murakkab nuqsonli (rivojlanishida 2 ta va undan ko'p nuqsoni bo'lgan) bolalar toifasi uchun				
Murakkab nuqsonlari bo'lgan bolalarning (rivojlanishida 2 ta va undan ko'p nuqsoni bo'lgan) to'liqsiz umumiy o'rta ta'limi	—	1 — 4	5 — 9	9

Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan, voyaga yetayotgan o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoniga jalb qilishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Umumta'lim maktablarda joriy etilgan inklyuziv ta'limning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarning oddiy tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o'qishi, teng huquq va imkoniyatlar tengligini berish, ular bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish, o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun zaruriy pedagogik-psixologik va korreksion sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Umumta'lim maktablarga oddiy bolalarning barchasi borsa, alohida e'tiborga muhtoj bolalar ham jalb etilishi kerak. Inklyuziv ta'limning oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab yo'lga qo'yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolalarning keyinchalik atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko'nikmalarini erta egallashlariga, hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida tengdoshlari qatori darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishiga, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini egallashlariga ko'maklashadi. Umumta'lim maktablarda inklyuziv ta'lim – alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar yoki boshqa sabablar tufayli tarbiyasi og'ir, yetim bolalar uchun moslashuvchan, individuallashtirilgan va barcha bolalarga teng huquq va imkoniyatlar tengligini beradigan ta'lim tizimidir. Shuningdek, inklyuziv ta'lim – millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy ahvoli, oilasining jamiyatda tutgan o'rni, jismoniy yoki rivojlanishda kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadigan ta'lim hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim olishidir. Bunday ta'limning diqqat markazida imkoniyati cheklangan bola turadi. Integratsiya tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib, “integrative” – qo'shiluvchi, birlashuvchi, “integration” – qo'shilish, birlashish degan ma'nolarni anglatadi. Inklyuziv ta'lim esa integratsiyani o'z ichiga oladi.

Demak, barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga oladigan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi.

2.2. Inklyuziv ta'limning ijtimoiylashuvi.

Imkoniyati cheklangan bolalar umumta'lim maktabi ijtimoiy muhitiga olib kirilganda bolada sekin astalik bilan o'ziga bo'lgan ishonch va motivatsion tuyg'ular paydo bo'ladi. Inklyuziv ta'limning ijtimoiylashuvida nogiron bo'lgan hamda sog'lom bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabat ko'zda tutiladi. Har bir imkoniyati cheklangan bolani umumta'lim muassasalariga da'vat qilinganda bolada qo'rquv yuzaga keladi. Sababi shunda-ki, ular alohidalikka o'rganib qolishgan. Ya'ni o'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishdan cho'chiydi.

Uyda ta'lim olayotgan aqliy jihatdan umumta'lim muassasalariga layoqatli bo'lgan, biroq tayanch-harakat a'zolarida muammosi bor, zaif eshituvchi, zaif ko'ruvchi o'quvchilarni o'ziga jalb etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sababi, ular boshqa sezgi a'zolari orqali pedagog beradigan ma'lumotlarning ma'lum qismini o'zlashtiradi. Bu esa tengdoshlari orasida o'zining munosib o'rnini topishiga va kichik bo'lsa ham, yutuqlarga erishishiga, bora-bora hayotda o'z yo'lini topishiga ko'mak beradi.

Imkoniyati cheklangan bolalarga sog'lom tengdoshlari tomonidan yordam ko'rsatish orqali ikki tomonlama manfaatga erishish mumkin:

- 1) imkoniyati cheklangan bolaga sog'lom tengdoshlari orqali ko'rsatilgan yordam uning hayotga ishonch bilan qarashiga yordam beradi;
- 2) sog'lom bola qalbida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan g'amxo'rlik xissi uyg'onadi.

Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi. Bola, u qanday xolatda va qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar har doim kattalar yordamiga muxtojdir. Uni ajratish yoki alohida nom bilan atash insonparvarlik nuqtai nazariga tug'ri kelmaydi. Agar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan «anomal bolalar», «Imkoniyati cheklangan bolalar», «ko'r bolalar», «kar bolalar», «aqli zaif bolalar», «harakat tayanch a'zolari falajlangan bolalar» tushunchalar ishlatilib kelindi.

Ammo ushbu tushunchalar imkoniyati cheklangan bolalarni huquqlarini poymol qiladi. Ota-onalarga ham salbiy ta'sir etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishidagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Bolaning huquqlarini himoya qilish, ularga ijobiy munosabatda bulish tarbiyalashning muxim usulidir. Shuning uchun ham taxkirlashlarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimida o'quv tarbiya jarayonining tashkil etishi:

- Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida dars jarayonini moslashtirish.
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida dars jarayonini moslashtirish.
- Tayanch harakat a'zolarida muammolari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida dars jarayonini moslashtirish.
- Yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida dars jarayoniga moslashtirishdan iborat.

Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining nafli jixati juda ko'p ular sirasiga qo'yidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlarni oldini oladi;
- Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi nafli jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

- inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindoshurug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi;
- inklyuziv ta'lim barcha uchun, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin;
- bolalarni oilasidan, o'yidan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning o'yi, oilasi xamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqigato'sqinlik qiladi;

- o'yidan, oilasidan, ota-ona mexridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarniqamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Jamiyatda Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yanglish fikr va munosabat mavjud. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularga yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim - tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim - tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarini anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi.

Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" ta'lim atamalari bilan ataladi. "Integratsiya" atamasini aniqlash maqsadida ushbu tushunchaning ta'rifini bergan. Unda "guruxlar integratsiyasiga", "guruxda shaxslararo munosabatlarni tartibga solish" sifatida qoraladi shuningdek, jamoada faqatgina insonparvrlik munosabatlarni va mazkur guruxda ijobiy jamoatchilik fikrini yaratilishi bilan integratsiyani amalga tadbqiq etish mumkin deb ta'kidlanadi. Keyingi yillarda imkoniyati cheklangan bolalarni barcha tengdoshlari katori umumta'lim tizimida ta'lim olishiga jiddiy etibor berilmoqda va inklyuziv ta'lim matbuot axborot vositalari orkali ommaga keng targibot qilinmoqda. Bu borada otaonalar ham farzandlarini umumta'lim tizimidagi integratsiyalashgan va inklyuziv gurux va sinflarda ta'lim - tarbiya olishiga uz istaklarini bildirishmokka.

Integratsiyalashgan ta'lim bu, -diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qoraladi.

Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

- Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli Imkoniyati cheklangan bola va

Imkoniyati cheklangan bola bulmagan bolalar urtasidagi jismoniy farkni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda Imkoniyati cheklangan bola bolalar uchun maxsus bo‘lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

- Funksional integratsiya. Bu shakl Imkoniyati cheklangan bola va Imkoniyati cheklangan bola bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi funktsional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

- Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u imkoniyati cheklangan bola hamda imkoniyati cheklangan bola, bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani qo‘llab – quvvatlaydi.

Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan.

YUNESKO tashkiloti inklyuziv ta’limni “o‘quvchilar xilma-xilligini qamrab oluvchi va individual farqlarni muammo sifatida emas, balki jarayonni boyitish imkoniyati sifatida qabul qiluvchi dinamik yondashuvdir”, deb hisoblaydi.

O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi raisi, Oliy Majlis senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash qo‘mitasi ekspertlar kengashi a‘zosi Oybek Isoqov: “Inklyuziv ta’lim – barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir” deb ta’rif beradi. Inklyuziv ta’lim bu maxsus yordamga muhtoj yoshlar va bolalar uchun individuallashtirilgan va sharoitga qarab o‘zgaruvchan, g‘amxo‘rlik bilan yondasha oladigan ta’lim tizimidir.

Yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolaning kamsitishlardan holi bo‘lgan, bolaning ham aqliy, ham jismoniy rivojlanishi uchun ta’lim tashkilotlarida ular uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan ekan. Ushbu ta’lim nafaqat alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bola balki, barcha bolalar uchun ham ahamiyatli.

Inklyuziv ta'lim jamiyat a'zolari tomonidan ijobiy qabul qilinishi va ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan o'quvchi uchun sharoit yaratilishi kabi masalalar inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashda muhim. Nogironligi mavjud bola va sog'lom bola o'rtasidagi tafovutlarni yo'qotish orqali alohida ta'lim ehtiyoji mavjud bo'lgan bolada ijtimoiylashuv jarayoni shakllana boradi.

“Ijtimoiylashuv” atamasiga amerikalik sotsiolog G.Keddings “Ijtimoiylashuv individ tabiati yoki xarakterining rivojlanishi, insoni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir”, degan fikrni beradi.

Nogironligi mavjud bo'lgan bolada ijtimoiylashuv jarayonida, jamiyatga kirib borish, ijtimoiy ta'sirlarni o'zlashtirish hamda ijtimoiy aloqada ulardan foydanlanishni o'rganadi.

Inklyuziv ta'limning ijtimoiylashuvida nogironligi mavjud bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabat nazarda tutiladi. Har bir imkoniyati cheklangan bola yoki o'smirda maktabga kelganda unda qo'rquv, o'ziga ishonchsizlik kabi salbiy tuyg'ular paydo bo'lishi mumkin. Chunki ular alohidalikka moslashgan bo'ladi. Bu esa ularda o'zga bolalar bilan munosabatga kirishishdan cho'chish holatlarini paydo qilishi mumkin.

Maktabga kelgan imkoniyati cheklangan bolada umumta'lim maktabidagi holatga asta-sekinlik bilan o'ziga ishonch va ijobiy tuyg'ular shakllana boradi yoki aksincha bo'lishi kuzatiladi.

Ijtimoiylashuv jarayonining og'riqsiz kechishi ta'lim ishtirokchilariga ham bog'liq. Yaxshi shakllangan(ya'ni shakllantirilgan) sinf jamoasi nogironligi mavjud bo'lgan bolani qabul qilishi tezroq kechadi. Unda bolada jamiyatdagi insonlar orasidagi o'rnidan o'ziga va qobiliyatiga bo'lgan mustahkam ijobiy ishonch, atrodagilarga ijobiy munosabat paydo bo'ladi.

Ba'zi hollarda nogironligi mavjud bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasligi, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib borishini ta'minlaydi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning sogʻlom tengdoshlari tomonidan yordam koʻrsatilishi ikki tomonlama manfaatlidir:

1 Imkoniyati cheklangan bolaga sogʻlom tengdoshlari orqali koʻrsatilgan yordam uning hayot(jamiat)ga ishonch bilan qarashiga yordam beradi;

2. Sogʻlom bola qalbida imkoniyati cheklangan bolalarga(atrofidagi boshqa insonlarga) nisbatan gʻamxoʻrlik hissi uygʻonadi.

Xulosa shuki, inklyuziv taʼlimning ijtimoylashuv jarayonida nogironligi mavjud bola yoki oʻsmir hayotining keyingi bosqichlari uchun tayyorgarlik, moslashuvchanlik kabi bir qator tushunchalarning tarkib topishi, imkoniyati cheklangan bolaning jamiyatni munosib aʼzosi sifatida ishtirok etishini taʼminlaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv taʼlimga jalb etish.

2. Inklyuziv taʼlimning ijtimoiylashuvi deganda nimani tushunasiz?

3. Imkoniyati cheklangan bolalar qanday turlarga boʻlinadi?

4. Inklyuziv taʼlim deganda nimani tushunasiz?

III BOB. IKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY ASOSLARI

3.1. Iklyuziv ta'limning huquqiy asoslari.

O'zbekistonda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta'lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo'lgan mehr-shafqat hamda ezgulik tuyg'ularini hisobga olgan holda nogironlarning muhim ehtiyoj va talablariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 aprelda PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-sondagi Qonuni 2020 yil 6 noyabrda PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrda 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-sonli «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning

sogʻlom bolalar qatoridan oʻrin olib oʻz qobiliyati, imkoniyatlarini koʻrsata olishiga, maʼnaviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq taʼlimi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-3931-son qarorida alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini taʼminlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning taʼlim-tarbiya (shu jumladan, inklyuziv taʼlim-tarbiya) olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish boʻyicha alohida vazifalar qayd etib oʻtilgan.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga koʻrsatiladigan taʼlim xizmatlari sifatini yaxshilash boʻyicha:

- alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar taʼlim oladigan taʼlim muassasalari binolariga qoʻyiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar oʻqitiladigan taʼlim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qoʻllanmalar, turli kasblarga oʻqitish uchun uskuna va jihozlar bilan taʼminlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarni oʻqitish uchun inklyuziv taʼlim tizimini tashkil etish, umum taʼlim muassasalarini maxsus moslamalar (koʻtarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish boʻyicha mutaxassislar) bilan taʼminlash;

- jamoatchilik oʻrtasida alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv oʻqitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

- oʻquvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va taʼlim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar oʻqitiladigan taʼlim muassasalarini optimallashtirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

“Zamonaviy maktab” larni qurishda ushbu maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo'lishi va jihozlanishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha “Zamonaviy maktab” ga qo'yiladigan me'yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning otalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda ta'lim muassasalari har tomonlama yordam ko'rsatishi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomda belgilab berilgan.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish zamon talabidir.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yordamga muhtoj bolalar davlatimizning teng huquqli a'zolari. Ularni uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha muassasalarda hamma qatori ta'lim olishi va tarbiyalanishini ta'minlash bizning asosiy vazifalarimizdan biridir.

Insonlarning nogironlarga nisbatan munosabatini o'zgartirish, atrofdagilarni ularning jamiyatda to'liq va teng huquqli ishtiroki haqida xabardor qilish nogironlarning dolzarb muammolarini hal etishda o'ta muhim ahamiyatga ega. “Nogiron” tushunchasini muomaladan chiqarish va uning, eng avvalo, inson ekanligini hisobga olgan holda umume'tirof etilgan “nogironligi bo'lgan shaxs” atamasini kiritish va BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar tashkil etilishi ham quvonarlidir. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari

kafolatlari» haqidagi Qonuni har bir bola o'z oilasida tarbiyalanish huquqini kafolatlaydi, bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini belgilaydi, davlat organlarini bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha kafolatlarni belgilaydi.

BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umum jahon Deklaratsiyasi"da "Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi" ekanligi alohida e'tirof etilgan. "Inson huquqlari umum jahon Deklaratsiyasi" barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu Deklaratsiyaning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishliligi aniqlandi. Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975 yilda "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta'kidlanishicha:

Xuddi shunday bolalarni huquqlarini muhofaza qilish maqsadida BMT 1989 yilda "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ni qabul qildi. "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" bolalarning huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi halqaro shartnoma hisoblanadi.

U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko'ngilli tarzda zimmlariga "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" qoidalarini ma'muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida "Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug'ilishi

bilan mavjud bo'ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega" ("Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiya, 3-modda) hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar. "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" kompleks va ko'p qirrali xarakterda bo'lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni qamrab olgan yagona Konvensiyadir.

Nuqsonli bolalarning o'quv imkoniyatlari asosiy o'rinda turadi. Barcha nuqsonli bolalarning nuqsonlarini erta aniqlab ta'limga jalb qilish imkoniyatini topmoq kerak. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha huquqiy me'yoriy hujjatlar, xalqaro forum Konferensiyalar asosida maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyatning to'laqonli va teng-huquqli a'zosi ekanligi e'tirof etilib, ular ta'limida alohida yangicha yondashuv maydonga keldi. Ushbu ta'lim shakllari inklyuziv va integratsion ta'lim deb ataldi.

“Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida”gi Deklaratsiyaning mazmunidan shu narsani tushunish mumkinki, nogiron fuqarolar uchun jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish kafolatlanadi. Ammo mazkur deklaratsiyada nogiron bolalar, ularning ta'lim olish imkoniyatlari va barcha davlatlar tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlari batafsil yoritilganligi aniqlandi. Bu xususda R.A.Suleymenova fikricha “Agarda nogiron bolalarning o'z jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etish imkoniyatlari bo'yicha mustaqil harakatlanishga ishonch berilsa nogiron shaxslarning o'rtasidagi to'siqlar imkoniyatlari keskin kamayadi” degan fikrni bildirdi.

“Ta'limning uzluksizligi, yangi global iqtisodiyotning kalitidir. Ta'lim rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va inson ozodligi uchun tub ahamiyatga ega” deb ta'kidlaydi.

Imkoniyati cheklangan har bir bolaning o'z oilasida yashab tarbiyalanish huquqini ta'minlash maqsadida ta'limning ustuvor shakli sifatida umumiy, ya'ni inklyuziv ta'lim belgilangan. Bu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga oilada yashash, ota-ona mehridan bahramand bo'lib o'z mahallasida tengqurlari orasida umumiy ta'lim olish imkonini beradi.

«Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlar ekan, «barcha huquqlar – barcha bolalarga» tamoyili e'tirof etiladi.

Bu borada «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»da maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim tarbiyasi xususida: «Nogiron bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga

yetaklovchi vosita hisoblangan ta'limga, ta'lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozim», deb ta'kidlangan. Bu qonunga binoan, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishi, milliy e'tiqod va madaniyatga ham ohang bo'lib o'sishi, uning boyliklaridan, go'zalligidan bahra olib jamiyatning rivojiga hissa qo'shishlari katta ahamiyatga egadir.

Alohida ehtiyojli bolalar barcha bolalar kabi, teng huquqli bo'lib ular bilan bir jamoada yashash va birgalikda ta'lim olish huquqiga egadirlar. Alohida ta'lim olish esa bu huquqni cheklaydi va o'z-o'zini namoyon qilish imkoniyatlaridan mahrum qiladi. Alohida ehtiyojli bolalar ularning cheklangan imkoniyatlari tufayli alohida o'qitilishi ularning ijtimoiylashuvini chegaralab, mustaqil hayotga tayyor bo'lishini qiyinlashtirishiga olib keladi. Birlashtirilgan, inklyuziv ta'lim – inson huquqlarining dolzarb muammosi bo'lib kelgan. Hali juda ko'p bolalar otalarining bola uchun qulay sharoiti mavjud, deb hisoblagan maxsus internatlarda o'qitishi tarafdori bo'lib kelmoqda. Lekin voyaga yetgan katta yoshli nogironlar, o'zlarini inklyuziv ta'lim shartlarini boshidan kechirgan deb ta'riflab, alohida ta'limning bekor qilinishini talab qilmoqdalar. Chunki “qulay, imtiyozli sharoitda, hamma narsa tayyor bo'lgan sharoitdan chiqqach, tashqariga moslashish, o'z o'rnini topish mashaqqati uzoq yillar davom etadi. Har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqliligini ta'minlash har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga xizmat qiladigan inklyuziv ta'lim tushunchasi ham qonuniy kuchga kiritilishi uzoq kutilgan yangiliklardan biri hisoblanadi.

Shular nazarda tutilgan holda hozirgi kunda birlashtirilgan – inklyuziv davlat siyosati darajasida ko'rilmogda. Birlashtirilgan ta'limga o'tish jarayoni uchun quyidagilar amalga oshirilishi talab etiladi:

- Ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosabatlarning o'zgarishi;
- Oilaning bunga tayyor bo'lishi;

➤ Maxsus maktab ta'limida bolalarning o'qitilish vaqti qisqartirilib bolalar boshlang'ich bosqichda reabilitatsiya bo'lishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratilishi;

➤ Maxsus maktab ta'limi sohasi malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi, korreksiya va reabilitatsiya jarayonini sifatli va tezkor amalga oshirilishi uchun zarur jixozlar bilan ta'minlanishi;

➤ Maxsus maktab ta'limi va oila hamkorligiga erishish, oilaning reabilitatsiya jarayonida faol bo'lishiga erishish (qo'shimcha uydash, hug'ullanish, repititor, maxsus psixolog maslahati orqali).

Umumta'lim maktablarni birgalikdagi – inklyuziv ta'limga tayyorlash:

➤ Maxsus infrastruktura yaratish;

➤ Maxsus mutaxassislar bilan ta'minlash;

➤ Ehtiyojlarga mos texnik va o'quv moslamalari bilan ta'minlash (maxsus lampalar, eshitish apparatlari, Brayl moslama komplekti, aravachalar uchun maxsus partalar va h.k.).

O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'iy nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat xohlovchilar o'z yonidan pul to'lab xususiy maktablarda o'qishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi. Bu borada muammolar ko'p. 2020 yil 13 oktyabrda qabul qilingan «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar ko'rsatilgan:

➤ alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'liqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

➤ alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;

➤ alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

➤ alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

➤ pedagogika yo'nalishidagi OTMLar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

➤ pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunday vaziyatda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o'quvchi uyda ta'lim oladi.

2020 yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan.

Prezident qarori bilan 2025 yilgacha inklyuziv umumta'limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi qo'yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni xuddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv bazasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

3.2. Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari.

O'zbekiston Raspublikasida ilk bor eksperiment loyihalar sifatida 2005-yildan boshlangan. UNICEF xalqaro tashkiloti loyihasi doirasida 2005 – 2007 yilda O'zbekistonning Qoraqolpog'iston, Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida tajriba-sinov ta'riqasida ish olib borilgan, lekin u vaqtlarda imkoniyati cheklangan bolalar to'la-to'kis aniqlanib ta'limga jalb etilmagan. Shuning uchun ishni birinchi bo'lib, yuqorida sanalgan viloyatlarda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni aniqlash bo'lgan.

Birinchi vazifani o'rganish natijasida, O'zbekistonda ana shu maxsus ta'lim yo'nalishi bo'yicha yetakchi mutaxassislar, tibbiyot hodimlari jalb etilib, o'sha viloyatlarda ta'limga jalb etilmay qolgan bolalarni aniqlab chiqilgan. O'rganishlar natijasida 1400 ga yaqin bolalar inklyuziv ta'limga muhtoj ekanligi aniqlangan. 1400 ta bolani ko'rib ularning sog'liklari haqida o'rganilib, 1-sinfga inklyuziv sinf tarzda o'tkazilishi mumkin bo'lgan bolalarni inklyuziv sinfga tayyorlash, qolganlarini esa maxsus maktab internatlarga joylashtirish ishlari amalga oshirilgan. Ana endi har bir shaxsda savol paydo bo'ladi, "Nima sababdan shuncha bola e'tibordan chetda qolib ketgan?".

Vaholanki, SSSR davrida ham, mustaqillik davrida ham "Majburiy ta'lim" degan qonun mavjud bo'lgan. Ta'lim to'g'risidagi qonunda "7 yoshdan boshlab barcha bolalar ta'limga qamrab olish kerak" degan qonun mavjud bo'lgan. Lekin uni amalga oshirish bo'yicha ish juda izchillik bilan olib borilmagan. Natijada bu bolalar maktab bilan qamrab olinmaganligini birinchi sababi: ota-ona bolasini nogironligidan andisha qilib, nomus qilib bolalarini berkitgan. Ikkinchidan nogiron bo'lsa, albatta, internatda ta'lim olishi kerak degan qonun bor edi. «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya Sog'lom bolalar orasida ular ta'lim ololmaydi degan tushuncha mavjud bo'lgan. Ota-onalar bo'lsa bag'ridan bolasini chiqargisi kelmagan, ya'ni internatdan chiqargisi kelmagan. Natijada bolalarning yoshi 9 – 10 yoshda bo'lsalar ham ularning savodi bo'lmagan. Fayziyeva Ubayda Yunusovna va ularning hamkasblari inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni hammasini aniqlab, hamma viloyatlarda ularni

inklyuziv ta'limga jalb qilish borasida ish olib borganlar. Ota-onasi rozi bo'lgan bolalar internatlarga jaylangan. Jami 800 ta bolalar internatga jalb qilingan bo'lsa, shundan 300 dan ortig'i inklyuziv ta'limga jalb etildi. Ularning maktablarga joylashtirish borasida mutaxassislar maktab sharoitlari, imkoniyatlarni hammasini o'rganib chiqib, talabga javob beradigan maktablarga bolalar joylashtirildi. Bu borada bolalar ham tibbiy tekshiruvlar, psixologlar bilan birgalikda ularning psixologik nuqtai nazardan ularni o'rganib chiqib, agar maktablarga joylashtirilsa o'z tengqurlari bilan bir qatorda o'zlashtirib olish va ma'lumotlarni qabul qilish doirasiga qarab maktablarga joylashtirilgan. Bolalarning ota-onalari ham 1 oylik maxsus kurslarda o'qitilgan, bunga sabab bolalarning ota-onalari ham tushinishsin, ijtimoiy yordamga muhtoj bolalar ham sog'lom bolalarga o'xshab teng huquqli ekanliklari haqida. "Bola huquqlari to'g'risida konvensiya"ni har bir maktabda, butun maktab o'quvchilarini bir joyga to'plagan holda, munozaralar uyushtirilgan maktab o'quvchilari ham hamma teng huquqli ekanligini tushuntirishda keng ko'lamli ishlar olib borilgan, bundan tashqari maktab o'qituvchilarga ham seminarlar tashkil etilgan. Mana shu ikki yil mobaynida juda ham kerakli bo'lgan ishlar olib borilgan.

Har bir viloyatdan o'zining trenerlar mavjud bo'lgan, ular bilan maktab bilan ishlaydigan ma'sul shaxs bo'lgan. 1-sentabrgacha mana shunday keng ko'lamli ishlarni qilib, 1-sentabrda o'quvchilarni maktabga olib chiqilgan. Ilmiy rahbarlar ham buday bo'lishlarini kutishmagan edilar. Maktab o'quvchilari ularni mehrli ko'zlar bilan kutib olib, ulardan o'z yordamlarini ayamadilar. Fayziyeva Ubayda Yunusovna ham mutaxassis sifatida "Nogiron bolalar internatda tahsil olishi maqulroq" degan tushunchada bo'lgan ekanlar va ko'pgina bolalarni internatga joylashtirishga uringan ekanlar.

Lekin inklyuziv ta'limga olib chiqib bu qanday natija berishini kutish ham bu ularning oldiga qo'yilgan katta vazifalardan biri deb hisoblagan ekanlar, natija a'lo darajada ekanligidan ma'mnun bo'lib ana o'shada olingan sur'atlarni ham hozirgacha salab qolgan ekanliklarini ta'kidlab o'tdilar. 2006-yili inklyuziv sinflarda natijalar qanday bo'layotgani bilish maqsadida o'rganishlar olib borildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, eshitmaydigan bola ham sog'lom bolalar qatorida ular bilan birga o'qib, gapiradigan darajaga kelganligi ko'ringan. UNICEF tomonida har bir zaif eshituvchi bolaga implant o'rnatilgan. Bu yutuqlarni bolalardagi o'zgarishlarni ko'rgan ota-onalar ham bolalarini «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya internatga bermasdan, ommaviy maktablarga chiqarib o'qitgan. Maktabni bitirgan bolalar yuqori lavozimlarda ishlaydigan darajada bo'lib bitirgan.

3.3. Inklyuziv ta'limga jalb etishda quydagi bosqichlar amalga oshirildi.

1) Izlab topish va jalb qilish bosqichi. Nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalab qo'yishlar bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular hamjamiyatdan chetlashtirilmoqda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari yanada chegaralanib qolmoqda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshqalardan bекitish hollari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir. Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibo-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham maktab ta'lim-tarbiyasini olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. Shunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish imkoni yaratiladi. Ro'yxatga olingan bolalar o'z yaqin arofidagi umumta'lim maktablariga jalb etiladi.

2) Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'illanish bosqichi. Bu bosqichda umumta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasi tuzib chiqiladi.

3) Reabilitatsiya bosqichi. Bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababali bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta'lim tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular "ob'ekt" emas, balki "sub'ekt" vazifasini o'taydi.

Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilisha qodir ekanligi diqqat markazda turadi.

4) Intergatsiya bosqichi. Bu bosqich inklyuziv tarzida o‘qitilgan, reabilitatsiya jarayoni malga oshirilgan nogiron bolalarni ijtimoiy jamiyatga to‘la kiritish bosqichidir. Integratsiya bosqichida nogiron bolalar to‘laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. Ya’ni bu bosqichda nogiron bolalarning ham o‘zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasida ilk bor eksperiment loyihalar qachon ishlab chiqilgan?
2. Inklyuziv ta’limga jalb etishda qanday bosqichlardan foydalaniladi?
3. Izlab topish va jalb qilish bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?
4. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug‘illanish bosqichida qanday ishlar amalga oshiradi?

IV BOB. INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILISH BOSQICHLARI

4.1. Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari

1. Inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasida ilk bor eksperiment loyihalar sifatida 2005-yildan boshlangan. UNICEF xalqaro tashkiloti loyihasi doirasida 2005 – 2007 yilda O'zbekistonning Qoraqolpog'iston, Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida tajriba-sinov ta'riqasida ish olib borilgan, lekin u vaqtlarda imkoniyati cheklangan bolalar to'la-to'kis aniqlanib ta'limga jalb etilmagan. Shuning uchun ishni birinchi bo'lib, yuqorida sanalgan viloyatlarda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni aniqlash bo'lgan.

Birinchi vazifani o'rganish natijasida, O'zbekistonda ana shu maxsus ta'lim yo'nalishi bo'yicha yetakchi mutaxassislar, tibbiyot hodimlari jalb etilib, o'sha viloyatlarda ta'limga jalb etilmay qolgan bolalarni aniqlab chiqilgan. O'rganishlar natijasida 1400 ga yaqin bolalar inklyuziv ta'limga muhtoj ekanligi aniqlangan. 1400 ta bolani ko'rib ularning sog'liklari haqida o'rganilib, 1-sinfga inklyuziv sinf tarzda o'tkazilishi mumkin bo'lgan bolalarni inklyuziv sinfga tayyorlash, qolganlarini esa maxsus maktab internatlarga joylashtirish ishlari amalga oshirilgan. Ana endi har bir shaxsda savol paydo bo'ladi, "Nima sababdan shuncha bola e'tibordan chetda qolib ketgan?".

Vaholanki, SSSR davrida ham, mustaqillik davrida ham "Majburiy ta'lim" degan qonun mavjud bo'lgan. Ta'lim to'g'risidagi qonunda "7 yoshdan boshlab barcha bolalar ta'limga qamrab olish kerak" degan qonun mavjud bo'lgan. Lekin uni amalga oshirish bo'yicha ish juda izchillik bilan olib borilmagan. Natijada bu bolalar maktab bilan qamrab olinmaganligini birinchi sababi: ota-ona bolasini nogironligidan andisha qilib, nomus qilib bolalarini berkitgan. Ikkinchidan nogiron bo'lsa, albatta, internatda ta'lim olishi kerak degan qonun bor edi. «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya Sog'lom bolalar orasida ular ta'lim ololmaydi degan tushuncha mavjud bo'lgan.

Ota-onalar bo'lsa bag'ridan bolasini chiqargisi kelmagan, ya'ni internatdan chiqargisi kelmagan. Natijada bolalarning yoshi 9 – 10 yoshda bo'lsalar ham ularning savodi bo'lmagan. Fayziyeva Ubayda Yunusovna va ularning hamkasblari inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni hammasini aniqlab, hamma viloyatlarda ularni inklyuziv ta'limga jalb qilish borasida ish olib borganlar. Ota-onasi rozi bo'lgan bolalar internatlarga jaylangan. Jami 800 ta bolalar internatga jalb qilingan bo'lsa, shundan 300 dan ortig'i inklyuziv ta'limga jalb etildi. Ularning maktablarga joylashtirish borasida mutaxassislar maktab sharoitlari, imkoniyatlarni hammasini o'rganib chiqib, talabga javob beradigan maktablarga bolalar joylashtirildi. Bu borada bolalar ham tibbiy tekshiruvlar, psixologlar bilan birgalikda ularning psixologik nuqtai nazardan ularni o'rganib chiqib, agar maktablarga joylashtirilsa o'z tengqurlari bilan bir qatorda o'zlashtirib olish va ma'lumotlarni qabul qilish doirasiga qarab maktablarga joylashtirilgan. Bolalarning ota-onalari ham 1 oylik maxsus kurslarda o'qitilgan, bunga sabab bolalarning ota-onalari ham tushinishsin, ijtimoiy yordamga muhtoj bolalar ham sog'lom bolalarga o'xshab teng huquqli ekanliklari haqida. “Bola huquqlari to'g'risida konvensiya”ni har bir maktabda, butun maktab o'quvchilarini bir joyga to'plagan holda, munozaralar uyushtirilgan maktab o'quvchilari ham hamma teng huquqli ekanligini tushuntirishda keng ko'lamli ishlar olib borilgan, bundan tashqari maktab o'qituvchilarga ham seminarlar tashkil etilgan. Mana shu ikki yil mobaynida juda ham kerakli bo'lgan ishlar olib borilgan.

Har bir viloyatdan o'zining trenerlar mavjud bo'lgan, ular bilan maktab bilan ishlaydigan ma'sul shaxs bo'lgan. 1-sentabrgacha mana shunday keng ko'lamli ishlarni qilib, 1-sentabrda o'quvchilarni maktabga olib chiqilgan. Ilmiy rahbarlar ham buday bo'lishlarini kutishmagan edilar. Maktab o'quvchilari ularni mehrli ko'zlar bilan kutib olib, ulardan o'z yordamlarini ayamadilar. Fayziyeva Ubayda Yunusovna ham mutaxassis sifatida “Nogiron bolalar internatda tehsil olishi maqulroq” degan tushunchada bo'lgan ekanlar va ko'pgina bolalarni internatga joylashtirishga uringan ekanlar. Lekin inklyuziv ta'limga olib chiqib bu qanday natija berishini kutish ham bu ularning oldiga qo'yilgan katta vazifalardan biri deb

hisoblagan ekanlar, natija a'lo darajada ekanligidan ma'mnun bo'lib ana o'shada olingan sur'atlarni ham hozirgacha salab qolgan ekanliklarini ta'kidlab o'tdilar. 2006-yili inklyuziv sinflarda natijalar qanday bo'layotgani bilish maqsadida o'rganishlar olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, eshitmaydigan bola ham sog'lom bolalar qatorida ular bilan birga o'qib, gapiradigan darajaga kelganligi ko'ringan. UNICEF tomonida har bir zaif eshituvchi bolaga implant o'rnatilgan. Bu yutuqlarni bolalardagi o'zgarishlarni ko'rgan ota-onalar ham bolalarini «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya internatga bermasdan, ommaviy maktablarga chiqarib o'qitgan. Maktabni bitirgan bolalar yuqori lavozimlarda ishlaydigan darajada bo'lib bitirgan. Inklyuziv ta'limga jalb etishda quydagi bosqichlar amalga oshirildi.

1) Izlab topish va jalb qilish bosqichi. Nogiron odamlarning hayoti asosan yakka lab qo'yishlari bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular hamjamiyatdan chetlashtirilmoqda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari yanada chegaralanib qolmoqda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshqalardan bекitish hollari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir. Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibo-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham maktab ta'lim-tarbiyasini olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. Shunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish imkoni yaratiladi. Ro'yxatga olingan bolalar o'z yaqin arofidagi umumta'lim maktablariga jalb etiladi.

2) Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'illanish bosqichi. Bu bosqichda umumta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasi tuzib chiqiladi.

3) Reabilitatsiya bosqichi. Bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababali bu bosqichda nogiron odamlar

nafaqat ta'lim tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular “ob’ekt” emas, balki “sub’ekt” vazifasini o'taydi. Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilisha qodir ekanligi diqqat markazda turadi.

4) Intergatsiya bosqichi. Bu bosqich inklyuziv tarzida o'qitilgan, reabilitatsiya jarayoni amalga oshirilgan nogiron bolalarni ijtimoiy jamiyatga to'la kiritish bosqichidir. Integratsiya bosqichida nogiron bolalar to'laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. Ya'ni bu bosqichda nogiron bolalarning ham o'zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

4.2. Oilada tarbiya shakllari.

Giperproteksiya – ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko'r-ko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar. Bolasi uchun “jonini jabborga beruvchilar” odatda o'zlari bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo'q, ko'pchilikning ichida o'zini tuta olmaydigan, hayotning past-balandliklarida o'zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo'lib qoladi. Ayniqsa, bola o'smirlik yoshiga yetganda, erka, tantiq bo'lgani uchun do'stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo'lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo'lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o'z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro'yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo'ladi, lekin bola ko'p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi.

G'amxo'rlikdan ustun keladigan giperproteksiya – bunda erkalatishdan ko'ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida

turli xil ta'qiqlar, chegaralashlar ("u mumkin emas", "bu mumkin emas" qabilida) paydo bo'ladi. Bunday sharoitda katta bo'lgan bola odatda mustaqil fikrli, mustaqil qarorlar chiqaruvchi bo'lolmaydi, lekin salga jahli chiqadigan, ko'p narsalardan norozi holda katta bo'ladi, chunki u doimiy nazoratga, birovlarining hamma yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib, aytib berishlariga o'rganib qoladi: onasisiz dars tayyorlay olmaydigan, otasisiz ko'chaga chiqmaydigan bo'ladi, barcha ishlarida kattalarning aralashuviga ko'nikib ketadi.

O'ta kuchli axloqiy mas'uliyat – bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi. Ota-ona bolasining kelajagini puxta qilishni o'ylab, uning yurish-turishi uchun o'zlarini mas'ul deb his qilgan holda, shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga, shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba'zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, topshiriqlar ham berilaveradi. Masalan, "sen to'ng'ichimizsan, ukalaringga sen qarashing kerak", "katta arava qayerga yursa, kichigi ham shu yoqqa yuradi" degan ma'noda unga oiladagi kichik a'zolarga yoki kasallikka chalingan oila a'zosini parvarish qilish kabi mas'uliyatli va og'ir ishlar ham yuklanadi.

Emotsional raddiya – bunda ota-ona bolasini shunday tarbiyalaydiki, uning ota-ona hayotida u o'ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo'lmaganida ota-onaning hayoti boshqachi bo'lishi muntazam ravishda eslatib turiladi. Agar bu farzand oilada yagona bo'lmasa, boshqa arzandaroq, suyukliroq inson bo'lsa, vaziyat yanada og'irlashadi, "sen bo'lmaganingda..." yoki qiz bolaga qarab: "Sening o'rningda o'g'il bo'lganda edi..." qabilidagi kesatiqlar tez-tez aytib turiladi.

Ayrim ota-onalar bu kabi emotsional jihatdan bolasini rad etayotganligini yashirishga urinadi, "nega bolani yoqtirmaysan?" kabi savollarga aslida uni sevishi, kerakligini ta'kidlagan bilan baribir bola ota-onasi uchun ortiqcha tashvish ekanligini his qilib yashaydi va tezroq mustaqil bo'lib olib, ularni tashlab ketishni, alohida yashashni ixtiyor qilib qoladi. Ona qanchalik o'z mehribonligini sun'iy ravishda namoyon etishga urinmasin, bola baribir ularning samimiy emasligini

qalbi bilan his etadi. Ayniqsa, otasi bilan ajralishgan yoki ota tashlab ketgan holatlarda onaning bunday munosabati bolaga juda og'ir botadi.

Qattiqqo'llik – bir qarashda emotsional rad etishga o'xshaydi, lekin undan ochiqroq va og'irroqdir. Qattiqqo'llik to'g'ridan-to'g'ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to'la befarqlik, uning bor-yo'qligini go'yoki sezmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola yoshligidan nima qilib bo'lsa-da, tezroq katta bo'lish, o'zi amallab tirikchiligini qilish, ota-ona tazyiqidan qutulishni o'ylab yashaydi. Bunday oilada bolani u yoki bu xulqi uchun jazolash odat tusiga kirib qoladi, bola qo'rqqanidan ota-ona hukmiga itoat etayotganligi, buning istiqbolda yomon asoratlari borligini kattalar bilmaydilar, bilsalar ham bu usul ular uchun samarali tuyuladi. Aybdorlik, aybga yarasha jazo kabi usullar bola xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik omilga aylanadi, u ham kelajakda doimo aybdorlarni qidirishga o'rganib boradi.

1.Freyd nazariyasiga ko'ra, ana shunday jazoga hukm etilgan bola tobora agressiv bo'lib borib, o'zida alamni qaysidir bir ob'ektdan (o'zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo'lib o'sadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Amerikada ko'cha bolalarining kamida 1%i oilada ayni shunday tarbiyaning qurbonidirlar. Amerikalik olim S.D.SHerriits (2003) oiladagi ana shu kabi qattiqqo'lliklarning bola va ota-ona xulq-atvoriga salbiy ta'sirini o'rganib, ularning xarakterida ro'y beradigan o'zgarishlarga to'xtalib o'tgan. Jismoniy jihatdan bolaga zug'um qilib, uni kaltaklash holatlari deyarli barcha ijtimoiy qatlam vakillariga xosdir. Hayotda, ish-faoliyatida omadi kelmagan yoki baxtsiz muhabbat qurboni bo'lgan, lekin farzand ko'rgan ayollarning aksariyati achchig'ini bolasidan olishga moyillik tarkib topadi, bu tobora hayotiy ko'nikmaga aylanib boradi. Ayniqsa, stress omillar ta'sirida ota-ona (masalan, ishsizlar, uyi yo'qlar, ish qidirib boshqa erlarga ketib qolgan migrantlar, etnik yoki moliyaviy ziddiyatlarning qurbonlari, kambag'allar) o'z ijtimoiy muammolarini hal qila olmay, tug'ilgan bolasidan o'ch ola boshlaydi.

Turmushdagi muammolar qanchalik ota yoki ona uchun murakkab tuyulsa, ularning bolasini kaltaklashi, undan o'ch olish ehtimoli shuncha yuqori bo'lishini olimlar o'rganishgan. Shunisi xarakterliki, bolasini tez-tez do'pposlaydigan ota-onalar ayrim holatlarga unga qattiqqo'lliklarining sababini aytib, bu kabi harakatlarni nima uchun, nima sababdan amalga oshirayotganligini tushuntirishga ham jazm qiladi, bolani ularni tushunishga, hattoki, ko'mak berishga chaqiradi. Masalan, topganini o'zi ko'chada eb, alkogolga almashtirib kelib, achchig'ini yana boladan oladi-da, puli asli kam ekanligini, ichmasa turolmasligini bolaga tushuntiradi. Bunda bolaning yoshi unchalik ahamiyatli ham emas, 2 yoshdan o'tgan bolaga nisbatan jazo choralari ko'rilganligini ayrim holatlarda OAVda aks ettiriladi.

Gipoproteksiya – shunday holatki, unda ota-onaning bola bilan shug'ullanishga yo vaqti etishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo'yadi. Ayrim ota-onalar shu tarzda hayot kechirib, farzandlarini umuman nazorat ham qilmaydi, uning taqdiriga befarq bo'ladi, g'amxo'rlik ko'rsatmaydi, bolasining kelajagiga qayg'urmaydi. Gipoproteksiyaning yashirin shaklida ota-onalar bola ustidan nomiga nimalardir qilganday bo'ladi. Lekin aslida ularni faqat o'zlarining kundalik muammolari qiziqtiradi. Bola bu holatlarni tahlil etib, o'zining kerak emasligini, oilada ortiqcha ekanligini anglab boradi.

Tashlab qo'yilgan bolalar yoki tashlandiq bolalar – odatda yoshligidan na moddiy, na ma'naviy ehtiyojlari qondirilmagan bolalardir. Ular masalan, qorni to'ymaganidan jismoniy taraqqiyotdan orqada qolsa, nazorat va e'tiborning yo'qligidan turli jinoyat yo'llariga kirib qoladi, yaxshi, samimiy e'tibor va mehrning yo'qligidan jamiyatda, odamlar orasida o'z o'rnini topishga qiynaladigan, odamovi, savodsiz bo'lib o'sadi. Bularning barchasi ularning kelajakda jinoyat yo'llariga kirib qolishiga yoki zararli odatlarga o'rganishi (giyohvand moddalar iste'mol qilish)ga sabab bo'ladi. "Mehr tayanchi" markazi Toshkent shahrida aynan shunday bolalar toifasini to'g'ri hayotga qaytaradigan, gipoproteksiyaning qurbonlarini oilaviy muhiti sharoitini o'rganganidan so'ng ota-onasini chaqirtirib kelib, ular bilan pedagogik-korreksion, psixologik uslublarda

ishlaydigan muassasa hisoblanadi. Markazdagi bolalarning barchasi oiladagi noto'g'ri tarbiyaning qurbonlaridir.

Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli – ziddiyatli tarbiya. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya uslublarini qo'llaydi, masalan, otasi o'ta qattiqqo'l, ona o'ta mehribon, yoki ota-ona bolaning xulqini juda nazorat qilib, mas'uliyat bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullanadi, buvilari esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini – “hali yosh, katta bo'lganda o'zi yaxshi bo'lib ketadi”, qabilida ma'qullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini E.Eydemiller, V.YUstitskiy, N.Lengardlar o'rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li shaxslarning tazyiqini noto'g'ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-ona tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu – bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. SHuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Yolg'iz ota-onalar. Ota yoki onadan biri mavjud bo'lgan oilalarning paydo bo'lishiga turli sabablar bor: ajrim tufayli bittasi qoladi, nikohsiz paydo bo'lgan oila sharoiti, bunda onaning yoshi katta bo'lishi ham (yoshi o'tib borayotganligidan nikohsiz bo'lsa ham bitta farzand tug'ib, uni yolg'iz o'zi katta qiladi), juda yosh bo'lishi (tasodifan yoshlik qilib qiz maktab yoshidayoq ona bo'lib qolgan holatlar) ham mumkin.

Odatda turli sabablarga ko'ra yolg'izlanib qolgan noto'liq oila a'zolari jamiyatdan ancha ayri yashashga, yolg'izlikka mahkum bo'ladi, bunday oilalar moliyaviy inqirozlarga ham uchraydi. Ayrim shunday oila farzandlari juda yoshlikdan ota qilishi lozim bo'lgan yumushlarning bir qismini o'z elkasiga olishga majbur bo'ladi. Tengqurlari orasida odamovi, gapga ham, ayrim ishlarga ham no'noq bo'lgani uchun uning do'stlari kam bo'ladi. Asosiy muloqot ob'ekti ona bo'lib, u ham ko'pincha turmush tashvishlari bilan bolasiga etarli e'tibor

berolmaydi. Ayniqsa, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar ota-onaning ayrilig'ini juda ko'ngillariga yaqin oladi, asabiylashadigan, salga janjal ko'taradigan, onasi bilan ham, boshqa yaqinlari bilan ham kelisholmaydigan, agressiv bo'lib qoladi.

Injiq bolani yolg'iz o'zi tarbiyalashga majbur bo'lgan onalarda odatda depressiya holati kuzatiladi. Ko'pincha bunday ona o'zini omadsiz, turmush vaziyatlarining qurboniday his qiladi, ko'pincha xafa bo'lib yuradi va ich-ichidan o'zini bolalari oldida gunohkor his etadi, istiqbolda uni va farzandlarini nima kutayotganligini bilmay tashvishlanadi. M. Nistal (2003)ning yozishicha, yolg'iz ota-onalarning shaxsiga qo'yilgan talablar ularning real imkoniyatlaridan ortiq bo'lib, undan katta emotsional yukni va nihoyatda ishchanlikni talab etadi. Bunga afsuski, hamma ham chidayvermaydi.

Nazorat uchun savollar:

- 1 O'zbekiston Raspublikasida ilk bor eksperiment loyihalar qachon ishlab chiqilgan?
- 2 Inklyuziv ta'limga jalb etishda qanday bosqichlardan foydalaniladi?
- 3 Izlab topish va jalb qilish bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?
- 4 Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'illanish bosqichida qanday ishlar amalga oshiradi?

V BOB. INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA TA'LIM MUASSASALARI OILA HAMKORLIGIDA ISHLASH

5.1. Oilada tarbiya shakllari

1. Oilada tarbiya shakllari. Giperproteksiya – ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko'r-ko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar. Bolasi uchun “jonini jabborga beruvchilar” odatda o'zlari bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo'q,

ko'pchilikning ichida o'zini tuta olmaydigan, hayotning past-balandliklarida o'zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo'lib qoladi. Ayniqsa, bola o'smirlik yoshiga etganda, erka, tantiq bo'lgani uchun do'stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo'lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo'lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o'z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro'yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo'ladi, lekin bola ko'p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi.

G'amxo'rlikdan ustun keladigan giperproteksiya – bunda erkalatishdan ko'ra ota-ona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida turli xil ta'qiqlar, chegaralashlar ("u mumkin emas", "bu mumkin emas" qabilida) bisyor bo'ladi. Bunday sharoitda katta bo'lgan bola odatda mustaqil fikrli, mustaqil qarorlar chiqaruvchi bo'lolmaydi, lekin salga jahli chiqadigan, ko'p narsalardan norozi holda katta bo'ladi, chunki u doimiy nazoratga, birovlarining hamma yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib, aytib berishlariga o'rganib qoladi: onasisiz dars tayorlay olmaydigan, otasisiz ko'chaga chiqmaydigan bo'ladi, barcha ishlarida kattalarning aralashuviga ko'nikib ketadi.

O'ta kuchli axloqiy mas'uliyat – bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi. Ota-ona bolasining kelajagini puxta qilishni o'ylab, uning yurish-turishi uchun o'zlarini mas'ul deb his qilgan holda, shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga, shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba'zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, topshiriqlar ham berilaveradi. Masalan, "sen to'ng'ichimizsan, ukalaringga sen qarashing kerak", degan ma'noda unga oiladagi kichik a'zolarga yoki kasallikka chalingan oila a'zosini parvarish qilish kabi mas'uliyatli va og'ir ishlar ham yuklanadi.

Emotsional raddiya – bunda ota-ona bolasini shunday tarbiyalaydiki, uning ota-ona hayotida u o'ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo'lmaganida ota-onaning hayoti boshqachi bo'lishi muntazam ravishda eslatib turiladi. Agar bu farzand oilada yagona bo'lmasa, boshqa arzandaroq, suyukliroq inson bo'lsa, vaziyat yanada og'irlashadi, "sen bo'lmaganingda..." yoki qiz bolaga qarab: "Sening o'rningda o'g'il bo'lganda edi..." qabilidagi kesatiqlar tez-tez aytib turiladi.

Ayrim ota-onalar bu kabi emotsional jihatdan bolasini rad etayotganligini yashirishga urinadi, "nega bolani yoqtirmaysan?" kabi savollarga aslida uni sevishi, kerakligini ta'kidlagan bilan baribir bola ota-onasi uchun ortiqcha tashvish ekanligini his qilib yashaydi va tezroq mustaqil bo'lib olib, ularni tashlab ketishni, alohida yashashni ixtiyor qilib qoladi. Ona qanchalik o'z mehribonligini sun'iy ravishda namoyon etishga urinmasin, bola baribir ularning samimiy emasligini qalbi bilan his etadi. Ayniqsa, otasi bilan ajralishgan yoki ota tashlab ketgan holatlarda onaning bunday munosabati bolaga juda og'ir botadi.

Qattiqqo'llik – bir qarashda emotsional rad etishga o'xshaydi, lekin undan ochiqroq va og'irroqdir. Qattiqqo'llik to'g'ridan-to'g'ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to'la befarqlik, uning bor-yo'qligini go'yoki sezmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola yoshligidan nima qilib bo'lsa-da, tezroq katta bo'lish, o'zi amallab tirikchiligini qilish, ota-ona tazyiqidan qutulishni o'ylab yashaydi. Bunday oilada bolani u yoki bu xulqi uchun jazolash odat tusiga kirib qoladi, bola qo'rqqanidan ota-ona hukmiga itoat etayotganligi, buning istiqbolda yomon asoratlari borligini kattalar bilmaydilar, bilsalar ham bu usul ular uchun samarali tuyuladi. Aybdorlik, aybga yarasha jazo kabi usullar bola xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik omilga aylanadi, u ham kelajakda doimo aybdorlarni qidirishga o'rganib boradi.

1. Freyd nazariyasiga ko'ra, ana shunday jazoga hukm etilgan bola tobora agressiv bo'lib borib, o'zida alamni qaysidir bir ob'ektdan (o'zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo'lib

o'sadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Amerikada ko'cha bolalarining kamida 1%i oilada ayni shunday tarbiyaning qurbonidirlar. Amerikalik olim S.D.SHerriits (2003) oiladagi ana shu kabi qattiqqo'lliklarning bola va ota-ona xulq-atvoriga salbiy ta'sirini o'rganib, ularning xarakterida ro'y beradigan o'zgarishlarga to'xtalib o'tgan. Jismoniy jihatdan bolaga zug'um qilib, uni kaltaklash holatlari deyarli barcha ijtimoiy qatlam vakillariga xosdir. Hayotda, ish-faoliyatida omadi kelmagan yoki baxtsiz muhabbat qurboni bo'lgan, lekin farzand ko'rgan ayollarning aksariyati achchig'ini bolasidan olishga moyillik tarkib topadi, bu tobora hayotiy ko'nikmaga aylanib boradi. Ayniqsa, stress omillar ta'sirida ota-ona (masalan, ishsizlar, uyi yo'qlar, ish qidirib boshqa erlarga ketib qolgan migrantlar, etnik yoki moliyaviy ziddiyatlarning qurbonlari, kambag'allar) o'z ijtimoiy muammolarini hal qila olmay, tug'ilgan bolasidan o'ch ola boshlaydi.

Turmushdagi muammolar qanchalik ota yoki ona uchun murakkab tuyulsa, ularning bolasini kaltaklashi, undan o'ch olish ehtimoli shuncha yuqori bo'lishini olimlar o'rganishgan. Shunisi xarakterliki, bolasini tez-tez do'pposlaydigan ota-ona ayrim holatlarga unga qattiqqo'lliklarining sababini aytib, bu kabi harakatlarni nima uchun, nima sababdan amalga oshirayotganligini tushuntirishga ham jazm qiladi, bolani ularni tushunishga, hattoki, ko'mak berishga chaqiradi. Masalan, topganini o'zi ko'chada eb, alkogolga almashtirib kelib, achchig'ini yana boladan oladi-da, puli asli kam ekanligini, ichmasa turolmasligini bolaga tushuntiradi. Bunda bolaning yoshi unchalik ahamiyatli ham emas, 2 yoshdan o'tgan bolaga nisbatan jazo choralari ko'rilganligini ayrim holatlarda OAVda aks ettiriladi.

Gipoproteksiya – shunday holatki, unda ota-onaning bola bilan shug'ullanishga yo vaqti etishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo'yadi. Ayrim ota-onalar shu tarzda hayot kechirib, farzandlarini umuman nazorat ham qilmaydi, uning taqdiriga befarq bo'ladi, g'amxo'rlik ko'rsatmaydi, bolasining kelajagiga qayg'urmaydi. Gipoproteksiyaning yashirin shaklida ota-ona bola ustidan nomiga nimalardir qilganday bo'ladi. Lekin aslida ularni faqat o'zlarining kundalik muammolari qiziqtiradi. Bola bu holatlarni tahlil etib, o'zining kerak emasligini, oilada ortiqcha ekanligini anglab boradi.

Tashlab qo'yilgan bolalar yoki tashlandiq bolalar – odatda yoshligidan na moddiy, na ma'naviy ehtiyojlari qondirilmagan bolalardir. Ular masalan, qorni to'yaganidan jismoniy taraqqiyotdan orqada qolsa, nazorat va e'tiborning yo'qligidan turli jinoyat yo'llariga kirib qoladi, yaxshi, samimiy e'tibor va mehrning yo'qligidan jamiyatda, odamlar orasida o'z o'rnini topishga qiynaladigan, odamovi, savodsiz bo'lib o'sadi. Bularning barchasi ularning kelajakda jinoyat yo'llariga kirib qolishiga yoki zararli odatlarga o'rganishi (giyohvand moddalar iste'mol qilish)ga sabab bo'ladi. "Mehr tayanchi" markazi Toshkent shahrida aynan shunday bolalar toifasini to'g'ri hayotga qaytaradigan, gipoproteksiyaning qurbonlarini oilaviy muhiti sharoitini o'rganganidan so'ng ota-onasini chaqirtirib kelib, ular bilan pedagogik-korreksion, psixologik uslublarda ishlaydigan muassasa hisoblanadi. Markazdagi bolalarning barchasi oiladagi noto'g'ri tarbiyaning qurbonlaridir.

Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli – ziddiyatli tarbiya. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya uslublarini qo'llaydi, masalan, otasi o'ta qattiqqo'l, ona o'ta mehribon, yoki ota-ona bolaning xulqini juda nazorat qilib, mas'uliyat bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullalanadi, buvilari esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini – "hali yosh, katta bo'lganda o'zi yaxshi bo'lib ketadi", qabilida ma'qullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini E.Eydemiller, V.YUstitskiy, N.Lengardlar o'rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li shaxslarning tazyiqini noto'g'ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-onalar tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu – bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. SHuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Yolg'iz ota-onalar. Ota yoki onadan biri mavjud bo'lgan oilalarning paydo bo'lishiga turli sabablar bor: ajrim tufayli bittasi qoladi, nikohsiz paydo bo'lgan

oila sharoiti, bunda onaning yoshi katta bo'lishi ham (yoshi o'tib borayotganligidan nikohsiz bo'lsa ham bitta farzand tug'ib, uni yolg'iz o'zi katta qiladi), juda yosh bo'lishi (tasodifan yoshlik qilib qiz maktab yoshidayoq ona bo'lib qolgan holatlar) ham mumkin.

Odatda turli sabablarga ko'ra yolg'izlanib qolgan noto'liq oila a'zolari jamiyatdan ancha ayri yashashga, yolg'izlikka mahkum bo'ladi, bunday oilalar moliyaviy inqirozlarga ham uchraydi. Ayrim shunday oila farzandlari juda yoshlikdan ota qilishi lozim bo'lgan yumushlarning bir qismini o'z elkasiga olishga majbur bo'ladi. Tengqurlari orasida odamovi, gapga ham, ayrim ishlarga ham no'noq bo'lgani uchun uning do'stlari kam bo'ladi. Asosiy muloqot ob'ekti ona bo'lib, u ham ko'pincha turmush tashvishlari bilan bolasiga etarli e'tibor berolmaydi. Ayniqsa, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar ota-onaning ayrilig'ini juda ko'ngillariga yaqin oladi, asabiylashadigan, salga janjal ko'taradigan, onasi bilan ham, boshqa yaqinlari bilan ham kelisholmaydigan, agressiv bo'lib qoladi.

Injiq bolani yolg'iz o'zi tarbiyalashga majbur bo'lgan onalarda odatda depressiya holati kuzatiladi. Ko'pincha bunday ona o'zini omadsiz, turmush vaziyatlarining qurboniday his qiladi, ko'pincha xafa bo'lib yuradi va ich-ichidan o'zini bolalari oldida gunohkor his etadi, istiqbolda uni va farzandlarini nima kutayotganligini bilmay tashvishlanadi. M. Nistal (2003)ning yozishicha, yolg'iz ota-onalarning shaxsiga qo'yilgan talablar ularning real imkoniyatlaridan ortiq bo'lib, undan katta emotsional yukni va nihoyatda ishchanlikni talab etadi. Bunga afsuski, hamma ham chidayvermaydi.

5.2. Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi.

Bolaning kelajagi, uning shaxs bo'lib kamol topishi ko'p jihatdan ota-ona oilasi, u to'g'rida farzandda shakllangan tasavvurlarga bog'liq ekanligi psixologlar tomonidan ancha batafsil o'rganilgan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bolaning o'z oilasi to'g'risidagi tasavvurlari ko'pincha ota-onaning tasavvurlari va asl holat bilan qisman mos keladi. Odatda ota-ona o'z farzandi uchun qo'lidan kelgan barcha choralarni ko'rayotganday, buni bola anglashini va undan hamisha

minnatdor bo'lishi kerakligini kutadi, lekin bolalar bu xususda turlicha tasavvurga ega bo'ladilar. Mehribon ota-ona og'ushida ayrim bolalar o'zlarini baribir yolg'iz, kemptik, kamsitilgan his etadi. G.T. Xomentauskas (1989) oilada ota-ona xulq-atvori va bolaning bu xatti-harakatlarni idrok qilishi va ota-onaga munosabatining 5 ta asosiy ko'rinishlarini tahlil qilgan:

Ota-ona va bola munosabatlari demokratik tamoyillarda amalga oshadigan oilada bolada o'zi va ota-onasi to'g'risida quyidagicha tasavvur shakllaandi: "Meni sevishadi va men kerakman, shuning uchun men ham ularni juda sevaman". Bunday bola psixologiyasi va xarakterida ustuvor fazilatlar sifatida adekvat o'z-o'zini baholash va insonlarga ishonch, har qanday yaxshi narsalardan, jumladan, ota-ona bilan yaqin, samimiy munosabatlar quvonish, o'ziga ishonch, xatoliklardan cho'chimaslik, ayb ish qilib qo'yganda ham unchalik qayg'urmaslik, zaruratga qarab iltimoslar qilish va bunda real ko'mak olishga umidvorlik, ota-onaning hayotdagi o'rni va ishonchlarini, umid va istaklari bilan hisoblashish kabilarni sanash mumkin.

- Bolaga nisbatan haddan ziyod mehribonlik (giperproteksiya), e'tibor ko'rsatilgan oilada bola "Meni sevishadi va men kerakman, ular meni deb yashashadi", degan tasavvur mavjud bo'ladi. Bunday oilada bolalar o'zining borligidan, tug'ilganligidan mag'rurlanib yashaydi va shuning uchun har qanday tilak va xohish amalga oshishiga ishonadi. Odatda bunday bolaning tug'ilishini ota-ona uzoq vaqt kutgan bo'ladi va buni ular hadeb bolaga eslataveradi, shuning uchun ham bola juda egoist bo'lib ulg'ayadi, ota-onasining nochorligi to'g'risidagi tasavvur o'zining ko'p narsalarga qodirligi bilan uyg'unlashadi. Tantiq bolada o'zi to'g'risida go'yoki o'ta iqtidorli ekanligi fikri ustuvor bo'ladi, chunki ota-ona uning ayrim, ahamiyatsiz yutuqlarini ham osmonga ko'taradi.

- Yuqoridagi holatning aksi, ya'ni, bolaga nisbatan e'tiborsizlik, mehrsizlik bo'lgan oilada bolaning tasavvuri quyidagicha bo'ladi: "Meni yoqtirishmaydi, lekin men o'zim harakat qilib, ularga yaqinlashishim kerak". "Men yaxshi bola emasman", degan tasavvur odatda bolada qator jiddiy salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, o'ziga bo'lgan bahoning pastligi, o'zini aybdor deb

hisoblashning yuqoriligi, ko'p narsalardan hadiksirash, ayb ish qilib qo'yishdan cho'chish, kayfiyatning beqarorligi va shunga o'xshash. Bunday oilada ma'naviy muhit yaxshi bo'lmaganligi sababli bola salga yig'laydigan, "qo'rqqan oldin musht ko'taradi", deganlariday, har bir yaxshi yoki yomon ishni qilib qo'yib, o'zini oqlashga intilish psixologiyasi paydo bo'ladi. Aslida bola o'zining kutilmagan ekanligini, ota-onalari uni vaziyat taqozosi, tasodif tufayli dunyoga keltirishganligini yaxshi biladi. Chunki bu haqda ota-onalar uning oldida gapiraveradilar.

- Ota-ona mehriga to'ymagan, unga erisholmagan bola salbiy hissiy kechinmalarning keyingi bosqichiga o'tadi: "Sizlar meni xafa qilyapsizlar, men ham shunga munosib javob beraman". Bunday sharoitda bola ataylab, ota-onasiga yoqmaydigan qiliqlar qiladi, aytganlarining teskarisini bajaradi, tobora ota-ona uchun ham u bilan bo'ladigan muloqotlar og'ir botadigan bo'lib boradi. Qasoskor bola ko'pincha ota-ona talablarining teskarini qilib, ularning asabiga tegadigan, boshqarib bo'lmaydigan qaysar va ko'pincha jinoyat yo'liga ham kirib ketadigan insonga aylanadi.

- Ba'zan ota-ona mehrsizligidan aziyat chekkan bola kurashib charchaydi: "Meni sevishmaydi, kerak emasman, meni tinch qo'yinglar", degan ma'noda bola o'z nochorligini ifodalay boshlaydi. Bunday oiladagi vaziyat juda og'ir bo'lib, bola o'zini yolg'izlikka mahkum etadi, hammadan qochadi, o'smirlar o'rtasida sodir bo'ladigan suitsid holatlarining aksariyati ana shu psixologik vaziyatdan kelib chiqadi.

5.3. Oilada bolaga qanday munosabatda bo'lish kerak.

Yosh avlod ijtimoiy turmushning barcha soxalari, xususiyatlari bilan oila quchog'ida tanishadi. Oilaviy turmushda odamlarga, mehnatga, narsalarga va o'z-o'ziga bulgan nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xarakter xususiyatlari tarkib topa boradi. Shuning uchun oila jamiyatning boshlangich bugini sifatida bolalarning axloki, qobiliyati, aql zakovati, xulqi, yurish-turishi, xatti xarakati, muloqoti, e'tiqodi va dunyoqarashlariga yuqori darajada tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Oilaviy turmush inson hayotining eng muhim jihatlaridan biri

hisoblanadi. Xuddi shu boisdan jamiyatning qonun qoidalariga nisbatan munosabat ham oiladagi shaxslararo turli tuman muammolarda, muloqotda, fikr almashuvda, munozanalarda o'z ifodasini topadi, binobarni yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash oilaning naqadar mustahkam bo'lishiga, ota-ona munosabatlarida oliy janob xarakter hislatlarini, bolada yuksak ma'naviy xislarni shakllantirishga bog'liqdir. Yosh avlodni oilada komil inson qilib tarbiyalashdek yuksak va mas'uliyatli vazifa ota-onaga oiladagi kattalarga yuklatilgandir. Darhaqiqat inson shaxsini shakllantirish oila muhitidan boshlanadi. Xususan oilada, bolada xarakter xususiyatlari, iroda sifatlari, milliy odatlar, fe'l- atrof, xulq, tevarak atrofga nisbatan munosabat, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Anna shulardan kelib chiqqan holda, oilaviy turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, faollik ko'rsatish imkoniyatlarini izchil o'rganmay turib, shaxsning xususiyatlari va keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Ma'lumki, oila – bu ijtimoiy tarixiy manbalarga ega bo'lgan, muayyan tuzilishiga ega bo'lgan ijtimoiy guruhning ko'rinishidir, chunonchi uning a'zolarini qarindosh urug'shlik, nikoh, turmush sharoiti birligi, odob-axloq umumiyligi, ma'naviy extiyoj mosligi kabi aloqalar o'zaro bog'lab turadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, idealogik va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan oila a'zolarining o'zaro moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Oilaviy turmush va oila a'zolarining o'zaro muammolarini tadqiq qilgan venger sotsiologi M.Komlosi 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oilaviy muhit (vaziyat, sharoit) omillarini 4 guruhga ajratadi:

1. Ota-onalarning jamoat faoliyati (ularning siyosiy fozitsiyalari, ishga nisbatan munosabatlari).
2. Oila davrasidagi munosabatlar (ota-onalarning ukuvchilarga munosabati, aka-ukalar va opa-singillarning uzaro munosabatlari).
3. Ota-onalarning tarbiyaviy pedagogik faoliyati (ularning pedagogik kizikishlari, maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash nezida ota-onalarning

yordami, ularning tarbiyaviy metodlari). 4. Oilada o'quvchining faoliyati (o'quvchining kun-tartibi, xo'jalik ishlardagi muayyan majburiyati) va boshqalar.

Tadqiqotchi M.Komloshin yig'gan materiallarini tahlil qilib oilaviy muhit (vaziyat, sharoit)ni uch kategoriyaga ajratadi: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy. Psixolog V.I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik – bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onalarning o'z bolalariga g'amho'rlikning samarasidir degan xulosaga keladi. Agar oilalarning yo'nalishiga qarab uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib beradi: ijtimoiy progressiv taraqqiparvar yo'nalishdagi oila, past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oila.

Birinchi toifaga xos bo'lgan oilalar mamlakatimiz oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar milliy, umumbashariy, haqchil tamoyillardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek, har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali nazarda tutiladi. Ijtimoiy-progressiv yo'nalishdagi oilalarning voyaga yetgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxonada, jamoat yerlarida faol ishtirok etadilar, ilgor madaniyatga nisbatan qiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga bu narsalarga o'z farzandlarida ham havas uyg'otadilar. Oilada goho namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda osoyishta yo'sinda hal qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, asboblari, qimmat baho materiallar har xil extiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqbolli bilan mutloqo boglanmaydi.

Ikkinchi toifadagi oilada umumbashariy, milliy yo'nalishi uzil-kesil hal qilinmagan bo'ladi. Oilaviy turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g'oyaning boshqa-boshqa bir goya bilan o'zaro niqoblangan ko'rash bosqichida bo'lib, u yoki bu qarashlar, aqidalar ustunligi, istiqboli xech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko'zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o'rtasidagi ko'rashni aslo anglab bermaydi. Balki er-xotinning yoki boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining murosasiz pozitsiyalari (nuqtai nazarlari) ko'pincha ularning xarakter xususiyatidagi tafovut negizida bogliq bo'lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan

kelib chiqmaydi. Oilada soʻz bilan ish birligi masalasi qarama-qarshi yoʻnalishli ikki markazga va 2 xil intilishga ega. Faqat burch xissigina, muayyan majburiyat bajarilishigina oila aʼzolarini oʻzaro birlashtirib turadi xolos. Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga taʼsir oʻtkazish uchun kurashi, raqobati yaqqol namoyon boʻladi.

Uchinchi toifaga mansub oilalarda koʻpincha meshchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilada barcha narsa yagona narsaga buysundirilgan, yaʼni mol-dunyo toʻplashga, moddiy-maʼishiy jihatdan ustunlikka erishiga qaratilgan. Voyaga yetgan oila aʼzolarining, ota-onalarning korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu koʻzlagan maqsadga yetish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa ish haqi miqdori bilan oʻlchanadi. Ushbu toifa qatoriga yana fanatizm xususiyatli kishilar, ruhoniylar oilalari kiradi. Xoh meshchanlikka oggan oilada boʻlmasin, xoh ruhoniylar oilasida baribir eski aqidaparastli munosabatlari qudratli kuchga ega. Jumladan, oila boshligʻining zoʻravonligi, johiligi, unga koʻr-koʻrona va soʻzsiz buysunishlik, sajda qilishlik, zaif va uquvsiz aʼzolar faolligini paymol qilishga intilish va xudbin meshchanlik ideali va diniy eʼtiqod doirasidan tashqari chiqish hollari kamsitilib, bekorga vaqt sarflash deb baholanadi, xuddi shu boisdan bunday ijtimoiy yoʻnalishga mansub oilalardan koʻp hollarda xudbin, qoʻrqoq, jamiyat taraqqiyoti uchun kam naf tegadigan oʻgil-qizlar yetishib chiqadilar, chunki «qush-uyasida koʻrganini qiladi».

Tarakkurparvar jahon psixologiyasi fanida oilaviy turmush munosabatlarining juda koʻp qirrali oʻrganilgan.

Oilaviy munosabatlar taʼsirida ilk bolalikdan tarkib mustaqillik, istiqloлга nisbatan sodiqlik, vatanparvarlik, sharqona anʼana shaxsiy qiziqishni jamiyat, mamlakat qizishiga buysundirish xislati, qatʼiylilik, qadr-qimmat xissi kabi yuksak insoniy xislar shakllana boshlaydi. Asta-sekin tugʻishganlarga gamxurlik, aka-ukalik va opa-singillik mehri, ota-onaga muhabbat va shafqat singari teranlik tuygʻulari namoyon boʻla boradi. Oilaviy turmushdagi samimiy va oqilona munosabatlar, ilik psixologik muhit taʼsiri natijasida oila aʼzolarida kamtarlik, kungilchanlik, iltifotlik, sabrlilik, tugʻrilik, yaxshilik, uyatchanlik, yumshoqlik,

dilkashlik, mehribonlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatga ma'suliliyatlilik, ozodalik, izzat-nafslilik, tejab-tergashlik kabi shaxs xislatlari tarkib topadi. Agarda oilaviy turmush munosabatlari qo'pollik, andishasizlik negiziga qurilgan bo'lsa u holda oila a'zolari ruhiy dunyosida kekkayshilik, pismiqlik, jamoatchilik ma'qullagan narsalarni va ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xatti-xarakat qoidalarini sezmaslik, yalqovlik, ma'suliyatsizlik, ifloslik, shuxratparastlik, magrurlik, uzini kata olish, dimogdorlik singari illatlar yuzaga keladi, shakllanadi.

Shaxslararo munosabatlarning bir necha tiplari mavjud ekanligi pedagogika, psixologiyada qayd qilib o'tilgan.

Oilaviy munosabatlarning «demokratik» toifasi o'gil-qizlarga, u yoki bu tarzda xatti-xarakatni amalga oshirishda, biron-bir ishni rejalashda katta erk beradi, shuning bilan birga mayda-chuyda ko'rsatmalardan, qat'iy vaqt belgilash xolatidan xoli bo'ladilar. Oila a'zolarining har bir shaxsni izzat, hurmat qilish asosiga qurilgan bo'lib, o'zaro oqilona talabchanlik, qat'iyatlik ruhi bilan sug'orilgandir. Oila boshlig'i hisoblangan ota-onalarning asosiy diqqat-e'tibori milliy va umuminsoniy qoidalari talabidan kelib chiqqan holda o'z farzandlarida ijobiy xarakter xisda o'z farzandlarida ijobiy xarakter xislatlarini, zamon ruhida mos shaxs fazilatlarini, zamon ruhida mos shaxs fazilatlarini shakillantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila-a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhida buysundiriladi. Har bir oila o'zining insonga mikrota'sir o'tkazishning xususiyati bilan ajralib turadi. Unday oilada shaxslararo munosabatda ta'sir o'tkazish sehri (mexanizm) oshirilgan holda bo'ladi. Shu boisdan tasodifi vokea va hodisalarni sodir bo'lishi turlicha baholanadi va ularga bevosita aloqador oila-a'zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda yo ragbatlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'gil-qizlarda do'stlik, dilkashlik, xushmuamalaklik, shaxsiy xatti-xarakatida va muloxaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari sakllangan holda yangi qoidalar va talablarga moslashish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini boshqarish kabi muhim fazilatlar paydo bo'ladi.

Oilaviy munosabatlarning yana bir turi «avtoritar» deb atalib, bunda ota-onaning obrusi hal qiluvchi rol o'ynaydi, shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatt-xarakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Shaxslararo munosabatdagi bunday nohushlik ota-ona ko'zlagan tarbiyaviy maqsadni amalga oshirmaydi va past samara berishga olib keladi. Oqibat natijada oila a'zolari o'rtasida mazkur pedagogik ta'sirga nisbatan salbiy pozitsiya nomoyon bo'ladi. Paydo bo'lgan salbiy nuqtai nazar, avval ota-onaga, so'ngra boshqa katta yoshdagi oila-a'zolariga nisbatan qo'llaniladi. Farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr xissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashish, «begonalashish» kechinmasiga aylanadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Oilada tarbiya shakllari
2. Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi.
3. Oilada bolaga qanday munosabatda bo'lish kerak.

VI BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMDA TIBBIY-REABILITACION DIAGNOSTIKASI

6.1. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPKning ro'li

1. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPKning ro'li. Imkoniyati cheklangan bolalar toifalarini inklyuziv ta'limga jalb etish Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya ishining mazmuni va uni tashkil etish bilan uzviy bog'liqdir. Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya ishining mazmuni ta'lim muassaslarining tarmog'i kengayib borayotganligi, hamda ta'lim muassasasini ota-onaga tanlash huquqi berilganligi sababli ba'zi-bir bolalarni o'qitish bo'yicha muamolalar yuzaga kelmoqda. Ba'zi holatlarda bolalami o'qitishda va hulqining o'ziga xos xususiyatlarini boshqarishdagi paydo bo'lgan qiyinchiliklar pedagogning talablari bolaning psixik va jismoniy tayyorgarligiga mos emasligi, aqliy rivojlanish darajasiga e'tibor qaratilmaganligi, bolaning somatik-psixik holatlari sabab bo'lsa, boshqa holatlarda – maktab ta'limiga tayyormasligi (ba'zi psixik funksiyalarning, muloqat ko'nikmalarining shakllanmaganligi, hissiy-irodaviy tomonlarning rivojlanmaganligi) va ularda turli qiyinchiliklar tig'diradi. Bularning barchasi bolalarga yordamning yangi turlarini izlash uchun asos bo'ldi.

XX asming 90-yillarida pedagog va psixologlarning tashabbusi bilan ta'limni boshqarish shahar va viloyat organlari tomonidan umuta'lim maktablarida psixologo-tibbiy-pedagogik konsiliumlar tashkil etila boshlandi. Ularning funksiyalariga bolalar uchun rivojlanishlarining bolani yoshi va individual psixo-jismoniy o'ziga xos xususiyatlari jihatidan ta'lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratish kiradi.

TPPKning maqsad va vazifalari TPPKning asosiy maqsadi – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga diagnostik-korreksion psixo-logo-tibbiy-pedagogik yordam berish, ularga o'qish va tarbiya olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerakdir:

- psixik-jismoniy rivojlani u yoki bu nuqsonlari bo'lgan bolalami aniqlash va har tomonlama kompleks tekshirish;
- nuqsonlarning xarakteri va sabablarini o'rgatish (deviantli xulq, katta va tengdoshlari bilan bo'lgan nizoli vaziyatlar, o'zlashtirishda orqada qolish);
- bolaning potensial imkoniyatlarini aniqlab ushbu ta'lim muassasa sharoitida unga maqsadli maxsus (korreksion) yordam ko'rsatish;
- "xatar guruhiga kiruvchi bolalarning individual rivojlanishini kompleks maqsadli dasturiarini yaratish;
- rivojlanish dinamikasini kuzatish (kuzatuv, o'quv yilining boshidagi yoki oxiridagi diagnostik "kesimlar", tegishli tuzatishlar kiritish);
- ota-ona bilan maslahat ishlarini olib borish.

Ko'rsatilgan vazifalar maktab (maktabgacha ta'lim muassasalari) pedagoglari jamoasi va TPPKning mutaxassis larining kuchi bilan o'zaro kelishilgan aloqada bajariladi. An'anada, rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan bolalarga moljallangan maxsus muassasalami bolalar bilan toldirish, muassasalarga bolalami yuborish bilan shug'ulanib kelgan psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyalar (TPPK) faoliyat ko'rsatadi. Ular ta'lim, sog'liq, aholini ijtimoiy himoyalash organlari bilan birgalikda tuzilgan. Bunda bolalaming har bir tipdagi muassasasi uchun (aqli zaif, ko'r va zaif ko'ruvchi, kar va zaif eshituvchi va h.q.lar) o'zining TPPKlari faoliyat ko'rsatgan.

Ushbu komissiya faoliyatida malakali mutaxassislar qatnashib kelayotgan bo'lsada, uning ishini tashkillashtirish va sharoitlari (tekshirish vaqti chegaralanganligi, bir martalik tekshirish davomida rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin boimaganligi, kolpincha ulaming tarkibida psixologlar qatnashmaganligi va h.q.) tibbiy va psixologo-pedagogik tashxisning sifatini talab darajasida olib borish imkonini bermaydi. Xato tashxis qo'yilgan vaziyatlar kam bolmagan.

TPPK psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, o'qishda muloqatda, xulqida muammosi bo'lgan bolalarga maxsus yordam ko'rsatish tizimidagi davlat maslahat-tashxis, korreksion markazi bo'lib hisoblanadi. TPPK bolalarga ta'lim

berishning ko‘rinish va shakllarini aniqlash uchun ekspert xizmati funksiyasini bajarmoqda.

TPPK bola xuquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro Konvensiya, hamda O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligi, ta’lim, sogliq, bolalar huquqini himoyalash to‘g‘risidagi qonunlariga amal qiladi. Ma’muriy bo‘linishni hisobga olib viloyat, shahar, tuman TPPKlar tuziladi.

TPPKning shtat tarkibiga quyidagi mutaxassilar kiradi:

- vrachlar (pediatr, nevroptolog, psixiatr, otolaringolog, oftalmolog, lozim bolganida ba’zan ortoped);
- pedagog-defektologlar (oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog, ortoped);
- logoped;
- psixolog;

Xududning sharoitlariga (moddiy baza, mutaxassilar bilan ta’minlanganligi va h.q.) qarab TPPKning tarkibida aniq bir ishni bajarish uchun mustaqil bo‘limlar tuzilishi mumkin. Bu yerga maslaxat-tashxis, korreksion va ilmiy-metodik bo‘limlar kiradi. TPPKning muhim vazifasi hamda uning faoliyatning asosiy mazmuni deb bola va o‘smirlarni tug‘lishidan 18 yoshigacha kompleks tibbiy-psixologo-pedagogik diagnostika o‘tkazish hisoblanadi.

Erta diagnostika bolalarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, ulaming rivojlanish darajasi va o‘ziga xos xususiyatlariga aniqliklar 47 kiritish, hamda tarbiya va ta’lim olishi uchun joy topib berish maqsadida kerak. Bu vaziyatlarda maxsus (korreksion) muassasani bolalar bilan toldirish masalasi yechiladi. Tibbiy-psixologo-pedagogik diagnostika bola rivojlanishidagi nuqsonlar tufayli paydo bo‘layotgan muammolarni yechish maqsadida ota-ona (yoki ularni o‘midagi shaxslar), pedagogning talabi bo‘yicha ham o‘tkazilishi mumkin. Ularga bolaga yordam berish uchun maslahatlar va aniq tavsiyalar kerak. TPPKda ishni tashkil etish bo‘yicha:

- TPPK ga jonatilganlar ro‘yhati va tekshirish o‘tib bo‘lgan bolalarni ro‘yhatga olish daftarlari; tekshirish jarayoni to‘g‘risidagi bayonnomalar;

- korreksion-rivojlantirish tizimidan chiqarilgan bolalar hujjatlarining arxivi va TPPK ning xulosa nusxalari. berilgan tavsiyalarni ota-ona tomonidan bajarilishi ko'rsatiladi.

Bola ta'lim olishni davom ettirish uchun ta'lim muassasa tanlash xuquqi ota-onada bo'lsada, TPPK a'zolari ota-onalarni aynan bola manfaatlarini ko'zlab ishtutishga ko'ndirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solishlari kerak.

Ro'yxatga olish daftari TPPKda saqlanadi. Bolaning komissiyada tekshirish jarayoni kotiba tomonidan bayonnomaga qayd etiladi va bolaning shaxsiy varaqasida saqlanadi, va u ta'lim olish uchun yuborilgan idoraga beriladi. Bayonnomalar o'qtuvchilarga shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, bilim darajasining sifati, psixik jismoniy rivojlanish xususiyatlari bilan oldindan tanishishga va ularga o'qishni birinchi kunidayoq e'tibor berishga yordam beradi. Bundan tashqari, bayonnomalar, ayniqsa bola takroran TPPKga yuborilayotgan bo'lsa, uning rivojlanish dinamikasini qayd etish uchun zarur.

Olingan natijalarni oldingi bayonnoma bilan solishtirib, o'tgan vaqt davomida bo'lgan o'zgarishlar haqida muloxaza yuritish mumkin. Bayonnoma TPPK a'zolariga bola to'g'risida kengaytirilgan xulosa tayyorlash uchun yordam beradi. U shaxsiy varaqada saqlanadi. Komissiyaning har bir mutaxassisi tomonidan olib borilgan individual tekshirishning ma'lumotlari asosida nuqsonlar to'g'risida xulosa tayyorlanadi Bolaning psixojismoniy va individual xususiyatlarini hisobga olib, uning keyinchalik tarbiya va 48 ta'lim olish uchun joy tanlash to'g'risidagi qaror kollegial qabul qilinadi. Aniq tavsiyalar beriladi.

Tekshirilib TPPK tavsiyalari berilgan bola va o'smirlar ro'yhati xalq ta'lim, log'liq vazirliklarining tegishli bolimlariga va h.q. idoralarga yuboriladi. Ota-onalarga tegishli tavsiyalar bilan xulosa beriladi.

Bolalarni maxsus muassasaga yuborish TPPKning tavsiyalariga binoan har bir maxsus muassasa tegishli o'zining qabul qilish bo'yicha qo'llanmalariga qattiq rioya qilib, xalq ta'lim vazirligi bo'limi orqali amalga oshiriladi. Maxsus (korreksion) muassasalarni bolalar bilan komplektlash (to'ldirish) bo'yicha TPPKning ishi shundan iborat. Ushbu ishning tartibi o'z ichiga tibbiy, psixologo-

pedagogik va logopedik tekshirishlarni oladi. Tibbiy tekshirish o'z ichiga oftalmolog, otolaringolog, somatik, nevrolog va psixiatrlarning tekshirishini oladi. Kerak bo'lsa paraqunik tekshirishlar o'tkaziladi.

Anamnez yig'iladi. Bu barcha tekshirishlar vrachlar tomonidan o'tkaziladi. Defektologga ham, logopedga ham bu bilan shug'ulanishiga ruxsat yo'q, lekin ular bolalar rivojlanishiga u yoki bu nomaqbul vaziyatlar qanday ta'sir o'tkazishi, psixikasining xususiyatlari haqida bilishlari muhim. Bola rivojlanishini tarixidan ona bilan o'tkazilgan suhbat davomida vrach tomonidan olingan ma'lumodar, hamda vrach xulasasining bola holatining obyektiv ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar psixologo-pedagogik tekshirishning to'g'ri strategiyasini tanlash uchun yordam ko'rsatadi.

Eshitish qobiliyati past yoki nutqida nuqsoni bo'lgan bolani tekshirish davomida noverbal ko'rinishdagi topshiriqlar berilishi zarur, ko'rishda nuqsoni bo'lsa tekshirish nutq materiali orqali o'tkaziladi va h.q. Psixologik-pedagogik tekshirish davomida bolaning psixik rivojlanishining (nutq, harakat va h.q. rivojlanishining senzitiv davri) o'ziga xos xususiyatlari belgilanadi; saranjomlik, o'ziga-o'zi xizmat qilishi, boshqa bolalar bilan muloqat qilish ko'nikmalari qachon shakllana boshlanganligi aniqlanadi; motorika holati, o'yin xarakteri va h.q. qayd etiladi.

Nafaqat ayrim psixik jarayonlarni o'rganish, balki shaxsni o'zini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Agar bolalar maktabda ta'lim olayotgan bo'lsalar, o'qishida mavjud qiyinchiliklarning sababi va xarakterini belgilash, nuqson tarkibini ochib berish darkor. Bilim olish qobiliyatiga katta diqqat qaratish lozim. Bilim olish qobiliyatining ko'rsatkichlari deb – umumiy fikrlash qobiliyati, fikrlash jarayoning egiluvchanligi, o'quv qurollarni o'zlashtirish va h.q., hamda bola yordamni qabul qilish qobiliyati (bu asosiy ko'rsat kichlardan biri) hisoblanadi. Bu yordamning xarakteri va o'lchamligi e'tiborga olinadi.

O'z ichiga o'quv ko'nikmalardan, yozish, o'qish, sanash, va h.q.dan umumiy xabardorlikni, ularni shakllangalikni hisobga olib, pedagogik tekshirish defektolog tomonidan amalga oshiriladi. O'z xulosasida u nafaqat bola rivojlanganligining

oʻrnatilgan dolzarb darajasini aks etadi, bola bilan ishlash boʻyicha keraqli usullarni koʻrsatadi. Uning tavsiyalari ham pedagog, ham ota-onalarga foydali. Psixologik tekshirishni psixolog oʻtkazadi. U kuzatilayotgan hodisa sabablarini tahlil qiladi, psixik funksiyalarni, motivatsion-idrok va hissiy-shaxsiy sohalarini korreksiya qilish boʻyicha taxmin (prognoz) va tavsiyalar beradi. Xulosada u kompleks psixologik tashxis qoʻyadi. Kerak boʻlsa neyropsixologik tekshirish oʻtkaziladi. Logopedik tekshirishni (zaiuriyat tugʻilgan vaziyatlarda oʻtkaziladi) logoped amalga oshiradi. Nutq rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlarini namoyish etib, u mavjud nuqsonlarning xarakterini va sabablarini ochib beradi. Logopedik oʻrganish jarayoniga artikulya tsion apparatning, impressiv (fonetik eshitish, soʻzlar, sodda gaplar, mantiqiy-grammatik qurilmalarni tushunish) va ekspressiv (takroriy, nominativ, mustaqil) nutqning tekshirish kiradi. Bolalarning yozma nutqi ham, hamda nutqiy xotira ham tekshirishdan oʻtkaziladi.

Logoped nutqdagi nuqsonning tuzilishini va bola nutqining rivojlanish may qolganlik darajasini aniqlashi zarur. Bu nutq buzilishlari birlamchi nuqson boʻlgan bolalarni va nutqning zaifligi aqliy zaiflik natijasida kelib chiqqan bolalar oʻrtasida chegara olishga yordam beradi. Ish jarayonida tinch va yaxshi munosabatli sharoit saqlash kerak. Tekshirilayotgan shaxsning vaziyatini murakablashtirib, tekshirishni imtihonga oʻxshatish notoʻgʻri. Ota-ona va bolalar bilan suhbat oʻtkazish davomida albatta kasbiy etika meyorlariga qatʼiy rioya qilish kerak. Ish olib borilayotgan xonada bolalarning diqqatini oʻziga tortadigan ortiqcha rasm, plakatlar osilgan boʻlmashligi kerak.

Hatto bola, ota-ona, komissiya aʼzolarining stol atrofida joylashishi ham katta ahamiyatga ega. Inklyuziv taʼlimga jalb etilgan bolalarni psixologo-pedagogik tekshirishdan oʻtkazish davomida, ayniqsa TPPK sharoitida, bola bilan olib borilayotgan ish davomida namoyon boʻladigan va uning xolati toʻgʻrisida yakuniy xulosa tuzish paytida keraqli boʻladigan bir qator koʻrsatkichlarga eʼtiborni qaratish kerak.

Ular ichida:

1. Bolaning tekshirishga bildirgan hissiy reaksiyasi. Hayajon - yangi sharoit va notanish odamlarga nisbatan bo'lgan tabiiy reaksiya. Lekin o'ta xursandlik, komissiya a'zolariga nisbatan betakalluflik, o'zini betartib tutishliklarga diqqatni qaratish kerak.

2. Vazifa ko'rsatmasi va maqsadini tushunish. Ko'rsatmani oxirgacha eshitib oladimi, uni yaxshilab tushunib olib, ishni boshlaydimi? Bolalarga ko'rsatmaning qanday ko'rinishi tushunarliroq: og'zaki yoki ko'rsatma-og'zaki?

3. Faoliyat xarakteri. Vazifaga nisbatan bo'lgan qiziqishga, maqsadli faoliyatga, ishni oxirgacha yetkazish, ishni bajarish usullari maqsadga muvofiqligi va mosligi, ish jarayonida davomida diqqati bir joyga jamlanganliga e'tibor qaratish lozim. O'zini o'zi nazorat qilish va boshqarish mulim ahamiyatga ega bo'ladi. Asosiy ko'rsatkichlardan bin – bu yordamdan to'g'ri foydalana bilish. Ushbu qobiliyat qancha ko'p ifoda topsa, bolaning ta'lim olish qobiliyati shuncha yuqori. Ko'rsatilayotgan yordam meyorda bo'lishi muxim. Ishning natijasiga bo'lgan munosabat. O'z faoliyatini to'g'ri baholash, adekvat ta'sirchanlik (muvaqqiyat bo'lsa xursandchilik, aksincha bo'lsa – hafa bolish) bola vaziyatni to'g'ri tushini- shining guvohi bo'ladi.

Odatda, bolani TPPK mutaxassilari tomonidan o'rganilishi pedagog yoki otaona laming talablariga binoan o'tkaziladi. Bolani darslarda va bo'sh vaqti (o'yin, sayr va h.q.) davomida maqsadli kuzatiladi. Uning yoshiga hamda va psixik va jismoniy o'ziga xos xususiyatlariga qarab individual tekshirish ham olib boriladi. Mutaxassilar tomonidan yig'ilgan ma'lumotlarga ko'ra, TPPK yig'ilishlarida natijalar muhokama qilinadi va bolaning imkoniyatlari va xususiyatlaridan kelib chiqib o'qish marshruti haqidagi tavsiyalar bilan, hamda kerak bo'lsa tibbiy yordam to'g'risidagi kollegial xulosa beriladi.

Bola ta'lim olayotgan muassasa tegishli sharoitlar yaratib berolmasa yoki bola qo'shimcha diagnostikaga muhtoj bo'lsa, u hollarda bola komissiyaga psixologo-tibbiy-pedagogik konsultatsiyaga yuboriladi. Bola ni boshqa turdagi ta'lim berish maskaniga (korreksion sinflar (guruxlar), uyda o'qitish va h.q.) olib o'tishda u haqida pedagogik tavsifnoma, shaxsiy rivojlanish kartasidan, TPPK mutaxassilari

xulosasidan, TPPKning yakuniy xulosasi va tavsiyalaridan ko‘chir malar yig‘iladi. Bolani TPPKga yuborish paytida TPPKning kollegial xulosa nusxasi ota-onaning qo‘liga beriladi, TPPK mutaxassilarining alohida yozilgan xulosalarining nusxalari esa pochta yoki vakil orqali jo‘natiladi. Boshqa joylarga TPPKning xulosa nusxalari rasmiy talabga asosan beriladi – ta’lim olayotgan bolaning rivojlanish kartasi (papka). TPPKni o‘tkazish davriyligi o‘quv muassasining aniq talabi bilan bog‘liq, lekin kvartalda kamida bir marta o‘tkazilishi shart.

Yig‘ilish puxtalik bilan tayyorlanishi juda muhim, shuning uchun oldindan (1 – 2 oy oldin) yetakchi mutaxassis bolalardan qaysi biri chuqur tekshirishga muhtojligini aniqlaydi, bola bilan ish dasturi va barcha mutaxassilari tomonidan yetakchi mutaxassisga xulosalami tayyorlab berish muddatlari (TPPKning yig‘ilishidan kamida 3 kun oldin) tuziladi. Bolalar TPPKda takroriy tekshiruvdan o‘tkazilayotgan bo‘lsalar, bola bilan individual olib borilgan korreksion-rivojlantirish ish natijalari alohida baholanadi (dinamikasining xarakteri) va bu ishni davom etish bo‘yicha keyingi dastur tuziladi. TPPK nafaqat bola, ota-onaga yordam beradi, u bolada bo‘lgan muamolarini yechishda pedagoglar tomonidan olib borilayotgan harakatlarning bir-biriga muvofiqligini ta’minlab, ularning malaka darajasini ham oshiradi, va bu TPPKning eng muhim vazifalaridan biridir.

6. 2. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda tibbiy-reabilitasion diagnostikasi.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyat va bozor munosabatlarining rivojlanishi, umuman olganda, to‘liq iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotga ega bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan aholining zaif qatlamlariga, shu jumladan nogironlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunday shiddatli ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilishning avvalgi mexanizmlari samarasiz bo'lib, yangilari hali shakllanmagan. So'nggi yillarda ijtimoiy xavfxatarlarga qarshi kurashish bo'yicha davlat darajasida chora-tadbirlar ko'rilganiga qaramay, imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlashga katta mablag'lar yo'naltirildi ("Mavjud muhit" davlat dasturi amalga oshirilmoqda, inklyuziv ta'lim olish imkoniyati yaratilmoqda. Nogironligi bo'lgan shaxslarga

nisbatan davlat siyosati va boshqa sub'ektlarning faoliyati yetarli darajada samarali emas. Ko'p jihatdan, bu (ijtimoiy-siyosiy niyatlar va shiorlar darajasida emas, balki amalda) iqtisodiyot va jamiyat uchun "majburiy yuk" sifatida nogironlik muhiti haqidagi mavjud g'oyalar paradigmasi bilan belgilanadi.

Shuni hisobga olish kerakki, nogironlarning jamiyatga to'liq integratsiyalashuviga erishib bo'lmaydi, chunki sog'lig'ining jiddiy nuqsonlarini (karlik, ko'rlik, aqliy zaiflik, tayanch-harakat tizimi kasalliklari) to'liq qoplash mumkin emas. Shu sababli, nogironlarning jamiyatdagi mavqeining "o'ziga xosligi" saqlanib qoladi. Biroq, bu omilni minimallashtirish shoshilinch madaniy ehtiyojga, ijtimoiy zaruratga aylanib, nogironlarga boshqa odamlar bilan teng ravishda madaniy ne'matlardan, mustaqil hayotdan, o'z taqdirini o'zi belgilash va tanlash erkinligidan teng foydalanish imkonini beradi. Salbiy hodisalar oqibatlarini minimallashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, nogironlarning ijtimoiy huquq va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlarni ko'rish davlat va jamiyat darajasida dolzarb ahamiyatga ega. Mintaqaviy miqyosda ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy xarakterdagi muassasalar tomonidan pedagogik imkoniyatlar va texnologiyalardan kengroq foydalanish, nogironlarning moslashuvi va integratsiyasini, ijtimoiymadaniy reabilitatsiyasini ta'minlash.

Zamonaviy sharoitda reabilitatsiya faoliyatining yo'nalishlari, turlari va usullari yangi sifat bilan ajralib turadi, ular nogironlar va ayniqsa nogiron bolalarni jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotiga integratsiyalashuviga, ularning o'zini o'zi anglashi va o'zini o'zi tasdiqlashiga qaratilgan. Ijtimoiy-madaniy reabilitatsiyaning

maqsadi nogiron bolani yoki kattalarni barcha mavjud vositalardan (kompyuter, kitoblar) foydalangan holda muloqotning turli shakllari va vaziyatlarida munosib va mustaqil ravishda ishtirok etishga, mehnat, dam olish va dam olish usullarini mustaqil ravishda tanlash va tanlashga o'rgatishdir. Nogiron bolalarni reabilitatsiya qilishning ijtimoiy-madaniy yo'nalishining mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: hayotiy faoliyatni optimallashtirish (ijtimoiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishda ijtimoiy-madaniy faoliyatning imkoniyatlari va

resurslaridan foydalanish, bu bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish orqali muvaffaqiyatli sotsializatsiya va moslashishga olib keladi. asosiy ijtimoiy institutlar:

- oila, ta'lim muassasalari, madaniyat va dam olish muassasalari va boshqalar); nogiron bolani tarbiyalash (shu jumladan ijodiy o'zini namoyon qilish ehtiyojlarini

- shakllantirish va amalga oshirishda yordam berish);

- nogiron bolalarning o'zlarini kasbga yo'naltirish va o'qitish; hududiy ijtimoiy xizmatlar tarmog'ida nogironlarni ijtimoiy-madaniy reabilitatsiya tadbirlariga, oilaviy dam olish, badiiy-texnik ijodkorlik, amaliy san'at sohalariga jalb qilish.

Nogiron bolalarni reabilitatsiya qilish va integratsiyalashning belgilangan yo'nalishi tarkibni ijtimoiy-madaniy faoliyatning muayyan turlari bilan to'ldirish orqali amalga oshiriladi. Quyidagilar reabilitatsiya salohiyatiga ega: badiiy va ijodiy (amaliy san'at, teatr, raqs, musiqiy faoliyat), o'yin, texnik, sport, turizm va ijtimoiymadaniy faoliyatning boshqa turlari. Ushbu turlar reabilitatsiya texnologiyalarining asosini tashkil qiladi: art terapiya, biblioterapiya, musiqa terapiyasi, o'yin terapiyasi va boshqalar.

Nogiron bolalarni reabilitatsiya qilishning psixologik-pedagogik yo'nalishi psixologik reabilitatsiya va psixologik-pedagogik tuzatish sohasida etakchi o'rinni egallaydi, chunki nogiron bolalar muammosi tibbiy-pedagogik jihat bilan cheklanib qolmaydi, ijtimoiy kontekstda u alohida maqomga ega bo'ladi. Tengsiz imkoniyatlarni minimallashtirish. Ushbu yo'nalishning asosi psixologik reabilitatsiya va psixologik-pedagogik tuzatish bo'lib, u reabilitatsiya tadbirlarining umumiy majmuasida aqliy rivojlanishdagi nomutanosiblikni bartaraf etishga yordam beradi va nogiron bolalarni ijtimoiy va madaniy hayotga to'liq qo'shish imkoniyatini ta'minlaydi. jamiyat. Ushbu ikki yo'nalish (ijtimoiy-madaniy va psixologikpedagogik) nogiron bolalarning jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishiga, mehnat va dam olish faoliyatida o'zini o'zi anglashning yuqori darajasiga

erishishga imkon beradigan madaniy ko'nikmalar va psixologik munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Nogironlarning reabilitatsiyasini ta'minlaydigan psixologik-pedagogik yo'nalishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- individual intellektual funktsiyalarni tiklash va rivojlantirish (psixomotor qobiliyatlar, xotira, idrok, nutq, fikrlash va boshqalar);
- mahalliy hissiy buzilishlarni yumshatish, yo'q qilish, tuzatish (qo'zg'aluvchanlik, tashvish, qo'rquv, hissiy beqarorlik va boshqalar);
- muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va umuman kommunikativ tayyorgarlik darajasini optimallashtirish; o'z imkoniyatlari, kasalligi (kamchiligi), qobiliyatlari va ehtiyojlariga nisbatan munosib munosabatni shakllantirish;
- asosiy ijtimoiy institutlar: oila, ta'lim muassasalari, madaniyat va dam olish muassasalari va boshqalar o'rtasidagi maqsadli hamkorlikni ta'minlash orqali muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv va moslashish; imkoniyati cheklangan bolalarda ijobiy o'zaro munosabatlar motivatsiyasini shakllantirish, zamonaviy axborot-madaniy muhit to'siqlarini bartaraf etish;
- ijodiy o'zini namoyon qilish, ijodkorlik ko'nikmalarini rag'batlantirish, yashirin hayotiy kuchlarni uyg'otish.

Psixologik-pedagogik reabilitatsiyaning asosiy usullariga quyidagilar kiradi:

- psixologik konsultatsiya, psixologik trening, psixokorreksiya va psixoterapiya, ular tuzatish va tiklovchi yo'nalishga ega.
- uni amalga oshirishning murakkab xarakterini ta'minlaydigan psixodiagnostika klinik tibbiyot (pediatriya, bolalar psixonevrologiyasi), shuningdek, neyrofiziologik,
- biokimyoviy va boshqa klinik tekshirish usullari ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadigan tibbiy genetika ma'lumotlarini hisobga oladi.

Tibbiy genetika, bolalar psixonevrologiyasi, psixologiyasi va defektologiyasi sohasidagi zamonaviy ilmfanning rivojlanish darajasi nafaqat rivojlanish buzilishlarining turli shakllarini (aqliy zaiflik, miya yarim palsi, umumiy nutqning rivojlanmaganligi, asab tizimining turli irsiy kasalliklaridagi anomaliyalar)

tashxislash imkonini beradi. va boshqalar), yuqori aqliy funktsiyalarning shakllanish darajasini baholash, shuningdek, buzilishlarning klinik va psixologik mexanizmlarini aniqlash. Klinik diagnostika davolash, kasallikning rivojlanishining prognozi va oilaning tibbiy-genetik maslahati haqidagi savollarni hal qilishda etakchi rol o'ynaydi.

Deviant rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini, buzilishning patogenetik mexanizmlarini tahlil qilib, markaziy asab tizimining shikastlanishining lokalizatsiyasi va tarqalishini hisobga olgan holda, o'qituvchi va psixolog nuqsonning tuzilishi va kasallikning og'irligini yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Psixodiagnostikaning eng muhim vazifasi markaziy asab tizimining buzilishlarining lokalizatsiyasi va mexanizmlarini hisobga olgan holda etakchi nuqson va ular bilan bog'liq rivojlanish og'ishlarining tuzilishini o'rnatishdir. Maqsadlari fanlararo darajada, nogiron bolaga yordam berishning keyingi pedagogik taktikasi va strategiyasini aniqlashdan iborat bo'lgan pedagogik diagnostika o'qituvchi, o'qituvchi, o'qituvchi va o'qituvchining umumiy kuzatuvlari to'plamini ifodalovchi pedagogic tavsifni tuzishdan boshlanadi. Ota-onalar va ularning dastlabki bahosi quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi: oila tarkibi, oila ichidagi munosabatlar, bolalarning asosiy ta'lim qobiliyatlarini rivojlantirish (turli fanlar bo'yicha), hissiy-irodaviy, motivatsion-semantik va xulq-atvor sohalarida o'ziga xos xususiyatlarning mavjudligi.

Bundan tashqari, xarakteristikalar neyropsikiyatrik kasalliklarning dastlabki belgilari va maktabdagi noto'g'ri moslashuv sabablarining kuzatuvlarini qayd etadi.

Psixologik maslahat - bu bolalar va ularning ota-onalarini zamonaviy ijtimoiymadaniy sharoitlarga yo'naltirish, ishga tayyorlash, boshqalar bilan munosabatlar, muloqot qilish, o'zini ijodiy namoyon qilish va boshqalar, o'z-o'zini anglash va shaxsiy rivojlanishga to'sqinlik qiladigan psixologik muammolarni konstruktiv hal qilishga imkon beradi. Reabilitatsiyaning uslubiy usuli sifatida

konsultatsiya psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixoterapiya elementlarini o'z ichiga oladi, hech qanday kontrendikatsiyaga ega emas va rehabilitatsiyaning turli bosqichlarida muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Ba'zi mualliflar (Hellmuth Kleinsorge, Gerxard Klumbies) art-terapiya mashg'ulotlarini (erkin rasm chizish) va profilaktika chorasi sifatida, hissiy noqulaylikni muhokama qilish va engish uchun trening turi sifatida tavsiya qiladilar. Porembekki-Grau chizish va bo'yoqlar bilan o'ynashni stress va umidsizlikni kamaytirish, o'zini o'zi qadrlash tuyg'usini tiklash va o'z qobiliyatlariga shubhalardan xalos bo'lish uchun "ijodiy trening" ning psixoprofilaktik usuli sifatida foydalangan.

Shunday qilib, nogiron bolalarning ijtimoiy-madaniy rehabilitatsiyasi va integratsiyasi muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun quyidagilar zarur:

- rehabilitatsiya tadbirlari va usullari majmuasidan foydalanish;
- bolalar ijodiyoti natijalarini o'zini namoyon qilish va tan olish uchun sharoit yaratish (asarlar ko'rgazmalari, kontsertlar, festivallar, mualliflar, individual ijrochilar va guruhlarining taqdimotlari, tadqiqot ishlari, hunarmandchilik, ijodiy ishlar tanlovlarini tashkil etish;
- nogironlar va ommaviy axborot vositalari; reklama materiallarini tayyorlash va tarqatish - bukletlar, varaqalar);
- har bir nogiron bolaning shaxsiy ahamiyatini ta'kidlash (tug'ilgan kunlar, ismlar kunlari, oilaviy bayramlar, sport musobaqalari, muayyan shaxsning yutuq va muvaffaqiyatlariga e'tibor qaratilgan musobaqalar o'tkazish);
- nogironlarning ijtimoiy-madaniy rehabilitatsiyasi va integratsiyasiga erishishga qaratilgan asosiy pedagogik vazifalar quyidagilardan iborat: har bir nogiron bolaning va nogiron bolalarning o'z qobiliyatlari va salohiyatini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish uchun sharoit yaratish;
- nogironning muloqot doirasini kengaytirish va uning muloqot madaniyati darajasini oshirish;
- faol hayotiy pozitsiya, mustaqil turmush tarzi tamoyillarini amalga oshirish, ularni boshqa sohalarga, shu jumladan kasbiy faoliyatga yoyish;

- shaxsda ishonch va mustaqillik hissini taʼminlovchi axloqiy va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish; nogiron bolaning hayot sifatini yaxshilash va oʻzini oʻzi rivojlantirish uchun zarur boʻlgan kognitiv va hissiy-irodaviy sohasini rivojlantirish;

- nogironlar orasidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan, nogiron bolalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni kasbga yoʻnaltirish va tayyorlash;

- ijodiy oʻzini namoyon qilish, ijodkorlik koʻnikmalarini ragʻbatlantirish, yashirin hayotiy kuchlarni uygʻotish.

Reabilitatsiya faoliyatining koʻrib chiqilayotgan yoʻnalishlari, turlari va usullari nogiron bolalarni reabilitatsiya qilish va keyinchalik integratsiyalash muammosini sifat jihatidan yangi bosqichda hal qilish, ularning ijodiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish va roʻyobga chiqarish, jamiyatdagi hayot sharoitlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Nazorat uchun savollar.

1.Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv taʼlimga jalb etishda TPPKning roʻli qanday?

2. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv taʼlimda tibbiy-reabilitasion diagnostikasi deganda nimani tushunasi?

3.Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv taʼlimga qanday jalb etish mumkin?

4. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv taʼlimda qanday tibbiy-reabilitasion diagnostikasi olib boriladi?.

VII BOB. TURLI DARAJADAGI INTELLEKTUAL QIYINCHILIKLARGA EGA, AUTISTIK SPEKTR VA SENSOR BUZILISHLARGA EGA BOLALAR BILAN INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH STRATEGIYALARI VA SHARTLARI

7.1. Bolalarning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida maktabgacha

1. Bolaning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida maktabgacha ta'lim tashkilotining roli. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish ishlari tegishli "Ilk qadam" dasturi asosida amalga oshiriladi, mazkur dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi, tegishli lug'at hajmi hamda bolalarning har bir yosh bosqichida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan nutqiy mahorat va ko'nikmalari belgilab qo'yilgan bo'lib, u muayyan shaxs sifatlarini tarbiyalashni ko'zda tutadi (masalan, dialogik nutqni rivojlantirishda dastur kirishimlilik, xushmuomalalik, bosiqlik kabi sifatlarni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi). Nutqni rivojlantirish dasturi ham, umuman olganda, xuddi «Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalash va ta'lim berish dasturi» kabi ilmiy asoslarga qurilgan. U butun mazmuni bilan maktabgacha ta'lim nazariyasini amalga oshirishga, ya'ni bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan. Dastur asosini psixologiya va turdosh fanlarning bolaning og'zaki nutqni egallab olganligi va uning bilish faoliyatining o'ziga xosligi haqidagi ma'lumotlar tashkil etadi, bu esa turli yosh bosqichlarida bolalarga nisbatan talabning hajmi va izchilligini belgilaydi. Shuningdek, dastur bolaning rivojlanishida faoliyatning yetakchi ahamiyatga ega ekanligi haqidagi muhim pedagogik qoidani hisobga olgan holda tuzilgan, shuning uchun nutqni rivojlantirish dasturi turli faoliyat turlari (o'yinlar, mashg'ulotlar, mehnat va boshq.) bilan taqqoslangan.

Dasturni o'rganishni nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalarini eslatib o'tish bilan boshlash mumkin. So'ngra bitta guruh misolida ushbu asosiy vazifalarning mazmuni qandayligini va u dasturning qaysi bo'limlarida uchrashini ko'rsatish zarur. Yuqorida qayd etilgan jamoaviy muhokama singari tarbiyachiga boshqa yosh guruhlari dasturlarining matnlarini o'rganib chiqish taklif etiladi. Navbatdagi mashg'ulotda dasturiy materialni alohida vazifalar bo'yicha qiyosiy tahlil qilish

o'tkaziladi, materialni yosh guruhlarida izchil ravishda murakkablashtirib borish qayd etiladi. Maktabgacha tarbiya sohasi xodimiga dasturni yakka tartibda va ayni paytda jamoa bo'lib o'rganishga to'g'ri keladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi yoki katta tarbiyachi har yili sentyabr oyida tarbiyachilarning o'z yosh guruhlari uchun dasturning tegishli talablarini ajratib olishlari, ularni o'zlarining yosh guruhlari mo'ljallangan dasturiy talablar bilan ko'rgazmali taqqoslash, ularni aralash guruhlar dasturi bilan ko'rgazmali taqqoslash uchun nutqni rivojlantirish dasturini tarbiyachilar ishtirokida jamoaviy muhokama qilishni o'tkazishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining asosiy yo'nalishlaridan biri nutq, o'qish va savodga tayyorgarlikdan iboratdir. Bu umumiy vazifa –«Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik» quyidagi maxsus vazifalardan iborat:

- nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash,
- lug'atini boyitish,
- mustahkamlash va faollashtirish,
- nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish,
- og'zaki nutqni shakllantirish,
- ravon nutqni rivojlantirish,
- savodga tayyorlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining tayyorlov guruhdagi nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik yo'nalishining asosiy vazifalari: bolaning til to'g'risidagi tasavvur va bilimlarga ega (antonim va sinonimlarni topa oladi), o'qish va yozish malakalarini shakllantirishdan iborat. Bola o'z ona tilining fonetik grammatik tuzilishini biladi, so'zlardagi birinchi tovushlarni biladi, bo'g'inlab o'qiydi, alifbeni biladi deb belgilangan. Bu vazifalarni bajarish uchun tayyorlov guruhida yil davomida jami 72 ta mashg'ulot o'tkaziladi. Shulardan 36tasi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha, 36tasi savodga tayyorlash bo'yicha bo'ladi. Mashg'ulotlarning davomiyligi 25-30 daqiqa.

Og‘zaki nutqini o‘stirish bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda asosan, bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish bilan birga nutqni grammatik tomondan to‘g‘ri shakllantirishga e‘tibor qaratish kerak:

- nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish;

- sodda va qo‘shma gaplar tuzish, bunda barcha so‘z turkumlaridan foydalanishga o‘rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe‘lga to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish;

- tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, ravon gapirishga mustaqil hikoya qilishga e‘tibor beriladi.

Og‘zaki nutqini o‘stirishda mustaqil hikoya qilishga o‘rgatish katta o‘rin egallaydi: bolalalarni o‘z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalar tuzishga o‘rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog‘langan, ma‘lum izchillikda, grammatik tomondan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak.

Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Maktabgacha ta‘lim bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta‘minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta‘lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta‘lim maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta‘limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

1. Malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
2. Maktabgacha ta‘limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
3. Bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jixatdan ta‘minlash;

4. Zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jixatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

6. Maktabgacha ta'lim muassasalarining har-xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

7. Maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmogini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'yadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomda maktabgacha ta'limga alohida urg'u berilib, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida tashkil etiladi, deyilgan. Maktabgacha ta'lim, bola 6-7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat (davlatga qarashli bo'lmagan) maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:

1. Bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy kadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jixatdan tarbiyalash;

2. Bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash;

4. Bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;

5. Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining yasli va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar guruhlariga bir xil yoshdagi, shuningdek, turli yoshdagi bolalar qabul qilinishi mumkin.

Guruhlardagi bolalar soni quyidagicha belgilanadi:

- 2 yoshdan 3 yoshgacha – 15 ta.
- 3 yoshdan 6-7 yoshgacha – 20 ta.
- turli yoshdagi guruhlarda 15 ta.

Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati xududlarining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan qolda tashkil etiladi, Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va tugatish Qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari yo'nalishlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bolalar yaslisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli bog'chasi, xonadon bolalar bog'chasi (ham mustaqil muassasa sifatida, ham filial sifatida);
2. Bog'cha maktab muassasasi;
3. Tarbiyalanuvchilarning bir yoki bir necha ustuvor yo'nalishlarda rivojlantiradigan (til o'rganish, badiiy estetik, sport va boshqa yo'nalishlar bo'yicha) maktabgacha ta'lim muassasasi;
4. Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishni ustuvor ravishda amalga oshiruvchi maxsus Maktabgacha ta'lim muassasasi;
5. Sanitariya-gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlari hamda muolajalari ustuvor ravishda amalga oshiriladigan sog'lomlashtiruvchi maktabgacha ta'lim muassasasi;
6. Aralash turdagi maktabgacha ta'lim muassasasi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni qabul qilish tartibi, ularni bir muassasadan ikkinchisiga ko'chirish, muassasadan chiqarish davlat muassasalarida maktabgacha ta'lim Vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, davlatga qarashli

bo'lmagan maktabgacha ta'lim muassasalarida esa, muassasaning Ustavi bilan belgilanadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishda kamchiliklari mavjud bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari yoki guruhlar tashkil etish ham maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizomda ko'rsatib o'tilgan.

Har bir sohada bo'lganidek, maktabgacha ta'lim tizimida ham maktabgacha ta'lim muassasalariga tegishli ma'lumotga, kasb tayyorgarligiga hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga egadirlar. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolati davlat organlari tomonidan pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, kasb sifatini raqobatbardoshlik darajada saqlab turish ta'minlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarning o'quv pedagogik vazifasi maktabgacha ta'lim muassasa turiga davlat talablaridan kelib chiqqan holda xalq ta'limi Vazirligi tomonidan belgilanadi. Ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan yangi dasturlar, metodik qo'llanmalar, didaktik materiallarni joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Pedagogik kadrlarning o'zaro munosabatlari hamkorlik, demokratiya, xurmat, shaxsning o'z qadr-qimmatini bilishni e'tirof pedagogikasi asosida quriladi.

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha tarbiya konsepsiyasida ham belgilangan bosh maqsad va vazifalar maktabgacha ta'lim muassasalari uchun yozilgan yangi dasturlar mazmunini amalga oshirishga qadar aniqlana boradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning o'sishidagi psixologik va etnopsixologik xususiyatlarga asoslanib, ta'lim-tarbiya tizimida odob estetik, musiqiy-badiiy, jismoniy tarbiyani birinchi o'ringa chiqarish, gramatikani bu qadar majburiy o'rgatmaslik lozim bo'ladi. Shunday yo'l bilan maqsad asosida vazifa va usullar belgilanadi va rivojlantiriladi.

7.2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida nutqni rivojlantirishga doir ishlar tizimi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o'z xalqining badiiy tilini o'zlashtirib olishlari natijasida ularning to'g'ri og'zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus

vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lugʻatni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik toʻgʻriligini takomillashtirish, ogʻzaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy soʻzga qiziqishni tarbiyalash, savod oʻrgatishga tayyorlash.

Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lugʻat hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim boʻlgan nutqiy mahorat va koʻnikmalar belgilangan boʻlib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, bosiqlik) tarbiyalashni koʻzda tutishi lozim.

Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga qurilgan boʻlib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining oʻquv, oʻyin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi. Jamoat tarbiyasi sharoitida taʼlim - bola nutqini shakllantirishning yetakchi vositasi hisoblanadi.

Ona tilini oʻqitish – bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni koʻzlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lugʻatni oʻzlashtirish, nutqiy mahorat va koʻnikmalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni oʻqitishning asosiy shakli – mashgʻulotlardir.

Didaktik maqsadlar boʻyicha quyidagi mashgʻulotlar turlarini ajratib koʻrsatish mumkin:

- yangi materialni maʼlum qilish mashgʻuloti;
- bilimlar, mahorat va koʻnikmalar mustahkamlashga oid mashgʻulotlar;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid mashgʻulotlar;
- yakuniy mashgʻulotlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) mashgʻulotlari.

1 yoshdan 3 yoshgacha boʻlgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashgʻulotlarni didaktik oʻyinlar, ermak oʻyinlar va sahna koʻrinishlari shaklida oʻtkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat koʻngilochar tusga, balki albatta taʼlim tusiga ega boʻlishi lozim.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmalilik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg'ulotlar muayyan vazifaga ega – ya'ni, u bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ko'zda tutadi.

Mashg'ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo'lish, pedagog topshirig'ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr oldira olish, tengdoshining javobiga oddiy baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

Bolalarga ona tilini o'qitishga doir mashg'ulotlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni, har bir mashg'ulotning davomiyligi shunga bog'liq bo'ladi.

7.3. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy vazifalari

1. Bolalar nutqini o'stirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish. Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi - til orqaligina berish mumkin. Bolalarga ona tilini o'rgatish va ular nutqini rivojlantirishga doir ishlar maktabgacha tarbiya muassasasidagi ta'lim-tarbiya ishlari ichida alohida o'rin tutadi. Ushbu ishning maqsadi quyidagilardan iborat: - bolalarga nutqiy muloqotning muhim shakli – og'zaki nutqni adabiy til me'yorlariga muvofiq holda egallashni, to'liq ko'rinishda esa tushunish va faol nutqqa kirishishni o'rgatish. Nutqni tushunish. Bolaga eng oddiy, uning o'ziga tanish bo'lgan maishiy vaziyatlar, jarayonlar va o'yin

vaziyatlarini ochib beruvchi oson tushuniladigan soʻzlar va oddiy iboralar zahirasi kengaytirish.

Uch oylikdan boshlab talaffuz jihatidan boy boʻlgan asarlardan foydalanish tavsiya etiladi. 3 oylikdan boshlab 6 oylikkacha ovoz xirgoyisiga ega boʻlgan – xalq cholgʻu asboblari taqlid qilinadigan («taka-tum-bak», «dili-bom, tili-bom» va boshq.) asarlar foydali. Ular bolaning ovoz imkoniyatlarini rivojlantiradi. Bolada chuldirash paydo boʻlishi bilan (5-6 oy) chuldirashga ohangdosh boʻlgan, bir necha marta takrorlanadigan va ovoz bilan ifodalanadigan boʻgʻinlardan iborat boʻlgan his-hayajonli qisqa iboralar va aytishuvlardan foydalangan maʼqul. 9 oylikdan boshlab bolaga tanish boʻlgan, u «oʻrgangan» vaziyatlarga tayangan holda nutqiy taqlid va ovoz ifodaliligini rivojlantirish muhimdir. 12 oylikdan boshlab kichik folklor janri asarlari elementlari (bekinmachoq va h.) asosida nutqiy muloqotga kirishishga, jaranglayotgan matnga mos ravishda harakatlar bajarishga undash lozim. Bola hayotining ikkinchi yili. Bola bilan nutqiy muloqotni yoʻlga qoʻyish va uning lugʻatini boyitish, oʻz harakatlarini soʻzlar bilan birgalikda amalga oshirish, kichikni tarbiyachi (kattalar) topshirigʻiga koʻra ayrim oddiy topshiriqlarni (oʻyinchoqni, etiklarni, paltoni keltirish; qizil oʻyinchoqlarini koʻrsatish) bajarishga undash, buyumlar, kiyim-boshlar, idish-ovoqlar, sabzavotlar va mevalarning nomlari va ular bilan amalga oshiriladigan harakatlar haqidagi savollarga javob berish uchun barcha tartib vaziyatlari va maishiy vaziyatlardan foydalanish lozim.

7.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning mazmuni va metodlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va maʼnaviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tugʻma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam taʼlim olishga tayyorlashdan iborat. Bolada kattalar bilan muloqot jarayonida axloqiy xulq-atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga boʻlgan ehtiyoj – muhim ijtimoiy ehtiyoj boʻlib, katta yoshli kishi bu ijtimoiy ehtiyojni qondiruvchi manba hisoblanadi. Axloqiy

his-tuyg'ular va odatlarni tarbiyalash shunday zaruriy asos hisoblanadiki, usiz bola shaxsining murakkabroq xususiyatlarini, ma'naviy kamolotni ta'minlash, mamlakatning ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi tasavvurlarni va ularga ijobiy munosabatni shakllantirib bo'lmaydi.

Maktabgacha bolalikning dastlabki bosqichlarida tarkib toptirilgan insonparvarlik asoslari uning ijtimoiy yo'nalganligi bolalarda asta-sekin shaxsning jamoatchilik belgilari: xulq-atvor odatlari, munosabatlari va tasavvurlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo bolalar muassasasida jamoaning katta yoshli a'zolari o'rtasida to'g'ri o'zaro munosabat uslubini vujudga keltirish kerak. O'zaro xurmat va g'amxo'rlik, ishga muhabbat, mamlakatning siyosiy va mehnat hayotida ishtirok etish – bularning barchasi zarur uslubni ta'minlashi lozim. Pedagogik jamoa va ota-onalar jamoalarining to'g'ri munosabatlarini bugungi kun talablari asosida amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu ish shakli MTTning ota-onalar bilan muntazam ish olib borishi, oila tarbiyasi tajribalarini o'rganish natijasida tarkib topadi.

Kattalar bilan bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yuksak darajasi – muvaffaqiyatli axloqiy tarbiyaning majburiy shartidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning mazmuni va metodlari bu yoshdagi bolalarning xususiyatlariga mos kelishi va u eng yaqin vaqtdagi axloqiy rivojlanish jarayonini ko'zda tutishi kerak. Masalan, agar 4 yoshli bolalar o'z tengdoshlariga asosan tarbiyachining maslahati, ko'rsatmasi ta'sirida baholi-qudrat yordam ko'rsatsalar, 5 yoshga to'layotganda bunday yordamni o'z hoxishlariga ko'ra ko'rsatishlari lozim. Oilaga xos bo'lgan muhabbat, o'zaro e'tibor, g'amxo'rlik muhiti bola xis-tuyg'usini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Oilada qaror toptiriladigan ijtimoiy his-tuyg'ular bolaning kichik yoshdan boshlab to'g'ri axloqiy rivojlanishining muhim asosi hisoblanadi.

«Salomatlik va xayrixohlikni tarbiyalashning chinakkam maktabi – bu oiladir; Otaga, onaga, buvaga, buviga, aka-ukalariga, opa-singillariga munosabat insoniylikning sinovi hisoblanadi», - degan allomalarimiz.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining muhim vazifasi – ota-onalarga bola shaxsini shakllantirishda ularning alohida rol o'ynashlarini tushuntirishi, zarur pedagogik bilim va ko'nikmalarni egallashlarida ularga yaqindan yordam berishdan iborat. Bolalarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda mahallaning o'rni ham kattadir. Mahalla, avvalo, sog'lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining hulq-atvori o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Mahalla ijtimoiy kelib chiqishi, millati, mijozlari turli xil bo'lgan oilalarni tashkil qilgan odamlardan iborat. Mana shu oilalarning boshlarini birlashtirish, ularni ma'naviy va moddiy-jismoniy jihatdan mustahkamlash, yoshlarni tarbiyalash kabi muhim vazifalar ham mahallada amalga oshadi. Oilalarni bir jamoaga, ijtimoiy guruxga, muassasaga, aynan mahalla birlashtiradi. Ularda ahillik, hamjixatlik, hamkorlik, hamdardlik, his-tuyg'ularini shakllantiradi, kamol toptiradi. Har bir fuqaroning hayotida «Shaxs-oila-mahalla» uchligi katta ahamiyat kasb etadi. Bu sharqona turmush tarzimizning o'ziga xos tizimidir va eng muhimi, insonning jamiyat hayotiga singib, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisiga aylanishida muhim vositadir.

Insonning oilada shakllangan iymon-e'tiqodi, odobi, oriyati, vijdoni, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib xalq manfaatlari, o'zaro inoqlik va hamkorlik his-tuyg'ulari bilan uygunlashib, jamiyatda sog'lom munosabatlarning shakllanishiga olib keladi.

7.5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida aqliy tarbiya berish vazifalari

1. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli. Bolalarni bilimlarni egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o'rni katta. Bilimlar zahirasini kengaytirish, aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish, maktabda yaxshi o'qish, keyingi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartidir.

Bola 6-7 yoshdan maktabga o'tishi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish yetarli bo'lishini ta'minlash tarbiyachidan katta mas'uliyatni talab etadi. Maktabgacha ta'lim yoshida bilim tez sur'atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shaqllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng mashg'ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

2. Bilimga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, hayol, tafakkur, nutq. Bilishga doir ruxiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari predmetlarni tekshirish ulardagi muhim va muxim bulmagan belgilarni ajratib kursatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarini chuqur egallab olishiga yordam beradi.

Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishga foydalanishga o'rgatish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jixatdan rivojlantirish, ularning ruxiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va extiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalariga sodiq holda voyaga yetib borishni ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan

davlat talablariga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga kuyilgan maksad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Bolajon» tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi. Har bir oila barkamol avlodni tarbiyalash uchun qaygurishi lozim. Shu bois «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mamalkatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili bo'lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berildi. Sog'lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yunalishidir.

Hech kimga sir emaski, respublikada bolalarni maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalariga jalb qilish 17 foizni tashkil qiladi. Bunday sharoitda maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan 83 foiz bola bilan yuqorida kursatilgan 17 foiz bolaning rivojlanish darajasi o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelmoqda. Bunday nomutanosiblik, bolalar maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlab ularning rivojlanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yengilashga aloqida e'tibor berilmoqda. Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda ta'lim-tarbiya berish maqsadida tayanch dasturlari taqdim etilmoqda. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalariga jalb etilmagan 3 milliondan ortiq bolani ham rivojlantirish va yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorlash imkonini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu uzluksiz ta'lim tizimining ilk turi – maktabgacha ta'limga o'ziga xos yondashuvni talab etar edi. Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota-onaga zimmasiga uni sog'lom, aqlli, xush hulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo'yildi.

Bu ko'nikma, malakalar bilish faoliyatini tarkibiy qismlarga bo'lib, bola bilimlarni chuqur egallab olishiga yordam beradi.

2. Mashg'ulotlarda aqliy tarbiya usullari. Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish birinchi navbatda bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo'ladigan ortiqcha zo'rayish bo'lmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi. To'g'ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko'zlab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so'ng mashg'ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Bolani bilimlarni egallab olishi, aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikmalarni egallab olishi maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun, bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib, xizmat qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilar:

Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Bola tevarak atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, sifati, xossalari haqida, qaysi materiallardan foydalanganligi, tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqalar. Bilimga doir nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning erkin vazifasidir.

Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, ya'ni oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

O'simlik va hayvonlar bilan tanishish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar o'simlik, yosh hayvonlar to'g'risidagi ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar. So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma, malakalarni

rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin. Bular quyidagilar: «Sen ta'rifla, men topaman».

Didaktik vazifa - Kattalarning savollariga narsaning harakterli belgisini ajratib va nomini aytib javob berish.

O'yin harakati – Kattalarga topishmoqni aytish.

O'yin qoidasi – Ta'riflanayotgan narsaning nomini aytish mumkin emas.

Tarbiyachining savollariga aniq va to'g'ri javob berish.

Jihozlash – Sabzavot va mevalarni stol ustiga qo'yiladi. Tarbiyachi stulini o'simliklar ko'rinmaydigan qilib qo'yiladi.

O'yinning borishi – Tarbiyachi bolalarga stol ustidagi sabzavotlardan bittasini tanlang. Men sizdan uning qandayligini so'rayman. Siz javob berasiz. Faqat uning nomini aytmang. Sizlarning javoblaringizdan men uni topishga harakat qilaman, deydi. Keyin tartib bilan tarbiyachi savol beradi: «Shakli qanday?, hamma tomoni shardek dumaloqmi?, chuqurchasi bormi?, rangi qanday?» va boshqa. Bolalar savollarga to'la javob berishadi. Bolalar narsaning xarakterli belgilari haqida gapirib berganlaridan keyin tarbiyachi topishmoqni topadi. Mashg'ulotda, o'yinda, tabiat burchagida va maydonchadagi mehnatda, ekskursiya va sayr vaqtida tarbiyachi bolalarga atrofdagi olamning turli-tumanligini, chiroyini ko'rsatadi, o'simlikning turli xususiyatlari, sifatlari bilan tanishtiradi, o'simlik va hayvonot olami haqida elementar tushunchani shakllantiradi.

Bolalarning jozibali munosabati tarbiyachining hikoyasidan faolroq o'zlashtirib olishga imkon beradi. Mashg'ulotlarda, didaktik o'yinlarda qo'yilgan vazifani hal etishda bola buyum va xodisalarning ayrim xususiyatlarini ajratishga, solishtirishga, umumiy xususiyatlarga, belgilariga qarab guruxlarga ajratishga, klassifikatsiya etishga o'rganadilar. Bolalar fikr yuritishga, xulosalar chiqarishga o'rganadi, bolalar diqqati, xotirasi va ixtiyoriy idroki rivojlanadi. Mashg'ulotni, o'yin vazifasini hal etishda bola o'zining xatti-xarakatini tushuntiradi. Bu esa nutqining o'sishiga yordam beradi. Mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar davomida turli maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p marotaba takrorlash orqali Maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya dasturiga xos bilimlar majmuini o'zlashtiradilar.

Tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlarni tanlashda tarbiyachi o'yinning mazmuni atrof muhitdagi, tabiatdagi o'zgarishlarga mosligini unutmasligi lozim.

Masalan: «Urug' sotib olish» o'yini bahorda, «Hosil yig'ishtirish» esa yoz yoki kuzda o'tkazilishi kerak. Tarbiyachining o'zi ham mashg'ulot, o'yinning turlicha variantlarini o'ylashi mumkin: o'yinga, mashg'ulotga qo'shimcha vazifa, yangi rol, bolalarning atrof-olam haqidagi bilimlarini boyitish va boshqalar. Ba'zi bir didaktik o'yinlarni turli variantda, turli yoshdagi bolalar uchun tavsiya etiladi. O'yinlar o'simliklar, hayvonlar yoki boshqa predmetlarning soni oshishi, turlicha qoida va o'yin harakatlarining oshishi hisobiga murakkablashadi. Masalan: paypaslab bilish uchun sabzi, bodring, olma va boshqalar olish mumkin, keyinchalik shakli o'xshash bo'lgan meva va sabzavotlarni kiritish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga barg, gullar bilan o'ynash ko'pincha gurux xonasini, ovqat stolini bezash, guldasta, barglarni kattalarga, kichik bolalarga sovg'a qilishga xohishlari bilan bog'lanadi. Bunday o'yinlarni, mashg'ulotlarni o'tkazishda bolalarni o'simliklarga nisbatan ehtiyotkorlik, gullarni bekordan-bekorga uzmaslikka o'rgatish lozim.

Agar bola olma yoki boshqa predmetlarning shakliga diqqatini qaratgan bo'lsa, unga olmani dumalatib ko'rish, koptokdek silab ko'rish, uning silliqqligini aniqlashni taklif etish lozim. Bolalarda rang, shakl, kattalik tushunchalarini ishlatishga o'rgatish lozim.

Xilma-xil tabiat hodisasi olamida bolalarning bevosita kuzatishlari uchun eng tushunarligi o'simlik va uy xayvonlaridir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'simlik va xayvonlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan muhabbat tarbiyalanadi, xayvonlarni parvarishlashga, o'simliklarni o'stirishga nisbatan istaklari tarbiyalanadi.

Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng mashg'ulotlar, o'yinlar, bilim berish orqali amalga oshirildi. Bola har doim buyumlar, xodisalar orasida bo'ladi. Doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab kuradi, nimagadir quloq soladi, shu tarzda bola dunyoni anglaydi. Tevarak-atrof buyum va narsalar bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta'sir etadi va

sezgi hosil bo‘ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Bolada aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usullari predmetlarini tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

Nazorat uchun savollari:

1. Bolaning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida maktabgacha ta’lim muassasalarining roli nimalardan iborat?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarining asosiy yo‘nalishlarini izohlang.
3. Maktabgacha ta’lim muassasalari yo‘nalishlariga ko‘ra qahday turlarga bo‘linadi?
4. Bolalarga ona tilini o‘qitish qanday jarayon hisoblahadi?
5. Bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha ishlarni qanday rejalashtiriladi?
6. Bolaning ovoz imkoniyatlarini qanday rivojlantiriladi?

VIII BOB. GOSPITAL PEDAGOGIKANING MAQSAD VA VAZIFALARI

8.1. Gospital pedagogikaning to'g'risida tushuncha.

Gospital pedagogikasi (GP) 20- asrning o'rtalarida kasalxona sharoitida maktabda ta'lim berish orqali bolalar va yoshlarni ta'lim tizimidan chetlatishning oldini olish uchun paydo bo'ldi. Ushbu ta'lim sohasi so'nggi paytlarda adabiyotda diqqat markazida bo'ldi (Palomares- Ruiz, Sánchez-Navalon va Garrote-Rojas, 2016).

“Kasalxona” so'zining GPga kiritilishi pedagogik vazifani belgilash va GPni pedagogikaning o'ziga xos sohasi sifatida ajratib ko'rsatishning asosiy funktsiyasiga ega (Lizasoáin va Polaino-Lorente, 1996).

Gospital pedagogikasi (GP) 20- asrning o'rtalarida kasalxona sharoitida maktabda ta'lim berish orqali bolalar va yoshlarni ta'lim tizimidan chetlatishning oldini olish uchun paydo bo'ldi. Ushbu ta'lim sohasi so'nggi paytlarda adabiyotda diqqat markazida bo'ldi (Palomares- Ruiz, Sánchez-Navalon va Garrote-Rojas, 2016).

GP deyarli barcha mamlakatlarda mavjud va u har xil tarzda amalga oshirilgan bo'lsa-da (Palomares- Ruiz va boshq., 2016), uchta usul tan olingan: yotoqxonada o'qitish, tibbiy markaz ichida yoki unga tutash sinfda o'qitish va uyda o'qitish.

GPda o'qituvchilar tomonidan xizmat ko'rsatadigan talabalar yoshi, jamoasi ta'lim darajasi va tibbiy patologiyasi bo'yicha heterojendir (Palomares- Ruiz va boshq, 2016); masalan, shifoxona o'qituvchilari, jismoniy yoki ko'p nogironligi bo'lgan va ruhiy salomatlik muammosi bo'lgan talabalar bilan ishlashi mumkin (FCLR, 2019).

Shu ma'noda, shifoxona o'qituvchilari turli va murakkab kontekstda inklyuziv ta'lim berish muammosiga duch kelishadi (Riquelme, 2006; Souza & Rolim, 2019). Ushbu o'qituvchilar duch keladigan asosiy muammolardan ba'zilari o'z ishini rivojlantirish uchun tayyorgarlik va empirik asosning etishmasligidir.

Gospital pedagogika - uzoq muddatli davolanishda bo'lgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasalariga bora olmaydigan bolalar uchun ta'limni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan pedagogika bo'limi. Gospital pedagogika pedagogikaning bir qismi bo'lib, o'z e'tiborini o'quvchilarning alohida toifasiga - uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi.

Pedagogikaning ushbu sohasini amalga oshirish va rivojlantirishning murakkabligi uning idoralararo bog'liqligi bilan belgilanadi: ta'lim, sog'liqni saqlash va himoya qilish, chunki shifoxonada uzoq muddatli davolanayotgan o'quvchi birinchi navbatda bemor va faqat ikkinchi darajali maktab o'quvchisi. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish har tomonlama reabilitatsiyani anglatadi.

Pedagogikaning ushbu sohasini amalga oshirish va rivojlantirishning murakkabligi uning idoralararo bog'liqligi bilan belgilanadi: ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya, chunki shifoxonada uzoq muddatli davolanayotgan talaba birinchi navbatda bemor va faqat ikkinchi darajali maktab o'quvchisi. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish har tomonlama reabilitatsiyani anglatadi.

Gospital pedagogikaning markaziy kontseptsiyasi shifoxona maktabi – asosiy va qo'shimcha umumiy ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim faoliyatni amalga oshiradigan tibbiy tashkilotda uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar o'qitiladigan tashkilot.

Kasalxona maktablariga quyidagilar kiradi:

1. Tibbiyot tashkiloti negizida faoliyat yurituvchi ta'lim tashkilotlari.
2. Asosiy va qo'shimcha umumiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirgan va uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchilar uchun ta'lim tashkilotlari (shu jumladan sanatoriy);
3. Tibbiyot tashkilotining ixtisoslashtirilgan tarkibiy o'quv bo'linmalari.

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchi - asosiy va qo'shimcha umumiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirgan, tibbiy tashkilotning xulosasiga ko'ra, tibbiy muassasalarda yoki uyda 21 kundan ortiq davom etadigan davolanish yoki

tibbiy rehabilitatsiyadan o'tayotgan talaba, mavjudligi asosiy umumiy ta'lim dasturlari bo'yicha uyda ta'lim olish huquqini beruvchi kasalliklar ro'yxatiga ko'ra yoki boshqa qonuniy asoslarga muvofiq uyda ta'lim olayotgan bola.

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchi - asosiy va qo'shimcha umumiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirgan, tibbiy tashkilotning xulosasiga ko'ra, tibbiy muassasalarda yoki uyda 21 kundan ortiq davom etadigan davolanish yoki tibbiy rehabilitatsiyadan o'tayotgan talaba, mavjudligi asosiy umumiy ta'lim dasturlari bo'yicha uyda ta'lim olish huquqini beruvchi kasalliklar ro'yxatiga ko'ra yoki boshqa qonuniy asoslarga muvofiq uyda ta'lim olayotgan bola;

Kasalxona maktabi o'qituvchilari

Uzoq muddatli davolanayotgan bolaga nisbatan ta'lim faoliyati shifoxona o'qituvchisi - uzoq muddatli davolanayotgan bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan pedagogik ma'lumotga ega mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi.

Kasalxona o'qituvchisi o'z ishida oddiy maktabda qo'llaniladigan an'anaviy usullardan sezilarli darajada farq qiladigan usul va vositalardan foydalanadi. Ushbu yondashuvning asosiy o'ziga xos xususiyatlari:

1. Har bir bolaning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish zarurati, unga muvofiq har bir bola uchun individual ta'lim yo'nalishlari va individual ta'lim dasturlari ishlab chiqiladi;

2. Masofaviy o'qitish vositalari va usullariga talabning yuqori darajasi, ayniqsa aseptik izolyatsiya bo'limida davolanayotgan bolaga nisbatan ta'lim faoliyati amalga oshirilganda;

3. Kichik guruhlarda (shu jumladan turli darajadagi va yoshdagilar) yoki har bir bola bilan individual ishlash;

4. Kundalik pedagogik amaliyotda o'rganish uchun motivatsiyani saqlab qolish, aqliy faoliyatni tiklash, uzoq vaqt kasal bolaning muloqot qilish va ijtimoiylashuv qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o'yin shakllari va ijodiy vazifalardan faol foydalanish.

Kasalxona o'qituvchilari shifokorlarning bolaning sog'lig'ining hozirgi holati uning reabilitatsiya potentsiali, kasallik va davolash jarayoni bilan bog'liq kognitiv va boshqa kamchiliklari to'g'risidagi tavsiyalarini hisobga oladi va ularga qat'iy amal qiladi. Kasalxona o'qituvchilar uzoq muddat kasal bo'lib qolgan bolaning ota-onalari hamda maslahat va amaliy yordam ko'rsatuvchi psixologik yordam xizmati bilan har kuni aloqada bo'ladi.

Adaptiv jismoniy tarbiyaning asosiy tushunchalari. Adaptiv jismoniy tarbiya (AJT) - funksional, shu jumladan, harakat imkoniyatlarini mutloq yoki uzoq muddatga yo'qotgan insonlar jismoniy tarbiyasining turli jihatlarini o'rganuvchi fan. Milliy zamonaviy qonunchilikda belgilanishicha, nogiron yoki organizmning kuchli buzilishiga ega bo'lgan shaxs, ya'ni sog'liqni saqlash idoralari tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan, hayotiy faoliyatdagi va ijtimoiy yordam hamda himoya ehtiyojlaridan kelib chiqqan, cheklanishlarga olib keluvchi kasallikdan kelib chiqqan, jarohat, tug'ma yoki orttirilgan kamchiliklar davlatimiz tomonidan belgilangan tartibda himoyalanganadilar. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar "nogiron" so'zini negativ-psixologik bosimi tufayli, uning ishlatilishidan voz kyechishdi. Buning o'miga: layoqatsiz shaxs, jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan shaxs, funksional (jismoniy) cheklanishlar (buzilishlar)ga ega shaxs, maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan noodatiy shaxslar (bolalar). Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlarning ma'lumotlariga qaraganda 2-3-ming yillik jarayonida jahonning har 10-oilasi bunday inson mavjud, bu ko'rsatkich butunjahon axolisining salkam 10% ni tashkil etadi (500 mln. atrofida, ulardan 3 mln.ga yaqini bolalardir). Nogironlik sabablari - ekologik halokat, urushlar, kriminogen holatlar, irsiylik, yuqumli kasalliklar, jaroxatlar, ishlab chiqarishda hamda kundalik sharoitda orttirilgan va h.k. Nogironlik - kasallik, jarohat va tug'ma kamchiligi bo'lganligi sababli o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish, mustaqil harakatlanish, muloqotga kirishish, shaxsiy xatti-harakatlarini nazorat qilish, mehnat faoliyatini o'rganish, ya'ni umumiy yoki kasbiy mehnat qilish imkoniyatining yo'qotilishi. Mazkur atama bir vaqtning o'zida ham tibbiyot, ijtimoiy va yuridik atama sifatida ishlatiladi, negaki u insonning sog'lig'i holati va mehnat faoliyati bilan bog'liq. Nogironlik shaxsning

hayotiy faoliyatini chegaralaydigan muayyan kasallik, jarohat va tugʻma nuqsonlar oqibatida qisman yoki butunlay sogʻligʻini yoʻqotgan shaxslarning sogʻliqni saqlash organlari tomonidan tibbiy-ijtimoiy ekspertizasi natijasida aniqlanadi. Shuningdek, ular qatoriga qonunchilikka muvofiq ijtimoiy yordamga, ish haqqining yoʻqotganligi sababli kompensatsiya olishga muhtoj yoki muayyan vazifalarni bajarishdan ozod etilgan shaxslar ham kiradi. Shu bilan birga hayotiy faoliyatning chegaralanganlik darajasi, mehnat qobiliyati, nogironlik guruhi har bir nogiron shaxs uchun sogʻligʻining holatiga "qarab belgilanadi. Bu esa uning uchun organizm muayyan funksiyalarini qayta tiklashga zamin yaratuvchi mehnat faoliyatining turini va mehnat qilish sharoitini tanlash imkoniyatini beradi.

Har bir nogiron uchun individual ravishda adaptatsion-reabilitatsiya chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqiladi. Nogironlarning ijtimoiy muhofazasi bu - jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning sogʻligʻini tiklash, moddiy taʼminot, baholi qudrat kasbiy va jamiyatdagi faoliyatida mamlakatning barcha fuqarolari kabi oʻz huquq va erkinliklaridan toʻlaqonli foydalanishlarida ehtiyojlarini taʼminlashga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan hamda bu tizim amaldagi qonun asosida tashkillashtiriladi.

Nogironlar reabilitatsiyasi bu - jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar organizmining buzilgan funksiyalarini qayta tiklash, ularning hayotiy faoliyati chegaralanganligi uchun kompensatsiya bilan taʼminlash, ularning jamiyatga ijtimoiy-kasbiy moslashuvi hamda integratsiyalashuviga qaratilgan tibbiy, kasbiy va ijtimoiy chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi, Adaptiv harakat reabilitatsiya bu - muayyan kasallik, jarohat, jismoniy yoki ruhiy toliqish oqibatida qisman yoki butunlay sogʻligʻini yoʻqotgan jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarda vaqtinchalik yoʻqotilgan yoki qisman yoʻqotilgan organizm funksiyalarini qayta tiklashga (asosiy kasalliklar nogironlik bilan bogʻliq ravishda uzoq muddatga organizm funksiyalarini yoʻqotganlik kirmaydi) qaratilgan.

Mazkur chora-tadbirlar insonda u yoki bu kasallikka nisbatan mos ravishda taʼsirchanlikning shakllanishi, organizmning funksional jihatlarini tez suratlarda normallashtirishga olib keladigan oʻzini oqlagan tabiiy, ekologik vositalarga

moslashuvi maqsadida amalga oshiriladi; ulami muayyan kompleks jismoniy mashg'ulotlarni mustaqil bajara olishga, o'zini-o'zi massaj qilish usullariga, chiniqtiruvchi mashg'ulotlarga, fizioterapevtik usullar va boshqalarga o'rgatish nazarda tutiladi. Nogironlar reabilitatsiyasi va adaptatsiyasining individual dasturi - muayyan shaxs uchun maqbul va mos bo'lgan reabilitatsion chora-tadbirlarning o'tkazilish turlari, shakllari, hajmi, muddati va tartibining majmui hisoblanadi.

Defektologiya bu - jismoniy va ruhiy kamchiliklari bo'lgan shaxslar rivojlanishining psixofizik xususiyatlarini, ularni tarbiyalash, ta'lim, o'qitish qonuniyatlarini o'rganuvchi fanlar tizimidir. Defektologiya bir qator maxsus yo'nalishlarni o'zida birlashtiradi:

1. Oligofrenopedagogika - aqli zaif shaxslarni rivojlantirish tarbiyasi;
2. Surdopedagogika - kar-soqov va eshitish qobiliyati zaif shaxslar pedagogikasi;
3. Logopediya - nutqiy nuqsonlarni tuzatish;
4. Tiflopedagogika – ko'r, ko'zi ojizlar pedagogikasi;
5. Tiflosurdopedagogika - bir vaqtning o'zida ham ko'zi ojiz ham butunlay ko'r hamda kar-saqov bo'lgan shaxslarni tarbiyalash, rivojlantirish, adaptatsiya va reabilitatsiyasi jarayoni hisoblanadi.

Adaptiv jismoniy tarbiya - o'zining oldiga bosh maqsad qilib jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni nafaqat jismoniy mashg'ulotlar va fizioterapevtik usullar yordamida davolash, balki ularning ijtimoiylashuvi hisoblangan ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Ancha yangi tushunchalardan biri bo'lgan - adaptiv jismoniy reaksiya (ta'sir) uning mohiyati shunga qaratilganki, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning har qanday faoliyati davomida sarf etadigan jismoniy- kuchlarini jadallashtirish, qo'llab-quvvatlash va qayta tiklash: mehnati, ta'lim olish, sport, toliqishning oldini olish, o'z bo'sh vaqtini qiziqarli o'tkazish, sog'liqni tiklash, o'ziga nisbatan talabchanlik, "O'z ehtiyojlarini qondirish asnosida hayotiy imkoniyatlarini oshirish"ga qaratiladi. Adaptiv jismoniy reaksiya (ta'sir)ning asosiy g'oyasi shundan iboratki, unda ishtirok etayotgan shaxslarda mashg'ulotlar vositalari, uslubi va shakllarini to'liq mustaqil

tanlash asnosida ruhiy qulaylik va qiziqishni ta'minlashga qaratilgan. Nogironlar sporti yoki adaptiv sport o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi - jismoniy imkoniyatlari cheklangan insonlarda yuqori darajadagi sport ustaligi imkoniyatlarini shakllantirish va ularning aynan shu ko'rinishdagi sog'lig'ida kamchiliklar bor bo'lgan insonlar o'rtasidagi turli xildagi musobaqalarda eng yuqori natijalarga erishishida ko'maklashishdir. U o'zida uch asosiy yo'nalishlarni ifodalaydi: Paralimpiada harakatlari, Maxsus Olimpiada va Butunjahon karsoqovlar o'yinlari ("Tinch o'yinlar").

Adaptiv sportning mazmuni shundan iboratki, sport mashg'ulotlari va musobaqalarning ruhiy ta'siri nogironlar shaxsidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy o'zgarishlarni kompensatsiya qilishda yengilliklarni yaratadi; psixoemotsional mustahkamlikni, tushkunlik (stress) holatlarida ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Sport mashg'ulotlari davomidagi yuqori darajadagi jismoniy harakatlarni (nagruzka) ko'p qo'llash shaxs organizmida zaxira (rezerv) kuch va imkoniyatlarning yuzaga kelishiga, kommunikativ faollikning oshishiga zamin yaratadi. AJT jismoniy reabilitatsiyadan shunisi bilan farq qiladiki, AJTning mohiyatida turli xildagi sport o'yinlari va rekreativ tadbirlarning mavjudligi, imkoniyat darajasida sport mashg'ulotlariga ko'p ishtirokchilarning - nafaqat nogironlarni, balki sogiom insonlarni ham jalb qilishni maqsad qilib qo'yadi. Sportdan AJTning farqi shundaki, unda adaptatsion sogiomlashtirishga yo'naltirilganligi va birinchi galda turli xil jismoniy imkoniyatlarga ega boigan shaxslar o'rtasida ularni birlashtiruvchi o'zaro tushunish, hamjixatlik, bir-biriga qayg'urish, o'zaro yordam va do'stona munosabatlarni ta'minlashga qaratilgan.

8.2. Gospital pedagogikada jismoniy cheklangan ta'lim oluvchilarga ta'lim berish vositalari.

Adaptiv jismoniy tarbiya vositalari - AJTda huddi jismoniy tarbiya va sportda vositalardan foydalaniladi: jismoniy mashqlar, harakatli va sport o'yinlari, chiniqtirish vositalari, xoreografiya unsurlari. Mashqlar, tabiatni sogiamlashtiruvchi kuchlari, gigiyenik omillar vositalaridir. Ma'lumki, jismoniy tarbiya qadimdan mavjud bo'lib, inson hayoti bilan rivojlanib kelgan. Inson

jismoniy tarbiya uchun vositalarini vujudga keltirgan - bu jismoniy mashqlar, gigiyenik omillar, tabiatning soglomlashtirish kuchlari. Insonning jismoniy rivojlanishiga turli harakatlar ham ta'sir etadi mehnat, rasm solish, kiyinish, shartsiz refleks, massaj va boshqalar. Ular sog'liqni mustahkamlash, organizmni har tomonlama va garmonik rivojlantirish, hayotga zarur boigan harakat, ko'nikma va malakalarni oshirish jismoniy takomillashtirishni yuqori pogonaga ko'tarish maqsadida foydalaniladi. Lekin, faqat kompleks holda hamma jismoniy tarbiya vositalari qoilanilsa, shundagina, yuqorida ko'rsatilgan vazifalarga to'liq javob berish mumkin, chunki har bir vosita organizmga har xil ta'sir etadi. Bu vositalar, shuningdek, davolash va profilaktika maqsadlarda ham keng qoilaniladi. AJTda o'qituvchi uchun aniq mashg'ulot va aniq vositalarni tanlash eng muhim masaladir.

Vositalarni tanlashda quyidagilar xarakterlidir:

1. O'quv jarayoni vazifalari;
2. O'quvchining funksional imkoniyatlari;
3. Moddiy - texnikaviy taminot;
4. O'quvchining qiziqish darajasi;
5. O'quvchining mashg'ulotga tayyorgarlik holati, havfsizlikning zaruriy usullari.

1. Jismoniy mashqlar - mashg'ulotini tashkil etishi va muvofiqli sharoit sifatida o'tkazilishi, ya'ni muhitning tabiiy omillari jismoniy mashqlar ta'sirini kuchaytiradi.

2. Ikkinchi yo'nalish organizmni chiniqtirishga nisbatan mustaqil vosita sifatida foydalaniladi quyosh, havo vannasi, suv tadbirlari, artinish, chiniqtirish va h.k. Misol; kasalxonalarda kurortlarda va boshqa turli dam olish tashkilotlarida havo va quyosh vannalari, suv va chiniqtirish tadbirlari, artinish, chiniqtirish tadbirlari keng o'rin egallaydi. Jismoniy mashqlar mashg'ulotida, tabiatning soglomlashtirish kuchlarini to'g'ri ishlata bilish kishi organizmiga jismoniy mashqlarni ijobiy ta'sirini oshiradi.

Tabiatning sog'lomlashtirish kuchlari /quyosh, havo, suv/ bola organizmiga jismoniy mashqlarni ta'sir etish samaradorligini oshirish. Ochiq havoda, quyoshli

kunlarda jismoniy mashqlar o'tkazish vaqtida bolalarda ijobiy xissiyot vujudga keladi, ko'proq kislorod yutiladi, moddalar almashinuvi orqali, ayrim organlar va organizm tizimlarining quwatini imkoniyatlarini oshiradi. Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirish uchun, yuqori va past haroratga organizmning moslashuvini oshirish uchun foydalaniladi. Natijada issiqlik boshqaruvchi apparat mashqlanadi va inson organizmini ob-havoning keskin o'zgarishiga o'z vaqtida javob berish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunda tabiatning tabiiy omillaridan jismoniy mashqlar moslanishi chiniqish samarasini oshiradi.

Tabiatning tabiiy kuchlaridan musataqil vositalar sifatida foydalaniladi. Suv terining iflosdan tozalash uchun, undagi qontomirlarini kengaytirish va toraytirish va hokazo uchun qo'llaniladi. O'rmonlar, bog'lar, istirohat bog'lari havosi alohida moddaga ega bo'lib mikroblarni yo'qotishga, qonni kislorod bilan boyitishga yordam beradi.

Quyosh nurlari teri ostida "S" vitaminini hosil qilishga yordam beradi, insonni holatida tetik va yaxshi boiadi. Tabiatning tabiiy kuchlaridan ularni moslashtirilgan holda foydalanish muhimdir.

Gigiyenik omillar jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishda zarur sharti bo'lib hisoblanadi. Ular jismoniy mashqlarning shug'ullanuvchilar organizmiga ta'siri samaradorligini oshiradi. Xonalar, sport jihozlari, o'yinchoqlar, o'quvchilar kiyimlari va poyabzallarining tozaligi kasalliklarni oldini oladi. Gigiyenik talablarni bajarish bolalarda ijobiy emotsiya uyg'otadi hamda jismoniy mashqlarni o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Gigiyenik omillar shaxsiy va jamoat gigiyeniyasini o'z ichiga qamrab oladi.

Gigiyena omillari mustaqil ahamiyatga ega: ular barcha organ va butun tizimlarning normal ishlashiga yordam beradi, bolaning normal rivojlanish va o'sishiga ko'maklashadi. To'g'ri yoritish ko'p kasalliklarining sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, o'quvchilarning harakat qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Kundalik rejimiga qat'iy rioya qilish uyushqoqlikka, intizomlikka o'rgatadi. gigiyenik omillar - shaxsiy va jamoat gigiyenasini o'z ichiga qamrab oladi.

1. Shaxsiy gigiyena mashg'ulot tartibi, dam olish, joyining tozaligi o'quv va ovqatlanish xona gigiyenasi, maydoncha, kiyimlar, sport jihozlari va anjomlari, badan va kiyimlarning tozaligi va h.k. larning organizmga jismoniy tarbiya samaradorligini oshiradi.

Agarda jismoniy mashqlar toza, yorug' xonalarda o'tkazilsa, jismoniy harakat sifatlarining rivojlanishi va bu mashqlarni o'zlashtirish yengilroq bo'ladi, ishchanlik oshib boradi, bolalar ijobiy emotsional holatda bo'ladi. Ular sog'iqliqni yaxshilashda va kishi umrini uzaytirishda katta ahamiyatga ega.

Gigiyenik omillar mustaqil ahamiyatga ega: hamma tizim va organlarning normal holatda ishlashiga ko'maklashadi. Masalan: sifatli va muntazam ovqatlanish hamma organlarga ozuqaviy moddalarni o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlaydi, bolaning to'g'ri o'sishi va rivojlanishiga yordamlashadi, shuningdek, ovqat hazm qilish tizimi shaxsning faoliyatiga ijobiy ta'sir etib kasallanishni oldini oladi. Normal tinch uxlash asab tizimlarini ishchanligini oshiradi va dam olishga imkon yaratadi. Xonaning to'g'ri yoritilganligi ko'z kasalliklari kelib chiqishining oldini oladi va bolalarning fazo sezgirligi uchun qulay sharoit yaratadi. Bular sog'iqliqni yaxshilashda va kishi umrini uzaytirishda katta ahamiyatga ega. Sport bilan shug'ullanishda, mashq bajarish va dam olish, ovqatlanish katta ahamiyatga ega.

2. Jamoat gigiyenasi: - mashqlar bajarish joyining yorug'ligi, tozaligi, sport anjomlari bilan jihozlanish yoki xonaning gigiyenik talabiga javob berishi va h.k.

Muhitning tabiiy faktorlari va gigiyenik sharoitlar jismoniy tarbiyaning asosiy maxsus vositalari bo'lmasa ham, lekin ularning ta'siri katta ahamiyatga ega.

Jismoniy mashqlar - jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi bo'lib hisoblanadi. Agar tabiatning sog'lomlashtirish kuchlari, gigiyenik omillar orqali sog'lomlashtirish vazifalarini hal etilsa, jismoniy mashqlar esa, har bir harakat malakalariga o'rgatish, harakat sifatlarini tarbiyalash, kishini jismoniy va ruhiy rivojlantirishda asosiy vazifalarni hal etadi. Yuqoridagi ko'rsatilgan jismoniy tarbiya vositalari sog'lomlashtirish va ta'lim-tarbiya berish vazifalarini amalga

oshirishning asosiy shartidir. Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, estetik, ahloqiy vositalar qoʻllaniladi, bu esa hamma tarbiya turlarini birligini koʻrsatadi.

Jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya vositasi sifatida shugʻullanuvchilarni faol harakat faoliyatlarini tashkil etadi. Jismoniy mashqlar bajarish xususiyatlarini va yaxshi natijalarga ega boʻlish yoʻlini shugʻullanuvchilarning ongiga yetkazish kerak.

Raqslar - madaniyatning bir turi boʻlib, unda kayfiyat, his - tuygʻular va fikrni aks ettirish vositasi sifatida, harakatlar va tana holati hisoblanadi. Raqslarni shaklni vujudga keltirish vositasi boʻlib ritm hisoblanadi - u harakatlarning qonuniy tarzda ketma-ket almashinuvidir. Ritm emotsional holatni uzatadi: faollik, shiddat, ravonlik yoki osoyishtalikni taʼminlaydi. Raqs harakat shakllarining tuzilish qonuniyatlari musiqa qonunlariga asoslanib, musiqa organizm tizimlari va organlar uchun (asab, yurak qon - tomir, nafas olish) "ritmning uzatishning" tashqi vositasi hisoblanadi.

Harakatli oʻyinlar. Bu turli emotsional harakatlardan iborat murakkab faoliyatdir. Bu faoliyat belgilangan qoidalar asosida toʻsatdan oʻzgaradigan sharoit va vaziyatlarda bajariladi. Gimnastikadan farqli toʻliqroq, oʻyinlarni oʻtkazishda jismoniy yuklamalarni taqsimlash qiyin boʻladi.

Oʻyin qoidalariga rioya qilish bir-birini taqozo etadigan harakatni yuzaga keltiradi, ahloqiy fazilatlar oʻzaro yordam, ongli intizom va boshqalarni tarbiyalashga yordam beradi. Oʻyin paytida bolalarga harakat usullarini tanlashda mustaqil boʻlishlari, zehni sabotlilik koʻrsatish imkoniyati yaratiladi. Oʻyin faoliyati kompleks harakterga ega turli harakatlar uygʻunligi koʻriladi.

Milliy va harakatli oʻyinlar yuqori darajadagi sogʻimlashtirish va tarbiyaviy potensialga egadirlar. Harakatchan oʻyinlarning qoidalar ishtirokchilarning turli hildagi tezkor ravishdagi jismoniy hatti - harakatlarini belgilab beradi. Oʻyinning vaziyati doimiy tarzda oʻzgarib borib, oʻyinchining eʼtiborini jamlashi, eʼtiborning toʻgʻri taqsimlanishi va boshqasiga oʻtkazilishi, harakatlarning yaxshi muvofiqligi boʻyicha talablar qoʻyadi. Harakatli oʻyinlar mashgʻulotlari nerv tizimidagi impulsalar almashinuvi harakatchanligini meʼyorlashtirish imkonini beradi. Eʼtibor,

xotira, tashabbus, iroda sifatlarini, makon va vaqt bo'yicha mo'ljal olish idrokini rivojlantiradi, yurak qon - tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlaydi, moddalar almashinuvini faollashtiradi, harakatlanish apparatini rivojlantiradi. O'yinlar emotsional - iroda sohalarini va axloqiy sifatlarini shakllanishiga yordam beradi. O'yinlardan sogiomlashtirish maqsadlarida foydalanish o'qituvchi oldiga quyidagi masalalarni qo'yadi:

- o'quvchilar funksional imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda jismoniy kuchlanishni tartibga solish zaruratini;
- emotsional kechinmalar mosligi nazoratini amalga oshirish;
- harakat malaka va hislatlarini takomillashtirish.

Mashg'ulotda jismoniy kuchlanishni dozalashtirishda o'yinlarda jismoniy kuchlanishning umumiy darajasi hisobga olinishi kerak (kichik, o'rtacha va ser harakatchanlik). Hozirgi kunda adaptiv sportda quyidagi o'yinlar va yakkakurashlar juda ham samarali hisoblanadi.

Quloq hastaliklarida: badminton, basketbol, erkin va yunon-rim kurashi, bouling, volleybol, golf, dyuzdo, tennis, futbol, hokkey, chim ustida hokkey, shashkalar-shaxmat.

Ko'z hastaliklarida: erkin va milliy kurash, qo'l to'pi, dyuzdo, roltingbol, torbol, shashkalar, shaxmat va shaxmat kompazitsiyasi Tayanch-harakat apparati shikastlanishida: badminton, basketbol(kolyaskalarda),volleybol (o'yirgan holatda), tennis, futbol, shashkalar,shaxmat

Aqliy zaiflikda: badminton, basketbol, bouling, volieybol qo'i to'pi, golf, futbol, softbol, tennis, pol ustida hokkey, bochche, stol tennisi.

Chiniqtirish-tabiiy chiniqtirish orqali organizmga maqsadga muvofiq tarzdata'sir o'ikazish hisoblanib, uning asisiy maqsadibo'lib havo, suv harorati, atmosfera bosimi, quyosh radiatsiyasining sattriy ta'sirlariga organizmni moslashtirish mehanizmlarini shakllantirish yo'li bilan salomatlikni darajasini yuksaltirish, ahloqiy-irodaviy sifatlarinironqlik, mas'uliyatlilik. barqarorlik, chidamlilikni tarbiyalash hisoblanadi.

8.3. Gospital pedagogikaning jismoniy cheklangan ta'lim oluvchilarni tarbiyalash omillari.

Nogironlarning mashg'ulotlar jarayonini sog'lom sportchilar mashg'uloti jarayonidan farqi ta'sir etiluvchi obyekt harakatlanish imkoniyatlari ulami qo'llash sohasi chegaralangan holda organizmning turli tizimlarida turg'un defektlari bor insonlar hisoblanadi. Shuning uchun, nogironlarning sport mashg'uloti o'zining ixtisoslashgan xususiyatlariga ega.

Ularning mohiyati adaptatsion va kompensator mexanizmlarim shakllantirishning bazasi hisoblangan jismoniy holatni, sport texnikasini takomillashtirish jarayonida harakatlanish amallarini, jismoniy sifatlar va yuklamani tizimli korreksiyalash zaruratidan iborat.

Adaptiv sportning asosiy faoliyatli xususiy mashg'ulot funksiyalari (rivojlanuvchi, korreksion - kompensator, ta'lim, tarbiya, sog'lomlashtirish) vujudga keladigan xususiy mashg'ulot jarayonining xususiyatlarini qarab chiqamiz:

1. Adaptiv sport mashg'ulotlari uchun boshlang'ich shartlar quyidagilar hisoblanadi: sportchiga va tanlangan sport turidagi pedagogik ta'sirlar tizimiga bevosita taalluqli bo'lgan tibbiy ko'rsatkichlar va qarshi ko'rsatkichlar (Jilenkova V.P., Ulrix E.S., Drojjina L.A., 1007);

2. Mustaxkam motivatsiya, qiziqish va funksional yo'naluvchanlik;

3. Jarohatlanish yoki boshqa shikastlanishdan keyingi tiklanish - davolanish tadbirlari natijasida erishilgan jismoniy holatning stabilligi.

Umumiy ishlash qobiliyatining darajasini aks etadigan koordinatsion qobiliyatlar, mushak.. kuchlari, bo'shashganlik, egiluvchanlik, chidamlilik, hayotiy muhim harakatlanish malakalari va jismoniy sifatlar fondini tiklashning orientirlari hisoblanadi. Tanlangan sport turida ixtisoslashgan yo'nalishdagi jismoniy yuklamani bajarishda jismoniy ishlash qobiliyati harakatlanish sohasi sifat holatining integral ko'rsatkichlari sanaladi (Sermeev B.V., Grigorenko V.G. va b., 1991).

Sport texnikasini o'zlashtirish nogiron - sportchilarni tayyorlashning eng muhim va eng murakkab tashkil etuvchisi hisoblanadi. Uning mohiyati o'z harakatlanish qobiliyatlaridan biomexanik, fiziologik, anatomik, psixologik va boshqa qonuniyatlar asosida effektiv foydalanishdan iborat. Harakatning har qanday ko'rinishi sportchini.fazodagi siljishi bilan bog'liq.

Siljish qurilmalarisiz (suzish), qurilmalar bilan (sport o'yinlari), qurilmalarda (aravachalarda) bajarilishi mumkin. Sportchiningqurilma bilan faol o'zaro ta'sirda boiishi siljishning asosi hisoblanadi. Tayanch -harakatlanish apparati shikastlangan va ko'r — nogironlarda texnikani o'zlashtirishda ancha qiyinchiliklar vujudga keladi. Tayanch - harakatlanish apparati shikastlangan nogironlarda texnikani takomillashtirish jarayonida harakatlaming biomexanik va anatomik strukturalari (qo'lini amputatsiya qilinganda maxsus mexanizmlar va texnik moslamalardan foydalanib protezlarda, sport aravachalarida siljish) qayta shakllanadi (Duxovskoy E.A., Verxalo YU.N., 1997; Bakulev V.I. va b., 1997). Ko'rlarda esa ko'rish sensor tizimi shikastlanganligi sababli texnik tayyorgarlik qiyinchiliklari fazoda orientir olishning, harakatning tezligi va aniqligining, muvozanatning, kuchlanishni tabaqalashtirishning va boshqa koordinatsion namoyon bo'lishlaming buzilishi bilan bog'liq.

Texnikani o'rganishning uslubiy usullari harakatlarni individual korreksiya qilish va buzilgan fimksiyalami yangi harakatlanish dasturlarini tuzish hisobiga kompensatsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Texnikaning har bir (hamma) elementlari maium funksiyani bajaradilar, tashqi ko'rinish shakli va har bir sport turiga xos bo'lgan harakteristikaga (fazoviy, vaqt, dinamik, ritmik) ega.

Nogiron - sportchi yuksak natijalar ko'rsatayotgan texnikaning varianti individual texnika tarzini shakllantirish uchun eng qulay turi hisoblanadi (Dmitriev S.V., Mulin V.M., 1988). Sport texnikasini o'zlashtirish hali yuksak natijalarga erishishni kafolatlamaydi, chunki uni amalga oshirish organizmning funksional tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi. Organizmning funksional tayyorgarligi darajasi vegetativ tizimlarning (nafas olishni, qon aylanishini) va jismoniy

sifatlarning (kuchni, egiluvchanlikni, bo'shashishni, tezkor - kuchni, chidamlilikni) rivojlanishi bilan ta'minlanadi. Nogironning jismoniy tayyorgarligining xususiyatlari organizmning barcha funksiyalariga keng kompleksli ta'sir o'tkazish bilan bir qatorda patologik buzilish natijasida shikastlangan mushak guruhlarini, fiinkSIONal tizimlarni va koordinatsion qobiliyatlarni lokal korreksiya muntazam amalga oshiriladi.

Mashg'ulot jarayonida harakatlanish buzilishlarini korreksiya va kompensatsiya jismoniy yuklamadan foydalanib amalga oshiriladi. Bu yuklamada umumiy va lokal ta'sir, qo'llanayotgan mashqlarning koordinatsion murakkabligi, quvati, yo'naluvchanligi, hajmi, intensivligi, qayta ta'sirda tiklanish oraliqlari o'zgartiriladi. Adekvatlik va optimallik, asosiy tamoyillar hisoblanadi hamda ularni amalga oshirish aniq va zamonaviy pedagogik masalaning qo'yilishi, nogiron - sportchining holatini ratsional rejalashtirish va tezkor nazorat qilish bilan aniqlanadi.

Maqsadga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir jarayonida fiziologik funksiyalarni rag'batlantirish (simulyatsiya) berilgan va shifokor -pedagog nazorati doirasida amalga oshirilishi kerak. Bu mashg'ulot dasturlari sportchilarning individual imkoniyatlariga qaratilgan bo'lishi kerak va yetakchi funksiyalarning holati dinamikasi to'g'risida obyektiv ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Tabaqalashgan yondashuv asosida mashg'ulot jarayonini individuallashtirish nogironlarning mashg'ulot jarayonini muhim xususiyati hisoblanadi. Tabaqalashgan yondashuv nogiron - sportchilarni ularning patologiyasini, yoshini, jinsini, mashg'ulotlanganlik darajasini, irodaviy namoyon qilish xususiyatlarini va boshqa sifatlarini inobatga olgan holda guruhlariga birlashtirishni anglatadi. Tabaqalashgan yondashuv murabbiyga ortiqcha yuklamani oldini olish, sportchilarning qiziqishlari va motivatsiyalarini inobatga olish, muloqot tarzini, mashg'ulotning adekvat usullarini, yuklamani boshqarishning effektiv usullarini tanlash imkoniyatini beradi.

Individuallashtirish harakatlanish imkoniyatlari bir qator tibbiy, psixologik, fiziologik va pedagogik faktorlar bilan chegaralangan faqat bitta individga xos

bo'lgan xususiyatlarni inobatga olishni anglatadi. Tibbiy faktorlar qatori - bu asosiy tashxis, tibbiy istiqbollash, yo'l-yo'lakay kasalliklar, kuchlanishli mushak ishiga qarshi ko'rsatkichlar, saqlangan funksiyalarning holati, psixologik faktorlar orasida - motivatsiya, emotsional - irodaviy holat, psixik funksiyalarning (e'tiborning, qabul qilishning, xotiraning va boshqalarning) darajasi, psixologik mos tushish (kichik guruhda, jamoada) kiradi. Fiziologik faktorlarga gavda tuzilishining antropometrik ko'rsatkichlari (somatotip), harakatlanish faolligini ta'minlaydigan vegetativ tizimlarning (yurak - qon aylanishi, nafas olish) funksional holati, umumiy ishlash qobiliyatining holati va mushak faoliyatini energetik ta'minoti, harakatlanish va koordinatsion buzilishlarning (intellektual sohani buzilishi, sensor tizimni defektlari, buzilishlar birikmalari - kombinatsiyalari) xarakteri va ularning holati kiradi. Pedagogik faktorlarga quyidagi xarakteristikalar kiradi: harakatlanish funksiyasining va harakatlar koordinatsiyasining saqlanganlik darajasi, jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, o'rgananganlik darajasi va harakatlarni (sport texnikasini, taktikani) o'rganishga tayyorligi, mashg'ulotlanganlik darajasi va boshqalar.

Yuqorida zikr etilgan faktorlar to'plamini nogironlar sport mashg'ulotlariga tayyorlanishida inobatga olish pedagog - murabbiyga pedagogik dasturning strategiyasini va taktikasini shakllantirish, mashg'ulot ta'sirlarini tezkor boshqarish, sportchi holatini va sport natijasini istiqbollash imkoniyatini beradi.

Nogironning faol sport amaliyoti keng bilimlar tizimini talab qiladi va ular tayyorgarlikning barcha tomonlari, organizmga jismoniy mashqlarning ta'siri qonuniyatlari, nazorat va o'z-o'zini nazorat usullari, xususiy imkoniyatlari va qobiliyatlari to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlar asosida tuzilishi kerak, chunki sportchi - nogiron obyekt va faoliyatning subyekti hisoblanadi. Biroq, adaptiv sportning ta'lim funksiyasi faqat sportchi - nogiron o'z gavdasini, harakatlarni, o'zini tutishini, emotsiyalarni boshqarishni bekami-ko'st egallashidan emas, balki asosiysi -ushbu jarayon uning uchun butun hayoti davomida zarur talabni tashkil etadigan dunyoqarashga aylantirishdan ham iborat.

Jismoniy cheklangan ta'lim oluvchilarni tarbiyalash omillari

Insonparvarlik omili

Nogironning va funksional imkoniyatlari chegaralangan insonlarning hayotida sport o'z-o'zini takomillashtirishning, o'z-o'zini namoyon qilishning, o'z-o'zini tasdiqlashning universal shakli sifatida qatnashadi, chunki sport faoliyati butunlay o'zini-o'zi yengib o'tishiga va rivojlantirishiga qaratilgan. Uning asosida harakatlanish faolligi yotadi, bu faollik esa inson imkoniyatlarining maksimal amalga oshirishning qonuniyatlari bo'yicha amalga oshiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra sport jismoniy yoki boshqa buzilishlari bo'lgan inson o'zining intellektual, psixik, jismoniy imkoniyatlarini eng real namoyon qiladigan faoliyatning o'sha ideal modelidan iborat Agar inson yuksak natijalarga erishmasa ham, ijobiy dinamikaning o'zi bir katta yutuq, o'zi va o'z organizmi ustidan g'alaba, faol hayot uchun imkoniyatni amalga oshirilishi hisoblanadi. Sport inson faoliyatining boshqa biron bir ko'rinishi taqdim eta olmaydigan shaxsni rivojlanishi uchun imkoniyat va shart - sharoitlar yaratadi. Shu bilan birga ushbu jarayon erkinlik, mas'uliyat, shaxslararo munosabatlar, ijod, o'z-o'zini rivojlantirish singari mohiyatli - insoniy hodisalar muhitida sodir bo'ladi. Bunga mashg'ulot va musobaqa jarayonida nogiron - sportchilarni o'zlarining barcha emotsional, jismoniy va ruhiy kuchlarini safarbar qilishlarini talab qiladigan faoliyat harakterining o'zi undaydi. Natijalarning ijobiy dinamikasida (yoki jismoniy holatda) ifodalanadigan shaxsiy o'sish yutuqlari, kommunikativ aloqalarning kengayishi, jamoa bo'yicha sheriklar, murabbiylar, hakamlar, tomoshabinlar bilan shaxslararo kontaktning o'rnatilishi, muvaffaqiyatlarni tan olinishi uning hayotini moslashtiradi, o'z-o'zini baholashini kuchaytiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni qo'llab - quvvatlaydi va yanada rivojlantiradi.

Adaptiv sportning-eng muhim insonparvarlik qadriyati, ehtimol, sportchi - nogironning bunday hodisada shaxsiy talablarini qanoatlantirishidir. Kommunikativlik funksiyasi. Muloqot sport mashg'ulotlarida nogironning asosiy motivlaridan birini hamda sport faoliyatining muhim qismini tashkil qiladi. Muloqotning mazmuni juda ham keng va fikr, his-hayajonlar, iztirob chekishlar

almashishini, shuningdek o'zaro tushunishni, o'zaro ta'sirni, o'zaro boyishni anglatadi. Nutq, imo-ishoralar, gavda vaziyatlari, tovushlar, qiliqlar, pantomimikalar kommunikativ muloqotning vositalari hisoblanadi. Ushbu vositalar eshitishi va nutqi buzilgan insonlarda yorqin ifodalangan.

Sport mashg'ulotlari, odatda, individual yoki kichik guruhlarda o'tkaziladi. Sotsiologlar kichik guruhlarini shaxs va jamiyat o'rtasidagi vositachi zveno rolini bajaradi deb hisoblaydilar, hamda shu bilan birga bu kichik guruh shaxsni bevosita faoliyat va uning boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatlari maydoni hisoblanadi. Maqsadning birligi, o'xshash qiziqishlar, muloqotga bo'lgan talab va birgalikdagi faoliyatning umumiyliги nogironlarni kichik guruhlariga birlashtirishning yetakchi belgilari hisoblanadi.

Kichik guruh a'zolarining nutq va no verbal kommunikatsiyalardan foydalanib bevosita kontakti bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazish, analizator tizimlari va sezish organlari asosida mashg'ulot va muloqot jarayonini birgalikda yaratish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari guruhni jipslashtiradigan emotsional iztirob chekadigan natijali bo'ladi.

Qiziqishlarni, motivlarni, ijtimoiy jihatdan oqlangan xulq-atvor norma va qoidalarini, aniq qadr-qimmat orientatsiyalarini va ko'rsatmalarini shakllanishi, turli rolli funksiyalarni bajarish bunday faoliyatning natijasi hisoblanadi. Integrativlik funksiyasi. Integrativlik funksiyasi nogiron - sportchilarni ulkan musobaqa va qabul qilingan norma hamda tamoyillar bo'yicha ushbu jarayonni optimallashtirish vazifasi yuklatilgan ijtimoiy institutlarning ishtirokchilarini tashkiliy birlashtirish tizimida namoyon bo'ladi. Bu yerda voqeaning bevosita ishtirokchilari - sportchilar va murabbiylar, shifokorlar, hakamlar va tashkilotchilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar ham, atrofdagilar - jumalistlar, sharhlovchilar, homiylar, volonterlar, ishqibozlar bilan o'zaro munosabatlar ham katta ahamiyatga ega.

Masalan, "Speshial Olimpik" musobaqalaridagi volonterlarning soni ishtirokchilarning sonidan ikki barobar oshib ketdi. Shu bilan birga tekin xizmat qiladigan yordamchilar oldindan ariza beradilar va turli davlat va qit'alardan o'z

hisoblaridan kelidilar hamda shunday yo‘l bilan o‘zlarining yaxshi niyatlarini, rahmdilliklarini, hamdard va birdamliklarini ifodalaydilar. Integrativ funksiya yuksak yutuqlar sportida eng yorqin namoyon bo‘ladi.

Yuksak yutuqlar sportida nogironlarning sport natijalari va rekordlari jahon miqyosidagi oliy umuminsoniy yutuq sifatida qaraladi hamda hayrat va g‘amxo‘rlik uyg‘otadi. Chunki bellashuvda eshitish, ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan, tayanch - harakatlanish apparati shikastlangan (gavdani biron-bir bo‘lagi amputatsiya qilingan, paralich, bolalar serebal paralichi natijasida biron bo‘lagi yetarlicha rivojlanmagan va shu singarilar), intellekti buzilgan sportchilar, ya‘ni tibbiy reabilitatsiya bo‘lmaydigan shikastlanishi turg‘un bo‘lgan insonlar ishtirok etmoqdalar. Nogiron - sportchilarning axloqiy potensialini ulardagi qadrqimmatlar va ideallar aniqlaydi. Haqiqiy barkamollikni, o‘zaro tushunishni va dunyoda tinchlikni tashviqot qilayotgan olimpiya g‘oyasi turli mamlakatlar sportchilari uchun umuminsoniy qadriyatlarining etaloni bo‘lib qoladi. Xalqaro nogironlar sporti 130 dan ortiq mamlakatlarni birlashtiradi, 30 dan ortiq sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkaziladi va uning dasturlari muntazam kengayib bormoqda.

Tomoshaboplik omili

Musobaqalarda qatnashishning o‘zi, ayniqsa, g‘alaba ko‘pchilik insonlarning, shu jumladan, oralarida nogironlar ham ishtirok etayotgan tomoshabinlarning, faoliyati natijasi sifatida qabul qilinadi. Sport tomoshalarida qatnashishni o‘zini shaxs sifatida namoyon qiladigan ixtisoslashgan faoliyatga bo‘lgan talabni amalga oshirishning alohida ko‘rinishi sifatida qarash mumkin. Sport tomoshalari paytida nogironlar o‘zlarini sportchilardan biri bilan tenglashtirgan holda musobaqani boshdan kechiradilar, emotsional - manzarali darajada ochadilar, tasdiqlaydilar va shakllantiradilar. Ularning ko‘pchiligi keyinchalik sportga kelib qo‘shiladilar. Butun dunyoda sport hayotning ajralmas qismi bo‘lib qolgan. Millionlab odamlar harakatlar go‘zalligini, sport bellashuvi keskinligini, mahorat va kuchni, tezkorlik va yengillikni, individuallikning o‘ziga xos tarzini, gavdani komil harakatini, latofat va nazokatni ko‘rish, estetik zavq olish, birga emotsional boshdan o‘tkazish uchun musobaqalarga keladilar (yoki televizor orqali ko‘radilar).

Nogironlarning musobaqalarida tashqi ko'rinishdan ideal go'zallik yo'q. Shunday bo'lsa ham nogironlar musobaqalari o'tkaziladigan stadionlarning tribunolari doimo to'la. Aravachadagi sportchilarning bellashuvlarini, aqli zaiflarning musobaqalarini, ko'rlarning yetakchi (boshlovchi) bilan yugurishini, amputantni bitta chang'ida tepalikdan tezkor tushishini yoki amputatsiya bo'lganlarning o'tirgan holatdagi yoki bosh miyasi shikastlangan sportchilarning voleybol o'yinini doimiy shavq-zavq bilan kuzatishga tomoshabinlarni nima majbur qiladi? Balki, bu tomosha paytidagi estetik va emotsional kechinmalar qabul qilishning boshqa darajasida bo'lsa kerak. Nogiron - sportchi o'zining tirishqoqligi, matonati, kurashish va g'alaba shodligini his qilishidagi, ma'naviy va irodaviy kuchi bilan insonlar ongida hayrat va izzat vujudga keltiradilar. Har bir inson turli sabablarga ko'ra vaqtinchalik yoki doimiy nogironlik holatiga tushib qolishi mumkinligini yaxshi tushunadi va har bir inson fikran o'ziga «Men shunday qila olarmidim?» deb savol beradi. Bu nogiron - sportchiga boshqacha - barcha chegaralarga qaramay to'laqonli hayot kechirayotgan, faqat hayotga moslashibgina qolmay, balki o'zi yaratuvchi va ijodkor bo'lgan, o'mak olsa arziydigan kurashchi insonga qaragandek qarashga majbur qiladi. Nogiron - sportchilarning xulq - atvorini kuzatish jamiyatning ularga nisbatan munosabatini tubdan o'zgartiradi, ularni kamsitilgan insonlar sifatida emas, balki teng, hurmatga sazovor va ba'zi sog'-salomat odamlarga nisbatan ulkan maqsadlarni zabt etishga qodir shaxslar sifatida qabul qilishga majbur bo'ladi.

Ijtimoiylashtiruvchi omil. Adaptiv sportning ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi uni insonning mohiyatli tomonlariga chuqur hartomonlama ta'sir ko'rsatishida ifodalanadi hamda insonni ruhiy va jismoniy rivojlantiradi. Bu shaxsni shakllantirishning uzoq davom etadigan jarayonidir hamda u o'zida sport xulq - atvorining qadrdimmatlarini, normalarini, an'analarini, g'oyalarini va qoidalarini jamlaydi. Bu sportda ijtimoiy hayot individual tajribasining jamlanishidir. Sportga «Jalb qilinish» tushunchasining o'zi ijtimoiylashtirish bilan chambarchas bog'liq, chunki muloqot jarayonida insonlarning mazkur jamoasining tajribasi o'zlashtiriladi va o'rganiladi, saqlanadi va keyingi avlodga yetkaziladi.

Ijtimoiylashtirish nogironlarning sport musobaqalari tizimida ayniqsa yorqin namoyon bo'lmadi. Nogironlarning sport musobaqasini ularning ijtimoiy faolligini bir ko'rinishi sifatida qarash mumkin. Ushbu faollik jarayonida g'alaba, obro'-e'tibor, tomosha, birga boshdan o'tkazish va boshqalar singari ijtimoiy qadriyatlar yaratiladi.

Nogironlar uchun sport - bu o'zaro munosabatlar va iztirob chekish hayot uchun kurashishning alohida bir dunyosidir. Ushbu dunyo yangi obyektlarga qiziqtiradi, diqqatini jalb qiladi, ruhiy faoliyatni boshqasiga o'tkazadi, ruhiy zo'rliqlashni yo'qotadi, emotsiya va kayfiyatni ko'taradi. Boshqa tomondan, harakatlarida estetik kamchiliklari bo'lsa ham nogironlar bu faol ijodiy faoliyatda baribir o'z jismoniy sifatlarini, harakatlar tizimini o'zgartira borib, o'z individual tarzini, takrorlanmas manzarasini yarata borib, unga o'z tetikligi mosligini va ruhiy kuchini berib barkamollikka intiladilar. Bu hujjat-atvoriga, harakteriga, hayot tarziga yangi rang-baranglik beradi va u nogironga o'zining «MEN»ini (shaxsiy fikrini) yuksaltirish, o'zini jamiyatga foydali inson sifatida sezish, ya'ni jamiyatda ijtimoiylashtirish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, adaptiv sportning ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi bu asosiy sport faoliyati jarayonida shakllangan hamda o'zida insonparvarlik, kommunikativlik, integrativlik va boshqa funksiyalarni birlashtirgan ko'p sonli aloqalar to'plamidan iborat.

Nazorat uchun savollar.

1. Hospital pedagogika to'g'risida tushuncha bering.
2. Hospital pedagogikaning ta'lim oluvchilarga ta'lim berish vositalari qanday nomlanadi?
3. Hospital pedagogikaning ta'lim oluvchilarni tarbiyalash omillariga nimalar kiradi?
4. Nogironlar uchun sport deganda nima tushunasiz?
5. Ijtimoiylashtiruvchi omil degan nima?

IX BOB. OG'IR XASTALIKKA CHALINGAN BOLALARGA TASHKIL ETILADIGAN DARSNING DIDAKTIK TA'MINOTI

9.1 Dars - ta'limning asosiy shakli

Ta'lim metodlaridan oqilona foydalanib, ilmiy dars o'tish, o'quvchilarni hayotda o'z o'rnini topishga, ongning shakllanishiga katta asos bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining ma'lum fan ilmini o'quvchilar ongiga etkaza olish mahorati, shu o'quvchilarni bo'lg'usi hayot yo'llarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Oldin bayon qilganimizdek, ta'limning mohiyati inson kamolotini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq.

Metodlar - o'quvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funkciyasiga qarab tanlanadi. O'qituvchi o'zining shaxsiy sifatleri: komilligi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lishi, ta'limiy maqsad bilan tarbiyaviy maqsad mutanosibligi, fan asoslari va g'oyalarini chuqur bilishi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lishi talab qilinadi.

Bunday o'qituvchilardan bilim olayotgan talabalar nimani bilish kerak ekanligini idrok qilib beradilar. Nazariy bilimlar amaliyotga ko'chirilganda, uni aniq his qilib, tasavvur qilib o'zlari amalda bajaradilar, masalalar echadilar. (Iqtisodiy, matematik, pedagogik. So'ngra bilimlari mohiyatini tushunib oladilar. Shu mavzu bo'yicha aniq ko'nikmaga ega bo'ladilar. Shu asnod boshqa fanlardan hambilim olish va amaliy mashg'ulotlar evaziga ularda ko'nikmalari boyib boradi.

O'quvchilar o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatlariga qarab sekin-asta amaliyotga qo'llay boshlaydilar. O'quvchilar bilan bo'lgan muloqotda, ularga bilim berish jarayonida o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayoni uzviy jarayondir. Imkoniyati cheklangan shaxslarga ta'lim berish jarayonida tarbiyalayotganligimizni unutmasligimiz lozim.

Suhandonlik, kinoyasiz so'zlash, o'qituvchiga xos kiyinish etikasi, fikrni erkin bayon qilish va uni sodda tilda etkaza olish xususiyatlari o'quvchilar uchun amaliy ko'rgazma ekanligini unutmaslik kerak. Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi.

Metod - yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar)ni har qanday muammoni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- so'z orqali ifodalanadigan metod;
- ko'rgazmali metod;
- amaliy metod.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi.
- laboratoriya ishlar metodi.
- mustaqil ishlar metodi.
- muammoli evristik modellashtirish metodi.
- ilmiy tadqiqot metodlari.
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi.
- uqtirishning induktiv va diduktiv metodi.
- o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: – so'z orqali uzatish va informaciyani eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: – o'quv informaciyasini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o'quv informaciyasini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni echish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Ta'limning rag'batlantirish metodlari:

1 Ta'limga qiziqishni rag'batlantirish metodi.

2 Ta'limga burch va mas'uliyatini rag'batlantirish metodi.

Xuddi shuningdek, ta'limda nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari quyidagilar.

1 Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

2 Yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

3 Laboratoriya va amaliy nazorat va o'z –o'zini nazorat qilish metodi.

4 Test nazorati.

Bu metodlardan o'quvchilarda bilish faoliyatini, qabul qilish, anglash va amalda qo'llash faoliyatini shakllantirishda foydalaniladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi.

Ushbu tarzdagi metodni qo'llashda o'qituvchi so'z vositasida mavzuni bayon qiladi va tushuntiradi. O'quvchilar esa tinglashadi, eslab qolish, anglab etish orqali uni faol qabul qiladi va o'zlashtiradi. Mavzuning asosini tushuntirish va uqtirishda hikoya usulidan foydalaniladi. O'quv materiallari mazmunini og'zaki bayon qilish, uning asosiy joylarini tushuntirish ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun, hikoya metodini qo'llash samarali natija beradi. Bu metod orqali mavzuga xizmat qiladigan ma'lumot va voqealarni bayon qilish diqqatni faollashtiradi, xotirada saqlashni jadallashtiradi.

Hikoyani bayon qilish, uqtirish metodlarini samarali qo'llash shartlari: rejani qunt bilan o'ylash, mavzuni yoritishning oqilona izchilligini ta'minlash, misollar va hikoyalarni muvaffaqiyatli tanlash, tushuntirish va uqtirishda zaruriy emotsionallikni tanlash darkor.

Hikoya bir necha turga bo'linib, hikoya muqaddima, hikoya bayon, hikoya xulosalarga bo'linib, ular mavzuni yoritishga xizmat qiladi.

Mavzuni tushuntirishda og'zaki bayon qilish, tushuntirish yoki biror bir lavhani ko'rsatish, (illyustratsiya)ni ko'zda tutib, hikoyadan o'zininghajmi kattaligi, mantiqiy qo'yilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirish orqali mavzu maqsadiga erishiladi, hikoya qilish mavzuning maqsadini bir qismiga xizmat qiladi.

Tushuntirish va uqtirish metodi atroflicha o'ylangan fikrlar, savollar yordamida bilim berilib, u o'quvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limning muammoli-qidiruv metodlari; tizimni so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyot metodlari yordamida foydalaniladi. Ta'limni muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini qo'zg'atadigan, faollashtiradigan, ongni charxlaydigan vazifalar beradi. Talabalar mustaqil holda yoki o'qituvchining yordamida uni echish, hal qilish uchun ijodiy izlanadilar. Muammoli o'qitish yoki muammoli masalalarning echilishini talab qilish o'quvchilarning egallagan ilmiy bilimlariga hosil qilingan ko'nikmalariga asoslangan holdaizlansa yoki olingan bilimlarini xotirlasa, bemaol o'zi echa oladigan qilib tuzilish kerak. Aks holda, masala talabaning ulgurmagan bilimlariga hamasoslanib tuzilsa, u holdatalaba o'ziga ishonmay qoladi, o'zidagi bilimga shonchi yo'qoladi, har qanday ilmiy ta'lim talaba uchun muammolidir. Chunki talabaga hozirgacha noma'lum bo'lgan yangilik bilan tanishtiradi. Muammoli o'qitish talabaning fikrlash faoliyatini o'stiradi, har narsani bilishga qiziqish uyg'otadi. Fahm-farosatli, mustaqilijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Pedagogik masala:

Ota o'z o'g'lining etuklik attestatini olishi va 16 yoshga to'lishi munosabati bilan ziyofat berdi. U o'ziga va o'g'liga hamqadah to'ldirdi, o'g'lini bugungi baxtli kuni bilan tabriklab o'g'liga qadah uzatadi. Siz oila a'zolarining bu voqeaga bo'lgan munosabatlarini qaysi birini to'g'ri deb o'ylaysiz?

a) dadasi – o'g'lim muborak yoshing bilan tabriklayman, shu munosabat bilan bir qadah ko'taraylik!

b) buvisi – jon bolam, sen spirtli ichimliklarga o'g'lingni o'rgata ko'rma, hech qachon ichmasin, martabasi ulug' bo'lsin, baxtli bola bo'lsin.

v) bobosi – mayli, dadangni so'zi erda qolmasin, do'stlari oldida izza qilma, qadahni urishtirib, bir ho'plab bera qol.

g) oyisi – o‘g‘lim, dadang senga qadah uzatib, bu spirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekanligini bilish yoki bilmasligingni sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi.

Bu tarzdagi test savollari muammoli tarbiyaviy masala, o‘quvchining aqliy va axloqiy bilimini kengaytiradi. Ongini, tafakkurini charxlaydi. Insonlarga bo‘lgan muomala madaniyatini takomillashtiradi. Shunga o‘xshash masalalarni muttasil echib borgan, aqliy va axloqiy bilimlar ko‘nikmasiga ega bo‘lgan talaba komillikka erishib boradi.

Ma’naviy-ijodiy metodlar. Inson ma’naviyatining shakllanishi juda murakkab jarayon. Insonning ma’naviy sifatlarini shakllantirishda oila, atrof-muhit, jamiyat katta rol o‘ynaydi. Ota-onaning mehri, atrofda qilarning mehri, ularni olqishlari bolani mustaqil fikrlashga va mustaqilish boshlashga ishonchini uyg‘otadi.

Ustozlar, ota-onalar boladagi bu harakatni, ishonchni sezgandan boshlab, ularga sharoit yaratish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirishlari lozim. Ota-ona va ustozlar orasidagi tarbiya uzviyligi yoshlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Sen o‘zing uddalay olasan, bunga qurbing etadi, deb ishontirish va bu ishonchni “Ma’naviy-ijodiy metod” orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu metod uch bosqichda amalga oshiriladi:

a) o‘quvchilarda bilishga qiziqishni uyg‘ota bilish;

b) o‘quvchilarning egallagan bilimiga va tajribasiga asoslangan holda masala qo‘yish, hamda ularga suyanib masalalarni tahlil qilish;

v) o‘rganish kerak bo‘lgan muammo ustida mustaqil fikr yuritib xulosa olishga erishish.

Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirish jarayonida o‘quvchilar, insonning boy xazinasini uning o‘zida yashiringanligini tushunadilar. Faqat buning uchun o‘qituvchi ulardagi qiziqishni, yashiringan iqtidorini anglay bilishi kerak.

Ilm olish, odatiylik, aqlni peshlash, o‘z ustida ishlash, hikmatlarni bilish, kamtarlik, ma’rifatli bo‘lish kabi fazilatlariga faqat mehnat qilish va bilim olish, o‘qib-o‘rganish, hayotni kuzatish orqali erishish mumkin.

O'quv ma'ruza metodi: o'quv materialini og'zaki bayon qilishni ko'zda tutadi, hikoya metodidan o'zining hajmi kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza butun dars yoki mashg'ulotni band etadi. Hikoya esa faqatgina uning bir qismini egallaydi.

Ma'ruza davomida informatsiyani og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarni fikrlarini faollashtirish usullari, argumentlash, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqalardan foydalaniladi.

Suhbat metodi: Og'zaki bayon qilishning asosiy turlaridan biri. Tarkibida eng ko'p qo'llaniladigan samarali usullardan biridir. Ko'pincha bu usul savol-javob usuli ham deb yuritiladi.

Dars berish jarayonida o'tilayotgan mavzu yuzasidan kirish asosiy va yakunlovchi qismlarda suhbat, savol-javob metodi qo'llaniladi. Suhbat metodida atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchini faktlar tizimini yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari: ular shartli ravishda ikkiga bo'linadi.

1 Illyustratsiya metodi: – plakat, xarita, doskadagi rasm, olimlarning portretlari, suratlar va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutadi.

9. 2 Namoyish qilish metodi – asboblari, tajribalar, texnik qurilmalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq.

Namoyish qilish metodiga bog'liq kinofil'mlar va diafil'mlar hamkiradi.

Ta'limning amaliy metodlari: yozma mashqlar, ona tili va chet tili, matematika va boshqa fanlar bo'yicha topshiriqlarni bajarish mashqlari kiradi. Xuddi shuningdek, laboratoriya tajribalari, ustaxonalarda, o'quv-ishlab chiqarish cexlari, o'quvchilar brigadalarida mehnat topshiriqlarini bajarishlari ham ta'limning amaliy metodidir.

Ta'lim vositalari: ta'lim maqsadini amalga oshirish yo'lida xizmat qildirayotgan metodlarni muvaffaqiyatli chiqishida ishlatiladigan o'quv

asboblardir. Ular issiqlik sig'imini o'lchash asbobi, komp'yuterlar, AKT, logorifm lineykasi, apparat turlari, turli xil o'quv asboblardan tashkil topadi.

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda, umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarqalgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos holdapaydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlari odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarsi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.

Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ta'lim tizimi mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi, bolalarni guruh-guruh qilib, to'plab o'qitishni taqozo qilgan hamda ta'lim bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, o'qituvchi tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqargan.

Shu davrga kelib o'qitishning maxsus tashkiliy shakllari paydo bo'la boshlaydi. Buning natijasida sinf-dars tizimi paydo bo'la boshlaydi. Xalq orasida hayotiy tajribaga, bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar murabbiy, o'qituvchi bōlibfaoliyat ko'rsatdi.

Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Forobiyning "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan.

Pedagogika tarixida, ta'lim tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblangan. Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) xizmatlari katta, uni sinf-dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

Y.A.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida, o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil qilish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishini, guruhlardagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini

to'plash, materialni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Sinf deganda, yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Dars – aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari (o'quv reja, dastur, darslik va qo'llanma) asosida belgilanadi. Dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

1. Harbir sinfda o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishi lozim.
2. Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishi kerak.
3. Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

4. Dars, o'quv fanining xarakteri, o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalarda olib boriladi va ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Shuni unutmash kerakki, o'quv yurtlarida ta'lim ishlari faqatsinf-dars shaklida olib borilmasdan, balki amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari shaklida hamolib boriladi. Bu mashg'ulotlar sinfdan va maktabdan tashqarida fakul'tativ mashg'ulotlar, to'garaklar, ekskursiyalar shaklida olib boriladi.

Dars – ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustahkam o'zlashtirilishi, o'quvchi-talabaning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holdatashkil etilishi dars oldiga qator didaktik talablarni qo'yadi. Jumladan:

1 Harbir dars aniq maqsadni ko'zlagan holdapuxta rejalashtirilmog'i lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limi va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, qanday tamomlash ko'rgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

2 Harbir dars aniq g'oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog'i lozim.

3 Harbir dars maktabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanmog'i, ko'rsatmali vositalar bilan jihozlanmog'i lozim.

4 Harbir dars xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.

5 Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

6 Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bo'lishi lozim, o'quvchi talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi lozim.

7 Mashg'ulotlar butun sinf bilan va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda olib borilish kerak.

8 Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan, ma'naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

9 O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil yurtimizdagi o'zgarishlardan o'quvchi talabalarni xabardor qilish.

10 Darsda Prezidentimiz I. Karimovning ta'lim sohasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarimizga, farzandlarimizga qarata aytgan murojaatlaridan o'z o'rnida foydalanish.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida dars turlari va ularning tuzilishiga hamalohida muammo sifatida qaraladi va o'rganiladi.

Dars bilim, ko'nikma va malakalar bilan o'quvchilarni qurollantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Shu sababli o'quv mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtning asosiy qismi dars o'tish uchun sarflanadi.

Ta'lim tizimida tajribadan o'tgan dars turlari quyidagilardan iborat:

1 Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

2 O'quv materiallarini mustahkamlash.

3 Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darslari.

4 O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishi va baholash darslari.

5 Dars turlari, uyg'unlashgan darslar.

Ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan dars yangi bilimlarni bayon qilishi darsidir.

Bu darsning tuzilishi quyidagicha :

- 1 Darsni tashkil qilish.
- 2 Yangi bilimlarni bayon qilish.
- 3 Yangi bilimlarni mustahkamlash.
- 4 Yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish.
- 5 Yangi bilimlarga bog'liq uy mashg'ulotlari berish.
- 6 Darsni yakunlash.

Dars turlarining o'zgarishi bilan darsning tuzilishida ham o'zgarishlar bo'ladi. Masalan, dars turlari uyg'unlashgan darslarida darsning hamma elementlari mavjuddir:

- 1 Darsni tashkil qilish.
- 2 Uy topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish va baholash.
- 3 Yangi mavzuni bayon qilish.
- 4 Yangi mavzuni mustahkamlash.
- 5 Uy topshiriqlari berish.
- 6 Darsni yakunlash.

Ta'lim tizimida, takrorlash va bilimlarni mustahkamlash darslari ham ko'p qo'llaniladi.

O'qituvchi dasturning ma'lum bir qismi, yirik mavzular o'tib bo'lingandan so'ng bunday darslar uyushtiriladi.

Bu dars bilimlarni oraliq nazorat orqali baholashda ham xizmat qiladi.

Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilishga bog'liqdir.

Bu davrda sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish, bolalarni darsni tinglashga ruhiy jihatdan tayyor ekanliklarini o'rganish darkor. Shundan so'ng, mahoratli pedagog fursatni qo'ldan bermay, shogirdlari diqqatni chalg'itmay, darsning asosiy qismini boshlab yuboradilar, chunki sinf o'quvchilarini tezlik bilan

mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash lozim. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bōlisa, dars mavzusi e'lon qilinadi. Rejada mo'ljallangan o'quv materiali o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak.

Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi. Nutq madaniyati rivojlanadi.

Muammoli vaziyat izlanishlar orqali o'z yo'lini topa oladilar.

O'quv mashg'ulotlarining sinfdagi shakli darsdan tashqari yana qo'shimcha qator ta'lim shakllari mavjud, bo'lib, bular amaliy-tajriba mashg'ulotlar, qo'shimcha darslar, fakul'tativlar, ekskursiya kabilardir.

Bular darsda berilgan bilimlarni to'ldirish, mustahkamlash, amaliyot bilan bog'lash uchun uyushtirilgan qo'shimcha mashg'ulotlardir.

Bulardan tashqari o'quv yurtlari tajribasida fan to'garaklari, ishlab chiqarish amaliyoti, o'yin shaklidagi mashg'ulotlardan hamfoydalanmoqda.

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud.

Jumladan: ikki bosqichli oliy ta'lim tizimida o'ziga xos ta'lim shakllari mavjud, bularga ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlar, kafedra o'qituvchilarining ochiq ma'ruzalarida qatnashish, ma'ruza matnini tayyorlash va muhokama qilish, o'quv kurslari bo'yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilar oliy ta'limning ko'p qirrali yo'nalishlari va shakllaridir.

Oliy ta'lim tizimida ma'ruza o'quv jarayonining hamusuli, hamshakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma'ruza tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o'ylashga majbur etadi. Shu sababli ma'ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos maktabiga aylanadi.

Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqod, g'oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'qituvchi har bir ma'ruzaning mazmunini fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim.

Ma'ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida hamta'limiy, hamtarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llardan biri –o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida do'stona, faol munosabatlarni tiklab olinishdan iborat.

Bundan tashqari dars va ma'ruzaning samarali natijasi o'quvchi va talabalarning o'quv jarayondagi ruhiy holatlarini qay darajada hisobga olinishiga ham bog'liq. Shunday ekan, ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshqa shakllaridan o'qitish jarayonida o'rinli foydalanishlari uchun shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagoglik madaniyati, o'z predmetini puxta bilishligi va o'quvchi talabalar bilan umumiy til topa olishligi g'oyat katta ahamiyatga egadir.

9. 3. Bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.

Kichik maktab yoshida bolalar didaktik o'yinlarni (syujetli, predmetli, musoboqali) rohatlanib o'ynashadi. Ularda faoliyatning quyidagi elementlari mavjud: o'yinli masala, o'yinli motivlar, masalalarni o'quv faoliyati bilan bog'liq yechimlari.

Natijada o'quvchilar o'yin mazmuniga ko'ra yangi bilimlarga ega bo'lishadi. O'quv-biluv masalalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'yilishidan farq qilgan holda, didaktik o'yinda u bolaning o'zini o'yinli masalasi sifatida namoyon bo'ladi. Uni yechish usullari esa o'quv-biluv faoliyatiga tegishli hisoblanadi.

Eng yaxshi didaktik o'yinlar mustaqil ta'lim olish prinsipida tuzilgan, ya'ni, shunday tuzilganki, ularning o'zi o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga qarab yo'naltiradi. Ma'lumki, ta'lim olish ikkita komponentni o'zida jamlaydi: kerakli ma'lumotni to'plash va to'g'ri yechimni qabul qilish. Bu komponentlar o'quvchilarda didaktik tajribani ta'minlaydi. Lekin, tajribaga ega bo'lish ko'p vaqtni talab qiladi.

O'quvchilarda "bunday tajribaga ega bo'lish"ni ko'paytirish, ularni mustaqil ravishda bu ko'nikmalarga ega bo'lish mashqlariga o'rgatishdan iboratdir. Bunga

psixologik tavsifdagi rivojlantiruvchi o'yinlarni kiritish mumkin: krossvordlar, viktorinalar, boshqotirmalar, rebuslar, kriptogrammalar va boshqalar.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda predmetga nisbatan qiziqishni uyg'otadi, har bir o'quvchini individual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi, bilish faolligini tarbiyalaydi. Didaktik o'yinning muhimligi, u bolalar tomonidan qanday reaksiya qilinishi bilan emas, balki u yoki bu masalani yechish har bir o'quvchi uchun tadbiiq qilinishining samaraliligi bilan aniqlanadi. Didaktik o'yinlarning natijaviyligi, birinchidan, ulardan tizimli ravishda foydalanishga, ikkinchidan, o'yinlar dasturining oddiy didaktik mashqlar bilan birgalikda maqsad sari yo'naltirilganligiga bog'liq.

Masalan, bilish faolligini rivojlantirish muammosini hal etishda, o'quvchining mustaqil tafakkurini rivojlantirish asosiy masala deb hisoblanishi zarur.

O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun oz bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi. O'yin qoidasi O'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'quvchilar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. o'yinda ma'lum bir maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishishi o'quvchilarda ma'naviy va aqliy qoniqlik hissinini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hamma vaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi. Didaktik o'yinlarni hamma tarkibiy komponentlari o'zaro bog'liq bo'lib ulardan birortasining bo'lmasligi mumkin emas.

Xalq pedagogikasida shakllanib kelgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda didaktik o'yinlardan keng foydalanish an'analari, o'qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlantirildi. Bolalar tarbiyasida didaktik o'yinlardan ikki yo'nalishda "barkamol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda foydalaniladi.

Didaktik o'yinda bola yaxshi xulqiy sifatlarga ega bo'ladi. O'yinda qatnashish jarayonida u bola tez javob topish, yashirish, izlash, yugurish, ta'svirlash boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi. O'yinning birinchi bosqichida pedagog bolani o'yinga qiziqtiradi, ularda xush kayfiyat, yangi o'yinlarni kutishga ishtiyoq uyg'otadi. Ikkinchi bosqichida esa u o'yinni kuzatuvchi emas, balki qatnashchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi, o'yin davomida bolalarga tez yordamga keladi, bolalarning faoliyatiga to'g'ri baho beradi. O'yinning uchinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilarni o'yin davomidagi ijodkorligi va faolligiga baho beradi.

O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'quvchilar xulqi, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. O'qituvchilar zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib darslarni ilg'or pedagogik hamda didaktik o'yinlardan foydalanish jarayonida ta'lim-tarbiya oshadi.

Didaktik o'yinlarga "Do'koncha", "Nimani taqillatdim", "Mehmonchilik", "O'ringni top", "Kim tezroq", "So'zdan so'z toping", "Farqini top", "Jimjitlik", "Zanjircha", "Doiraviy misollar" singari o'yinlarda bolalar tevarak-atrof hayotni, narsalarning sifatini, og'irlik o'lchovi, narx- navolar va boshqalarni bilib oladilar, uarda fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi.

Didaktik o'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga aylanadi. Bu hol o'quvchilarning yotsirash hollariga ham barham beradi.

"Do'kocha" tipidagi o'yinni misol qilsak, o'quv qurollari sotib olish va bir necha o'quv qurollari narxini hisoblab chiqishiga, necha pul "qaytarib" berish kerakligi haqida o'ylab ko'rishga ham to'g'ri keladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy etishga yordam beradi.

"Bo'sh kelma", "Eng yaxshi hisobchi", "Ko'rganini eslab qolish diktanti" singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jim bo'lishga, o'zlarini tuta bilishlariga, sinf xonasida odob saqlash, hurmat kabi odobga ega

bo'ladilar. Didaktik o'yinlar o'zining tashkil etish shakllariga ko'ra: individual (yakka), guruhli va yalpi (butun sinf o'quvchilari ishtirokida bo'ladi).

Demak, kichik maktab yoshida o'yinlardan bolalarning o'quv va mehnat faoliyatini yengillashtiruvchi va tashkil etuvchi vosita sifatida foydalanish mumkin.

Ta'lim jarayonida o'yin elementlari o'quvchilarda ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirib, ularning faolligini oshiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, o'yin tavsifiga ega, mehnatga taalluqli topshiriqlarni qiziqish bilan bajaradilar. O'yin faoliyati bolalar hayotining barcha tomonlarini shakllantirishda, masalaning qo'yilishida va harakatlanish usullarini tanlashda yordam beradi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, darslarda o'quvchilar yoshiga tabiatiga mos bo'lgan didaktik o'yinlar dars jarayonining samarali chiqishi uchun xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Dars va uning turlari haqida tushuncha bering.
2. Darsni tashkil qilish va uning bosqichlari.
3. Ta'lim-tarbiyani takomillashtirishning yana qanday tashkiliy shakllarini bilasiz?
4. Metod srzining manosini tushuntirib bering?
5. So'z orqali ifodalanuvchi metodlar?
6. Ta'limning amaliy metodlari.

X BOB. GOSPITAL PEDAGOGIKAGA JALB ETILUVCHI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KREATIV YONDASHISH

10.1. Bolalar nutqida nuqsonlarning kelib chiqish sabablari.

1. Bolalar nutqida nuqsonlarning kelib chiqish sabablari. Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 23-sentyabrda ma'qullangan Ta'lim to'g'risida Qonuning I-bobi 3-moddasidan

- davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

- tarbiya - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

- ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning II-bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi [1].

Bolaning ilk rivojlanish davridan boshlab va xomiladorlik davridan onaga g'amxo'rlik qilish keyinchalik bolalarda uchrab turadigan nutq kamchiliklarini oldini olishga imkon beradi. Bola nutqidagi kamchiliklar o'zgalar nutqini tushinishdagi qiyinchilik ularni atrofdagilar bilan muloqatda bo'lishi o'z

tengqurlariga qo'shilib ketishini qiyinlashtiradi. Nutq tafakkur ko'ra olish bo'lganligi sababli bola ulg'aygan sari atrof muxitdagi tasavvurlari shakillanadi va uni aks ettirish so'z lug'ati orqali takomillashib boradi. Nutqning rivojlanishda ta'lim-tarbiya ijtimoiy hamda biologik omillarning ta'siri ham kattadir. Buyuk mutaffakirlarimiz Yusuf Xos Hojib odob, axloq ta'limtarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini qomusiy asari -Qutadg'u-blighl asarida bilim zakovat soxibi bo'lishining asosiy kalitini til bayon qiladi. Til tufayli kishi o'z bilimi, aql idrokini, zakovotini til, so'z orqali bildiradi degan fikrlarini uqtiradilar [2].

Nutq faqat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir birlariga ta'sir etadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi. Til - bu fonetik, leksik va grammatik vositalar sistemasidir. Gapiruvchi o'z fikrini bayon etish uchun zarur bo'lgan so'zlarni tanlaydi, ularni til grammatikasi qoidalariga asoslanib bog'laydi va nutq a'zolari artikulyatsiyasi orqali talaffuz etadi.

Odam nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq a'zolarining xarakatlari aniq va to'g'ri bo'lishi kerak.

Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoyillariga ta'rif bergan dastlabki tadqiqotchilardan biri R.YE.Levina hisoblanadi. Bundan oldin ham ko'pchilik olimlar nutq buzilishlari, ulaming kelib chiqish sabablarini, bartaraf etish hamda fiqomulohazalar bildirganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa tibbiyotining nutq buzilishlarini o'rganish borasida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarining katta ta'siri bo'lib, A.Kusmaul nutq buzilishlarining dastlabki turlari haqidagi yig'ilgan tasavvurlarini tanqid ostiga oldi; ularni sistemalashtirdi, atamalarni tartibga keltirdi.

XX asr boshida chet ellik va rus tadqiqotchilari V.Oltushevskiy, G.Gutsman,(5) E.Freshels, S.M.Dobrogayevlarning ishlarida asos qilib olindi. Buning umumiy tomoni ko'p edi; etlopotogeneztik mezon bilan to'ldirilgan klinik yondashuv, buzilishlarning alohida turlari bilan kasallikning u yoki bu patalogik shakli o'rtasidagi bog'lanish, bunday xollarda nutq buzilishlari ko'pincha u yoki bu kasallikning alomati sifatida talqin qilinar edi, shuningdek, tasnif tili bunda lotin va

grekcha soʻz yasovchi elementlaridan tashkil topgan atamalardan qoʻllanilgan. Tasniflar oʻrtasida buzilishlarni guruhlashning turli prinsiplari, shuningdek, u yoki bu mezonni tasniflashning muhimlik darajasiga boʻlgan qarashlaridagi ayrim qarama-qarshiliklar bilan bogʻliq nomutanosibliklar ham kuzatiladi [3].

Mutaxassislar nutqning oʻz vaqtida rivojlanmasligi yoki keskin sekinlashuvining sabablari juda koʻp ekanligini aniqlashgan:

- homiladorlik davri (perinatal davri);
- tugʻruq davri (natal davri);
- tugʻruqdan keyingi davr (postnatal davr).

Homiladorlik davrida turli xil kasalliklarni boshdan kechirish, turli xil infeksiyalar, intoksikatsiya, homila toksikozi, gepoksiya yoki kislorod yoʻqotish, qon bosimining oshishi, homilador ayol va homila qon guruhining mos kelmasligi. Homiladorlik paytida sigaret, alkogol va giyohvandlik moddalarini isteʼmol qilish, oʻz-oʻzini davolash, yaʼni ayrim dori-darmonlarni qabul qilish. Homiladorning homila uchun xavfli boʻlgan joylarda ishlashi (radiatsiya).

Tugʻruq davrida akusherlik patologiyalari yaʼni, tos suyagining kichkinaligi, homilaning kindik oʻqiga oʻralishi. Tugʻruqdan oldin suv ketishi, homilaning notoʻgʻri joylashishi, tugʻruq jarayonida bosh miyaning jarohatlanishi, tugʻruq jarayonidagi asfiksiya natijasida bolaning koʻkarib tugʻilishi.

Tugʻruqdan keyingi davr - 1 yoshdan 3 yoshgacha boʻlgan davrda bosh miyadan turli xil jarohatlarni olish, bosh miyadagi infeksiyalar, turli xil yuqumli kasalliklar sababli yuzaga keladi.

Nutq nuqsonlarini tasniflashda birinchi navbatda bolaning ruhiy, aqliy va eshitish idroki tekshirib olinadi. Nutq nuqsonlari ogʻir-yengilligiga qarab guruhlarga ajratiladi.

1. Dislaliya - bu artikulyatsion apparat aʼzolari normal innervatsiyasida yuzaga kelgan logopatsiya boʻlib, asosan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va baʼzan fonematik idrok rivojlanmaganligi bilan namoyon boʻladigan yengil nutq nuqsoni.

2. Dizartriya - bu artikulyatsion apparat a'zolari innervatsiyasining organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, juft neyronlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Falajlanish asosan bir tarafdin, chap yoki o'ng tarafdin bo'ladi. Bola tili asosan paretik falajlangan bo'shashgan yoki spastik, ya'ni tarang falajlanishda bo'ladi.

3. Alaliya - bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, bu tashxis eshitishi va zakovati me'yorda bo'lgan shaxslarga qo'yiladi.

Alaliya nutqning 3ta komponenti rivojlanmaganligi bilan namoyon bo'ladi.

1. Afaziya- bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida shakllangan nutqning yo'qolishi. Bolalar afaziyasi tajribada kam uchraydi. Afaziya asosan insultdan keyin uchraydi. Bolalarda esa miya infeksiyalari, miya rivojlanishi davrida turli xil kuchli travmalar natijasida yuzaga keladi.

2. Rinolaliya - bu artikulyatsion apparat a'zolarida tug'ma yoki orttirilgan nuqsonlarning bo'lishi yoki artikulyatsion apparat a'zolarida burun, burun halqum sohasida falajlanishlarning kuzatilishi, burun suyagining qiyshayishi, burun sohasidagi turli xil o'simtalar, odenoidlar, poliplar bo'lishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsonlari hisoblanadi.

3. Duduqlanish - bu og'zaki nutq jarayonida artikulyatsion apparat a'zolari muskullarining tortishishi sababli og'zaki nutqning tempritmik o'zgarishi natijasida yuzaga keladi.

Duduqlanish kelib chiqishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Nevrotik duduqlanish (logonevroz) bolaning kuchli ruhiy kechinmalari, stress, depressiya, qo'rquv, haddan tashqari qattiqqo'llik, chapaqaylikdan o'ng qo'lga o'rgatish, oiladagi ikki tillilik, duduqlanuvchiga taqlid qilish natijasida.

2. Nevrozsimon duduqlanish - bu bosh miyaning organik jarohatlanishi, bosh miyadagi turli xil o'simtalar, dizartriya, tayanch harakat a'zolari kasalliklari, DSP natijasida.

Duduqlanish o'z vaqtida bartaraf etilmasa bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bola o'z fikrini mustaqil bayon eta olmasligi natijasida tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olmaydi.

Nutq nuqsonlari quyidagi mezonlar asosida tekshiriladi:

1. Gugulash davri (3 oylikdan);
2. 1 yosh 6 oylikda 10-15 ta so'z;
3. 2 yoshda 300 ta so'z;
4. 3 yoshda 1000 ta so'z;
5. 6-7 yoshga kelib 4000 dan 5000 gacha so'z lug'at boyligida bo'lishi lozim.

Nutq nuqsonlarini bartaraf etish yo'llari:

1. Artikulsiya, nafas, mayda qo'l muskullarini rivojlantiruvchi mashqlar;
2. Logomassaj (nuqtali, bo'shashtiruvchi, tetiklashtiruvchi massaj);
3. Muammoli tovushni nutqqa qo'yish (taqlid va mexanik usulida);
4. Nutqni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar [4].

Xulosa qilib aytganda bu nuqson qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining muvozanati buzilishlaridan kelib chiqadi. Logoped tavsiyalarida bolaning nutqi kechikayotganini yoki tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilayotganini, duduqlanayotganini sezganingiz zahoti mutaxassislariga murojaat qilishingiz lozim. Qancha erta murojaat qilsangiz, nutq nuqsonlari shuncha samarali bartaraf etiladi.

10.2. Bolalardagi nutq kamchiliklarini tekshirish va aniqlashning sistemali usullari.

Maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari oldiga muhim vazifani-bolalarni maktabda o'qishga psixologik jihatdan tayyorlash, ya'ni boshlang'ich sinflarda muvaffaqiyatli o'qish, boshlang'ich maktabning dasturni to'la o'zlashtirib olish uchun zarur bo'lgan ruhiy sifatlar, bilim, ko'nikma va malakalari tarkib toptirish vazifasini qo'yadi. Bolaning aqliy rivojlanishida og'zaki nutqning vujudga kelishi katta ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolaning so'z boyligini aniqlaydi, boyitib boradi va faollashtiradi, bolalarni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatadi, og'zaki nutqning turli shakllarigi – monolog (aytib berish, qayta hikoya qilib berish) va

dialogga (soʻzlashuv yoki savol – javob nutqiga), soʻzlarni grammatik jihatdan toʻgʻri oʻzlashtirish va toʻgʻri tuzishga oʻrgatadi. Bolalar bogʻchasida ham, maktabda ham olib boriladigan tillar taʼlim standartlari, dasturida koʻrsatilgan bilim va malakalarni hosil qilish, shaxsning baʼzi bir xususiyatlarini, hulq-atvorini tarbiyalashga qaratilgan. Dastur talablarini toʻlaqonli bajarish uchun tarbiyachi va oʻqituvchilar oʻz tarbiyalanuvchilarining barcha xususiyatlarini, ayniqsa, nutqiy rivojlanishini har tomonlama tekshirib, kamchiliklarini aniqlashlari, bularni bartaraf etish yoki bolani tegishli mutaxassislarga, ular esa tegishli muassasalarga yuborishlari talab etiladi. Logopedik tekshirishlar taʼlim-tarbiya usullari va prinsiplari asosida olib boriladi va bunda bola har tomonlama tekshirib koʻriladi. Logopedik tekshirishlar ikki shaklda olib boriladi: induvidual va frontal tekshirishlar. Induvidual tekshirishlar oʻquv yilining boshida tarbiyachi yoki oʻqituvchining har bir bolani kamida ikki hafta davomida kuzatib borishidan iborat boʻladi. Frontal tekshirish vaqtida bolalar bogʻcha gruppasi yoki sinfda sheʼr, hikoya aytib beradilar, savollarga javob qaytaradilar yoki rasmga qarab hikoya tuzadilar. Bu vaqtda bolalar nutqining umumiy holati, artikulyasiyasi, nutq surʼati, tovushlar talaffuzi, ovoz kuchi, sifati kuzatib borilib, ular nutqidagi kamchiliklar aniqlanadi. Shundan soʻng nutqida kamchiligi boʻlgan bolalar alohida roʻyxatga olinadi, gruppaning nutq kartasi tuziladi. Nutqida kamchiligi boʻlgan har bir bola uchun induvidual nutq kartasi toʻldiriladi. Nutq kamchiligiga ega bolani har tomonlama tekshirish, uning (tugʻuruqqacha, tugʻuruq vaqtidagi va tugʻuruqdan keyingi davri toʻgʻrisidagi, shaxsining rivojlanishi haqidagi zarur maʼlumotlarni bilish zarur.

Tekshirishning asosiy bosqichida logoped bola haqidagi anamnez maʼlumotlarini aniqlash maqsadida ota-onalar bilan suhbat oʻtkazadi. Ota-onalar bilan suhbatda logoped oilada boʻlib utgan alohida ahamiyatga ega hodisalarni va shunga bogʻliq holda bolalarning umumiy nutq tarakkiyotining oʻziga xos tomonlarini aniqlaydi.

Bolaning tug‘uruqqacha, tug‘uruq vaqti va tug‘uruqdan keyingi davrlardagi rivojlanishining o‘ziga xos tomonlari aniqlandi. Bu quyidagi taxminiy tartib asosida olib boriladi:

a) tug‘uruqqacha bo‘lgan davr.

Ona bilan suhbatda logoped ba’zi nasliy omillarni belgilaydi: ota-onalarning bola tug‘ilgunga qadar salomatligining axvoli, ularda asab-ruhiy, teri-tanosil kasalliklari, nutqiy patologiya bo‘lganmi, ota-onadan biri alkogolizm, yuqumli va boshqa kasalliklarga uchraganmi?

Shuningdek, bolaning tug‘uruqqacha bo‘lgan rivojlanishiga oid quyidagi asosiy jihatlar aniqlanadi?

- onaning bola tug‘ilayotgan vaqtdagi yoshi;

- onaning homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida boshdan kechirgan kasalliklari (Qizilcha, gripp, toksoplazmoz, kandli diabet, jigar, buyrak kasalliklari, angina, anemiya);

- homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida shikastlanishlar, qorin yuzasida lat eyishlar, yurak-tomir kasalliklari, toksikozlar, bolaning tushish xavfi bo‘lganmi?;

- homiladorlik davrida dorilar bilan davolanganmi yoki yo‘qmi?;

- homioadorlik davrida rentgenologik tekshiruvdan o‘tganmi yoki qandaydir radioaktiv nurlanish bo‘lganmi va boshqalar.

Homilddorlik davridagi noqulay omillarni aniqlash logopedga bu omillarni bolaning keyingi nutqiy taraqqiyotiga bevosita ta’sirini aniqlashda yordam beradi.

b) tug‘uruq davri.

Logoped ona bilan suhbatda tug‘uruq o‘tishining tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi: tug‘uruqning boshlanishi vaqti – o‘z vaqtida, homiladorlikning 8 - oyida, 7 - oyida suvning barvaqt ketishi bo‘lganmi, tug‘uruqning uzoq davom etishi, qisqichlarning qo‘llanishi, vakuum-ekstraktorning qo‘llanishi, tug‘uruq faoliyatining muvofiq ta’minlovchi dorilar qo‘llash, homilani qo‘l bilan yoki kessar operatsiyani qo‘llab ajratib olish.

Bu suhbatda bolaning tug‘ilgan paytidagi holati aniqlanishi zarur: darrov yig‘laganmi yoki yo‘qmi, ko‘k, oq asfiksiya, og‘irligi (1500 kg dan ko‘p yoki kam), bo‘yi, turli shikastlar, sinishlar, qon quyilishi, tug‘uruq shishi, boshqa jaroxatlanishlar bo‘lganmi?;

v) tug‘uruqdan keyingi davr.

Bolaning tug‘ilgandan keyingi davrdagi somatik rivojlanishi haqidagi ma’lumotlarni logoped ona bilan olib boriladigan suhbat jarayonida aniqlaydi:

- bolani onaga tug‘ilgandan keyin necha soat o‘tgach olib kelingan, bola ko‘krakni qanday olgan va emgan (faol, faol emas, tezda charchab uxlashi);

- bola uyg‘oq vaqtida o‘zini qanday tutar edi: tinch yoki notinch, baqirok, yig‘loq va boshqalar;

- hayotining birinchi yilida - 3 yoshgacha; pnevmoniya: ko‘k yo‘tal, dispepsiya, dizentriya kasalliklari bilan og‘riganmi?

Shuningdek, bolada qandaydir tug‘ma kasalliklar bor yoki yo‘qligi aniqlanadi - yurak porogi, maymoqlik va bosh jaroxatlanishi bo‘lganmi?

A.R.Luriya ichki nutqni tekshirishda uning tashqi tomon bilan o‘zaro bog‘liqligini e’tiborga olish kerakligini ta’kidlaydi. A.R.Luriya shu bilan tushuntiriladiki, nutqni eshitishning buzilishi nutq artikulyasiyalari va tashqi nutqning ikkilamchi buzilishiga olib keladi. Artikulyator jarayonlar va ichki nutqning buzilishi nutq tovushlarini idrok qilish va nutq mazmunini tushunish kabi jarayonlarga ta’sir qiladi. Bundan ilgari ichki nutqning murakkabligi haqida L.S.Vigotskiy ham yozgan edi. Uning fikricha, nutqni tushunish - tovush signali bo‘yicha reaksiyani bajarishdan ko‘ra ko‘prok va boshqacharoq narsadir.

Fonematik eshitishni tekshirish.

Fonematik eshitish bolada bevosita nutqiy aloqa asosida shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bir-biridan bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlarni ajrata olmaydilar, shuning uchun bolalarga bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlarni beramiz:

gul – ko‘l soch - qoch

ko‘z - tuz oz - och

sim - shim bahor – naxor va shu soʻzlarga mos rasmlarni topish va koʻrsatish koʻnikmasi aniqlanadi.

Soʻzlarning tushunishni tekshirish

Tekshirish shundan boshlanadiki, bolaga narsalarning nomi aytiladi va ularni koʻrsatib berish soʻraladi. Masalan, tana qismlari – koʻz, peshona, yuz, burun, soch, daxan, qoʻl, oyoq va boshqalar.

Keyin bolaga uy jihozlarini: stol, stul, shkaf, qandil, koʻzgu; oʻyinchoqlardan – qoʻgʻirchoq, mashina, koptoklarni koʻrsatish taklif qilinadi.

Soʻzlarni tushunishni tekshirishning keyingi bosqichi rasmda tasvirlangan narsalarni tanish koʻnikmasini aniqlashdan iborat boʻladi. Bunda bolaga turli mavzuli guruhlariga kiruvchi va bir-biridan shakli, rangi, hajmi va son jihatidan farq kiluvchi narsalar tasvirlangan rasmlar koʻrsatiladi. Bu rasmlarda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, oʻyinchoqlar, sabzavotlar, mevalar, idish-tovoqlar, transport, shuningdek yil fasllari tasvirlangan boʻladi.

Bu didaktik material bolalar bogʻchasining dastur talablariga muvofiq keladi va ularning yoshiga qarab ajratiladi.

Sodda gaplarni tushunishni tekshirish

Bolaga vaziyatli rasmlar koʻrsatiladi va bir qator quyidagi koʻrinishli sodda gaplar aytiladi: “Qiz oʻtiribdi”, “Qizda qizil koptok bor”, “Bola yuguryapti”, “Bolada mashina bor”, “Kuchuk yuguryapti” va hokazo. Shundan soʻng bola aytilayotgan hodisa tasvirlangan rasmni koʻrsatishi lozim. Bundan tashqari quyidagilarni koʻrsatish soʻraladi: olmaxonning momik dumi, qiz qaerda sakrayapti, yuguryapti, yozyapti, sirpanchiq uchyapti va hokazolar.

Keyin bitta gapda kelgan 1,2,3 ta izchil xususiyatlarni bajarishni oʻz ichiga oluvchi soʻz shaklidagi buyruqlarni bajarish usulidan foydalaniladi. Masalan: “Tur, stol yoniga bor, oʻyinchoqlarni ol va polga qoʻy. Koptokni ol, polga ur va menga ber”.

Soʻng bolalarning grammatik qurilishlarni tushunishlari aniqlanadi.

1. Birlik va koʻplikdagi otlarni tushunish. Bolaga narsalarga oid rasmlar koʻrsatiladi, uni tanishi va koʻrsatish koʻnikmasi aniqlanadi: mashina qaerda,

mashinalar qaerda, qo'g'irchoq qaerda, qo'g'irchoqlar qaerda, olma qaerda, olmalar qaerda va boshqalar.

2. Kichraytirish - erkalash qo'shimchasiga ega bo'lgan so'zlarni tushunish.

Bolaga narsalarga oid rasmlar beriladi va quyidagilarni ko'rsatish ko'nikmasi aniqlanadi: stol qaerda, o'yinchoqli stolcha qaerda, qoshiq qaerda, qoshiqcha qaerda, quyon qaerda, quyoncha qaerda va hokazolar.

3. Bog'lanishli nutq mazmunini tushunish. Bu bo'limda she'riy va darak gapli matnlar mazmunini tushunish tekshiriladi. Buning uchun bolalarga she'riy matn taklif qilinadi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarning ichki nutqini chuqur tekshirish ruhiy-logopedik tekshirishning umumiy tartibida bolalarning sust lug'atini va shuningdek, ular ruhiy faoliyatining ba'zi tomonlari holatini aniqlashga yordam beradi, chunki mantiqiy idrok insonning murakkab ixtisosiy perspektiv fikri-mnemik faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Ichki nutq bolaning kishilar bilan aloqa bog'lanishiga va faoliyatiga ta'sir qiladi, nutqiy va nutqiy bo'lmagan harakatlarni rejalashtirishning quroli bo'lib maydonga chiqadi.

Bolani bolalar nutq bog'chasiga qabul qilingach, logoped tomonidan bir oy davomida tekshirish olib boriladi; keyinchalik tekshirish natijalari tuzatish orqali logopedik ta'sir qilish jarayonida yanada aniqlashtiriladi.

Bolaning muloqotga kirishini tekshirish

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan birinchi uchrashuvda logoped bolaning muloqotga qanday kirishishini aniqlaydi: (oson, qiyin yoki xayiqib, qo'rqib, negativizm).

Bolaning o'z tengdoshlari bilan qanday Nutqiy aloqaga kirishi tekshiriladi: boshqalar bilan oson nutqiy aloqa o'rnatiladi, tez-tez yoki kamdan-kam urishadi, nutqiy aloqaga kirishishida tashabbuskor yoki sust Nutqiy aloqaga kirishishi turg'un.

Nutqdan tashqari bo'lgan motorikani tekshirish

Logoped bolaga soʻz qoidalarini va taqlid boʻyicha quyidagi vazifalarni bajarishni taklif qiladi:

- vazifa boʻyicha ikkala oyoqda yoki bir oyoqda yugurish, sakrash;
- yurish, yugurish, sakrashda ogohlantirish boʻyicha toʻxtash;
- bir oyoqda, soʻng ikkinchi oyoqda sanoq ostida turish;
- logopedga koptokni otish va uni ilib olish;
- polda yotgan «xalqa» ichiga ikkala oyoq uchida sakrab kirish va undan sakrab chiqish;

-bayroqchalarni ushlagan holda qoʻlni quyidagi buyruqlarga amal qilib harakatlantirish: oldinga, orqaga, yuqoriga, pastga;

-choʻkkalab oʻtirgan holda polda koptokni u qoʻldan bu qoʻlga yumalatish, soʻngra koptokni koʻtarib, oʻrindan turish;

- yugurish vaqtida koptokni otish va ilib olish;

- lentani tugun qilib, soʻng “bantik” qilib bogʻlash va boshqalar.

Bola motorikasini tekshirish natijasida logoped quyidagi maʼlumotlarni oladi: oyoq, qoʻllar muvofiqligi (toʻgʻri, notoʻgʻri, umuman yoʻq); tana muvozanatini sezish, bolaning oʻz gavdasini toʻtishi, harakatlarni bajarish darajasi (toʻliq, notoʻliq); bir harakatdan ikkinchi harakatga oʻtishi (oʻz vaqtida, sekinlashgan, yoʻq harakatlarni bajarish mustaqilligi (tuli yoki logoped yordamida); chapaqaylik, yuz harakatlari meʼyorda, samimiy va yuz naylarining giperkineziyasi, sinkeziyasi, yaʼni asosiy harakatlar bilan birga bajariladigan qoʻshimcha harakatlar - bir oz yaqqol ifodalangan.

Bolaning motor faolitini tekshirish natijalarini quyidagi parametrlar boʻyicha umumlashtiramiz.

Meʼyorli motorika:

- harakatlarning statik muvofiqlashuvi shakllangan: topshiriq boʻyicha yoki erkin ravishda kerakli holatni aniq belgilay oladi;

- harakatlarning dinamik muvofiqlashuvi shakllangan:

- harakatlar aniq, ishonch bilan bajariladi, motor faolligining turli xil koʻrinishlari bilan oʻzaro bogʻlangan (yugurish, sakrash, chapak chalishda);

- qo'l barmoqlari va mayda qo'l harakatlari to'la shakllangan: yuz ishoralari ifodali va emosional.

Motor harakatlari buzilishlariga quyidagilar kiradi:

- harakatning haddan tashqari faolligi, qo'zg'aluvchanlik va muvofiqlashmagan harakatlarning bo'lishi;

- motor zo'riqishi, harakatlarning cheklanganligi va muvofiqlashmagan harakatlar, harakatlarning beso'naqay va sustligi;

- yuzdagi samimiylilikning bir oz yoki yaqqol ifodalanganligi, panja barmoqlari va mayda qo'l harakatlarining etarli rivojlanmaganligi.

Artikulyasion apparatni tekshirish metodikasiga asosan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning sababi bo'lgan artikulyasion a'zolar to'zilishida yaqqol ifodalangan to'zilishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- Lab:(qalin, yupka, yuqori labning kalta bo'lishi, labdagi yoriqliklar);

- Til:(makroglossiya, tilning ingichka bo'lishi, til tagidagi yuganchaning kalta bo'lishi);

- Jag': (progeniya, prognatiya);

- Tishlar: (yo'q bo'lishi, orasi ochiq bo'lishi, yon ochiq tishlar);

- Qattiq tanglay: (baland, yassi, tor va yoriqlar bo'lishi);

- Yumshoq tanglay: (kalta, ikkiga bo'lingan, yo'q bo'lishi);

Artikulyasion apparat to'zilishini baholash me'yori:

- Artikulyasion apparatning me'yorda bo'lishi;

1. Artikulyasion apparat to'zilishida kamchiliklar, buzilishlarning bo'lishi.

2. So'ngra Artikulyasion apparat harakatchanligi tekshiriladi.

3. Bunda lab, pastki jag', til, yumshoq tanglay mashqlaridan foydalaniladi.

Masalan, lab mashqlari: ko'lg'i holatiga keltirish - tinch holat; oldingi chuchchaytirish - tinch holat; ko'lg'i holatiga keltirish, oldinga chuchchaytirish - tinch holat.

Pastki jag' uchun mashqlar: og'izni katta ochish, og'izni ochiq holda bir, ikki (6 sekundgacha) ushlab turish - og'izni yopish; og'izni katta ochish, pastki jag'ni ung va chap tomonga harakatlantirish - tinch holat.

Til mashqlari. Tilni keng holatda ko'rsatish - og'izni kirgizish, tilni keng holatda pastki lab ustiga qo'yish, yuqori lab tomon ko'tarish - tilni og'izga kirgizish, og'izni ochish va navbatma-navbat tilni keng va tor holda ko'rsatish; tilni tor holda tutib, yuqori labni yalash, shu holda pastki labni yalash, tilni tor holda tutib, uni og'izning chap va ung burchaqlariga harakatlantirish; og'izni ochish, tilni surib qattiq tanglayga tekkizish va kuch bilan tortib olish. Bu mashqlar bir necha marta qaytariladi.

Yumshoq tanglay mashqlar. Tilni pastki lab ustiga kuygan holda esnash, yo'talish ko'rinishidagi mashqlar: "a" unlisini avval cho'zib, keyin bo'lib-bo'lib talaffuz qilish, "a" unlisini qattiq tezlikda talaffuz qilish.

Mashqlar taqlid asosida va so'z qoidasi bo'yicha bajariladi.

Artikulyasion apparak a'zolarining harakatchanligini tekshirish jarayonida harakatning bor yoki yo'qligi, harakatning bajarilish darajasi (to'liq, noto'liq) va bajarilish sifati (gipo yoki gipertonus, qo'zg'aluvchanlik); harakatni aniq bajarish ko'nikmasi; Artikulyasion a'zolari ko'rsatilgan vaziyatda uzoq vaqt ushlab tura olish; bir harakatdan ikkinchi harakatga ohista o'tish; harakatlar tezligi; sur'ati me'yorda (sekinlashgan, tezlashgan) aniqlanadi.

Artikulyasion apparat harakatchanligini baxolash me'yori:

- 1) harakatni aniq, to'liq, me'yorda bajaradi.
- 2) bir harakatdan ikkinchi harakatga uta oladi.
- 3) harakatni bajarishda bir qator kamchiliklar kuzatiladi.
- 4) bir harakatdan ikkinchi harakatga qiyinchilik bilan o'tadi.
- 5) harakatni logoped yordami bilan bajaradi, mustaqil o'zi bajara olmaydi. Bir harakatdan ikkinchi harakatga juda qiyinchilik bilan utadi.
- 6) harakatni bajara olmaydi.

Tovushlar talaffuzini tekshirish

Tovushlar talaffuzining holati logopedik praktikada umumiy qabul qilingan quyidagi tartib bo'yicha tekshiriladi. Bolaga narsalarga oid rasmlar ko'rsatiladi, bunda rasmdagi narsalarni ifodalovchi so'zlar ichida tekshirilayotgan tovush uch

o‘rinda kelishi kerak: so‘zning alohida talaffuzida, bo‘g‘inlarda, so‘zlarda va jumlalarda tekshiriladi.

O‘zbek tilida so‘zda undosh tovushlarning mos kelishi:

- Sirgaluvchi tovushlar (s, z, s);
- Shipillovchi tovushlar (sh, j, ch);
- Sanor tovushlar (l, r, ng);
- Til orqa, chuqur til orqa tovushlar (k, g, x, k, g, x);
- Jarangli tovushlar (v, b, d);
- Unli tovushlar (a, o, u, u).
- Rasmlarni tanlash me‘yorlari:
- maktabgacha yoshdagi bolalarning tushunishi uchun mos bo‘lishi;
- idrok tasvirlangan so‘ratga nisbatan qiziqishni va ijobiy hissiyotli munosabatni uygotish;
- hayotiy vaziyatlarning aks ettirilishi.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar xususiyati bo‘yicha biz quyidagi shakllarni belgiladik:

a) tovush yo‘qligi; b) tovushning almashtirilishi; v) tovushlarning nutqda mustaxkam bo‘lmasligi (bunda tovush ba‘zi so‘zlarda to‘g‘ri talaffuz etiladi, ba‘zi so‘zlarda esa boshqa tovushlarga almashtiriladi); g) tovushni buzib talaffuz etish.

Fonematik tahlil. Sintez va fonematik tasavvurlarni tekshirish.

Bu foaliyatni tekshirish bola nutqining barcha tomonlari - lug‘at, fonetik ukuv, grammatik tuzilishni rivojlantirish rejasida olib boriladigan logopedik ish uchun zarurdir.

Fonematik tahlilni tekshirish

Bunda bolalarning quyidagi kobiliyatlarini aniqlash zarur:

- so‘z boshidagi tovushni aniqlash;
- so‘z ichidan kerakli tovushlarni aniqlash;
- juft tovushlarni bir-biridan ajratish: b-p, t-d, s-z, sh-j;
- tovushning so‘zdagi urnini aniqlash: masalan, so‘zda uchinchi bo‘lib qanday tovush kelyapti;

- tovushning soʻzdagi ketma-ketligini aniqlash;
- soʻzdagi tovushlar sonini aniqlash: masalan, soʻzda nechta tovush bor?
- Fonematik sintezni tekshirish
- Bunda bolalarning quyidagi kobiliyatini aniqlash zarur:
- ketma-ket tovushlardan boʻgʻinlar tuzish.

Fonematik tasavvurni tekshirish

Bunda bolalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- berilgan tovush ishtirokida soʻz uylab topish;
- nomlari oppozision tovushlar bilan boshlanadigan narsalarga oid rasmlarni

ikki qatorga ajratish. Masalan, s-sh, ch-s, r-ya va boshqalar.

Nutq prosodik komponentlarining holati

surʼat: meʼyorda, sekinlashgan, tez;

ohang: meʼyorda yoki aritmiya;

ovoz: meʼyorda, boʻgʻiq, xiqildoq, zaif, past;

ovoz yoʻgʻon-ingichkalilik: yumshoq, qattiq;

ovozning tez va qattiqligi: qattiq, yumshoq, yoʻq;

nafas: meʼyorda, tezlashgan, sekinlashgan;

nafas olish chuqurligi: meʼyorda, yuzaki.

Lugʻat boyligi holatini oʻrganish

Suhbat vaqtida bolalar nutqini kuzatish bola lugʻati boyligi haqida maʼlum tasavvurlarni beradi. Lekin nutq kamchiliklarini mufassal aniqlash uchun bolaning maqsadga qaratilgan lugʻat boyligi darajasini belgilab olish zarur.

Lugʻat boyligini tekshirish uchun maxsus usullar qoʻllaniladi: narsalarni nomlash, narsalarni tasvirlanishiga koʻra nomlash, narsalar nomini umumlashtirish va boshqalar.

Bolaga narsalar yoki narsalar tasvirlangan rasmlar, ularning harakati, sifati va belgilarini taklif etiladi. Narsa va rasmlar mavzular boʻyicha tanlanadi: oʻyinchoqlar, idish-tovoqlar, uy jihozlari, kiyimlar, oyoq kiyimlari, odamning tana qismlari, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, oʻsimliklar, odamlar kasbi, yil fasllari.

Bolaga yana quyidagi vazifalar taklif etiladi:

- rasmlar bo'yicha va ko'rsatilgan ish harakatini nomlash;

- "Bola nima qilyapti?" - bola ish harakatini nomlash bilan savolga javob berishi kerak. "Men nima kilyapman?" - ish harakati amalda namoyish etiladi;

- narsalarni nomlash. Bola nomlashi kerak bo'lgan narsalar yoki ularning harakati, sifat belgilari tasvirlangan narsalar rasmi ko'rsatiladi. Bunda logoped bolaga savollar orqali murojaat etadi: "Bu nima?", "Bu kim?", "Nima qilyapti?", "Qanday?", "Kimniki?"; - tasvirlanganiga ko'ra narsalarni nomlash: "Qaysi hayvon sut beradi?", "Nima bilan yozamiz?" va boshqalar;

- umumlashtiruvchi so'zlarni ajratish: bir qator narsalarni yoki narsalarga oid rasmlarni bitta umumiy so'z bilan nomlash. Masalan: olma, anor, uzum, bexi, shaftoli, anjir, limon, yoki ularning rasmlari ko'rsatiladi va savol beriladi: "Bu ko'rsatilgan narsalarni bir so'z bilan qanday nomlaymiz?" bunda imkon boricha turli bo'g'inli so'zlar talaffuzi tekshiriladi: parafaziya, perseverasiya, eliziya, kontaminasiyaning bor yoki yo'qligi belgilanadi.

- rasmlardan foydalangan holda ularni harakati bilan nomlash taklif etiladi. Bolaga rasmlarni ko'rish taklif etiladi, bunda bola ramsdagi narsa qanday harakat qila olishini aytib berishi lozim (samalyot uchayapti, qaldirgoch uchayapti, qo'g'irchoq o'tiribdi, bola yuguryapti, Qiz suzyapti). Quyidagi savol bilan bolaga murojaat etish mumkin: "Bola nima kilayapti?" va hokazo.

Narsaning belgisini aniqlash. Osmon qanday? - (havo rang), palto kimniki? - (onamniki).

Ma'nodosh so'zlar va antonimlarni tanlash: issik-sovuk, shirin-achchik, baland-past, yo'g'on-ingichka.

Bir o'zakli so'zlarni bilish (bog'cha, bog', bog'bon).

Otlardan sifat hosil qilish: "Stol yogochdan qilingan". Qanday stol? (yog'ochli); "Mashina temirdan yasalgan. Qanday mashina? (temirli); "Guruchli taom". Qanday taom? (guruchli).

10.3. Nutqning umumiy buzilishi (NUB) bo'lgan bolalar bilan tibbiy va pedagogik ish tamoyillari.

Nutqning umumiy buzilishi bo'lgan erta va maktabgacha yoshdagi bolalar kontingenti asosan Markaziy asab tizimining organik shikastlanishining qoldiq belgilari yoki perinatal ensefalopatiyaning namoyon bo'lishi bo'lgan bolalardir. Bu aqliy faoliyatning turli xil og'ishlari bilan doimiy nutq buzilishining tez-tez kombinatsiyasini keltirib chiqaradi. Bunday hollarda muvaffaqiyatli tibbiy va pedagogik ish, qoida tariqasida, faqat dori-darmonlarni davolash paytida mumkin bo'ladi.

Pedagogik (nutq terapiyasi) ishi nutq nuqsonining tuzilishiga va uning oraliq darajasiga qarab farqlanadi.

NUB bilan kasallangan bolalarning eng katta guruhi umumiy nutq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalardir.

Mahalliy nutq terapiyasida nutqning umumiy rivojlanmaganligi deganda nutq tizimining barcha tarkibiy qismlarining shakllanishi buzilgan g'ayritabiiy nutq rivojlanishining maxsus shakli tushuniladi: aqliy zaiflik va eshitish nuqsonlari bo'lmagan taqdirda fonetik va leksik-grammatik.

Pedagogik (nutq terapiyasi) ish nutq nuqsonining tuzilishiga va uning murakkablik darajasiga qarab farqlanadi.

Nutqning jiddiy buzilishi bilan kasallangan bolalarning eng katta guruhi umumiy nutq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalardir.

Mahalliy nutq terapiyasida nutqning umumiy rivojlanmaganligi deganda nutq tizimining barcha tarkibiy qismlarining shakllanishi buzilgan g'ayritabiiy nutq rivojlanishining maxsus shakli tushuniladi: aqliy zaiflik va eshitish nuqsonlari bo'lmagan taqdirda fonetik va leksik-grammatik kamchiliklar kuzatiladi.

Umumiy nutq rivojlanmagan bolalar bilan tibbiy va pedagogik ish

Umumiy nutq rivojlanmagan bolalar bilan bosqichma-bosqich nutq terapiyasi ishlari olib borishda asosiy vazifa bolaga tobora ortib borayotgan murakkablik darajasidagi jummalarni izchil tuzishni o'rgatishdir. Shu bilan birga, nutq

terapevti(logoped) yuqorida keltirilgan nutqni rivojlantirish darajasini baholashga tayanadi.

Ishning birinchi bosqichida bolaning taqlid qiluvchi tovush va nutq faoliyati ragʻbatlantiriladi, nutqni tushunish rivojlanadi, tovush birikmalarini ragʻbatlantirish uchun sharoitlar yaratiladi, maxsus nafas olish va ovoz mashqlari, artikulyatsion gimnastika ham oʻtkaziladi, bolaga individual soʻzlarni takrorlash va gapirish, mavzu rasmlari va ularda tasvirlangan harakatlarni nomlash oʻrgatiladi.

Ikkinchi bosqichda bolaga oddiy ikki soʻzli jummalarni tuzish, eng keng tarqalgan iboralarni yodlash oʻrgatiladi. Shuningdek, passiv va faol lugʻat hajmini kengaytirish boʻyicha ishlar olib borilmoqda.

Uchinchi bosqichda bolaga jummalarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish, tovush jihatidan oʻxshash soʻzlarni ajratish, syujet rasmlarida tasvirlangan harakatlarni tushunish, soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlishni oʻrgatish, tovush talaffuzini tuzatish va soʻzlarning boʻgʻin tuzilishi ustida ishlash oʻrgatiladi. Va nihoyat, ishning soʻnggi bosqichida bolaga 3-5 soʻzdan iborat jummalarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzish, izchil nutq mahoratini shakllantirish, jumlar doirasini kengaytirish, feʼlning grammatik shakllarini, murakkab va murakkab jummalarni taqqoslashni oʻrgatish, izchil nutqni rivojlantirish va takomillashtirish oʻrgatiladi.

Bolani syujet rasmiga koʻra hikoyalar tuzishga, bir qator syujet rasmlari asosida ertak aytib berishga oʻrgatish muhimdir.

Soʻzlarni shakllantirish boʻyicha maxsus oʻyinlar-mashqlar muhim ahamiyatga ega: bolaga ismlarning kichraytiruvchi shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, yosh hayvonlarning nomlarini shakllantirish oʻrgatiladi. Dastlab, ularga ta'sirchan nutqda hayvonlar bolasining nomlarini farqlash oʻrgatiladi.

Mashgʻulot oʻtish tartibi: Bolaning oldida bitta semantik guruhning soʻzlariga ikkita rasm joylashtirilgan, masalan: oʻrdak-oʻrdak, mushuk-mushukcha, gʻoz-gʻoz, tulki-tulki va boshqalar. Va mushuk qayerda? Tulki qayerda? Va tulki qayerda?

Shuningdek, otlardan sifatlarni shakllantirish boʻyicha maxsus mashgʻulotlar oʻtkaziladi. Masalan, ular quyidagilarni tayyorlashga oʻrgatishadi ob'ekt nimadan

yasalganligini bildiruvchi iboralar: yog‘och stol-yog‘och; shisha stakan-shisha; mo‘ynali shlyapa —mo‘yna va boshqalar.

Bolaga, shuningdek, ko‘plikda instrumental va predlogli otlarning ishlatilishni o‘rgatiladi. Masalan: men stulda o‘tiranman va hammamiz o‘tiramiz (nima ustida?) stullarda o‘tiramiz.

Nutqning grammatik tomonini rivojlantirish uchun bir qator boshqa mashqlar ham amalga oshiriladi.

Nutqning umumiy rivojlanmagan bilan nafaqat ekspressiv nutqning shakllanishi buziladi, balki uni tushunish ham qiyin kechadi.

Hozirgi vaqtda nutqni tushunish uchun asos bo‘lgan nutq habarini dekodlash bo‘yicha nazariy ma’lumotlar ushbu jarayonda nutq signalini idrok etish va aniqlashning turli darajalarida ishtirok etishidan dalolat beradi. Teskari nutqni to‘g‘ri tushunish uchun nutq signalining turli tarkibiy qismlarini tahlil qilish kerak: akustik, fonetik, fonologik, leksik, sintaktik va semantik. Nutqni tushunishning boshlang‘ich sharti bu iboraning intonatsion tuzilishini idrok etish va unga kiritilgan so‘zlarning ma’nosini anglashdir. Teskari nutqni normal tushunishda tinglovchi tilning semantik va sintaktik bilimlaridan foydalanib, hozirgi vaqtda qaysi signal qabul qilinishini (sintezini) ichki oldindan bilishni shakllantiradi, so‘ngra u kelgan signalni kutilgan (tahlil) bilan taqqoslaydi. Shunday qilib, kiruvchi akustik ma’lumotlarning etarli darajada joriy tahlili amalga oshiriladi.

Umumiy nutq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq habarini dekodlashning shunga o‘xshash mexanizmi shakllanmagan va ular nutq habarini tushunishlari uchun nutq signalini idrok etish va aniqlashning past (bazal) darajalari, xususan fonemik eshitish va fonemik idrok muhim ahamiyatga ega. Umumiy nutq rivojlanmagan bolalar tez tovush ketma-ketligini differentsial idrok etish yoki aniqlashni talab qiladigan vazifalarda qiyinchiliklarga duch kelishadi: qabul qilingan tovushlar orasidagi interval qanchalik kichik bo‘lsa, tanib olish va farqlashda qiyinchiliklar shunchalik aniq bo‘ladi. Unli tovushlarning akustik spektrlari ancha barqaror va undoshlar tez shakllantiruvchi o‘zgarishlar bilan ajralib turadiganligi sababli, ikkinchisini aniqlash va farqlash ayniqsa qiyin.

Klinik, psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, umumiy nutq rivojlanmagan bolalar guruhi nafaqat nutq nuqsonining og'irligi, balki nuqsonning tuzilishi va uning paydo bo'lish mexanizmlari jihatidan ham juda xarakterlidir.

Maktabgacha yoshdagi umumiy nutq rivojlanmaganligining asosiy belgilari nutqning kech boshlanishi, sekinlashishi va ko'pincha uning rivojlanishining o'ziga xos sur'ati, so'z boyligining cheklanganligi, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishda doimiy qiyinchiliklar, talaffuzning buzilishi va ovozni tahlil qilishdir.

Nutq nuqsonining murakkabligiga qarab, nutqni rivojlantirishning uch darajaga ajratiladi:

- *birinchisi* eng past, bola umumiy aloqa vositalariga ega emas. Nutqni rivojlantirishning ushbu darajasiga ega bo'lgan bolalar odatda kattalar bilan aloqa qilishda qiynalishadi. Shuning uchun, ushbu bolalarni tekshirganda, ular murojaat qilgan nutqni tushunish imkoniyatlariga alohida e'tibor berilishi kerak, shuningdek, bolada nutqni taqlid qilish imkoniyati va individual og'zaki nutq kombinatsiyalari imkoniyati mavjudligini ta'kidlash kerak;

- *ikkinchisi*-frazali nutqning rivojlanishining boshlanishi. Bolada nutqni rivojlantirishning ushbu bosqichida jumlalarining hajmi va tuzilishini, tovush talaffuzini, nutq nutqini tushunish hajmini baholash, faol fe'l lug'atini aniqlash, bola muloqotda ishlatadigan so'zlarning maksimal sonini aniqlash, bolaning predloqlardan foydalanish imkoniyatiga e'tibor berish muhimdir;

- *uchinchisi*-bola batafsil frazali nutqdan foydalanadi, lekin u nutqning barcha jabhalarida — leksiko-grammatik va fonetik-fonemik nuqsonlarni bildiradi. Nutqni rivojlantirishning ushbu bosqichida bola foydalanadigan jumlar hajmi va turlarini, predloqlarni o'zgartirish va ulardan foydalanish imkoniyatini, O'qilgan matnni tushunish va qayta hikoya qilishni, fonemik idrokning shakllangan darajasini baholash muhimdir.

Shunday qilib, NUR— bu har tomonlama va bosqichma-bosqich nutq terapiyasini talab qiladigan ekspressiv va impressiv nutqning tizimli buzilishi.

Ushbu kontsepsiya nutq nuqsonini pedagogik baholashni aks ettiradi va nutq terapiyasining asosiy yo‘nalishini belgilaydi.

Nutq patologiyasining ushbu shakliga tibbiy yondashuv nutq nuqsonining tuzilishini, uning paydo bo‘lishining axloqiy va patogenetik mexanizmlarini va umuman bolaning neyro-aqliy rivojlanishining xususiyatlarini klinik tahlil qilishni talab qiladi. Ushbu yondashuv birlamchi nutq nuqsonining tuzilishini aniqlashtirish va nutq patologiyasining ushbu shaklini kognitiv faoliyat va hissiy-ixtiyoriy sohaning tashqi o‘xshash turli xil anomaliyalaridan ajratish bilan tibbiy tashxis qo‘yish imkoniyatini belgilaydi, bunda NUR bilan tashqi o‘xshash nutq patologiyasining shakllari paydo bo‘lishi mumkin. Bunday farqlash NURni har xil aqliy zaiflik turlaridan, nutq nuqsoni bilan murakkablashgan aqliy zaiflikning engil shakllaridan, nutqning kam rivojlanganligiga olib keladigan hozirgi neyropsikiyatrik kasalliklardan, erta bolalik autizmi kabi o‘ziga xos aqliy rivojlanmaslik darajasiga olib kelishi mumkin.

Nutqning rivojlanishi barcha aqliy jarayonlarning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq. Boshqalar bilan muloqot qilish va maktabgacha yoshdagi bolaning turli xil amaliy tajribalari boshidanoq til vositachiligida. Ba'zi hollarda, bu birlamchi buzilishning differentsial tashxisini qiyinlashtirishi mumkin-nutq yoki intellektual rivojlanish.

Klinik tekshiruv va nutq va aqliy rivojlanish dinamikasiga ko‘ra, nutq umumiy rivojlanmagan bolalarni shartli ravishda uchta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

I. birinchi guruh bolalarida NURning xarakterli belgilari kognitiv faoliyatning boshqa aniq buzilishlari bilan birlashtirilmaydi. Ular Markaziy asab tizimiga mahalliy zarar etkazmaydi, qisman vosita etukligining individual belgilari, umumiy dinamik praksisning shakllanishidagi kechikishlar bundan mustasno. Ushbu bolalarning ruhiy holatida umumiy hissiy-ixtiyoriy etuklikning individual xususiyatlari, ixtiyoriy faoliyatni zaif tartibga solish, faol e’tibor funktsiyasining etishmasligi qayd etiladi. Ushbu bolalarda NURning patogenetik asosi miyaning kech shakllanadigan tuzilmalari va funktsiyalarining kechiktirilgan kamolotidir.

Bu NURning asoratlanmagan versiyasidir. Ushbu guruh bolalarining tarixida homiladorlik va tugʻish jarayonida aniq buzilishlar mavjud emas. Koʻpincha, ushbu variant bilan, tugʻilish paytida bolaning erta tugʻilishi yoki etukligi, uning somatik zaiflashishi hayotning birinchi yillarida sodir boʻladi.

Maktabgacha yoshdagi aniq neyropsixiyatrik kasalliklar yoʻqligiga va umuman, nutq va aqliy rivojlanishning qulay dinamikasiga qaramay, ushbu guruh bolalari koʻpincha uzoq muddatli nutq terapiyasini tuzatish ishlariga muhtoj. Buning sababi shundaki, hissiy-ixtiyoriy sohaning buzilishi, oʻz-oʻzini boshqarish funksiyasining yetishmasligi bilan ixtiyoriy faoliyatning zaif tartibga solinishi fonemik buzilishlarning qatʼiyligini, yozma nutqni oʻzlashtirishda va umuman oʻquv faoliyatida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Amaliyot shuni koʻrsatadiki, maktabgacha yoshdagi maxsus terapevtik va pedagogik tadbirlar boʻlmagan taqdirda, maktabga kirishda bu bolalar ikkinchi darajali nevrologik kasalliklarga duch kelishlari mumkin, bu shaxsning oʻrganish qiyinchiliklariga munosabati, shuningdek hissiy-xulq-atvor buzilishlari kuchayishi mumkin.

2. Ikkinchi guruh bolalarida NUR darajasi bir qator nevrologik va psixologik kasalliklar bilan birlashtirilgan. Hayotning birinchi yilida bu mushak tonusining engil buzilishi, beixtiyor harakatlarning mavjudligi, vosita rivojlanishining kechikishi, qoʻzgʻaluvchanlikning oshishi, uyquning buzilishi. Kelajakda bu bolalarda aniq boʻlmagan vosita buzilishlari aniqlanadi, ayniqsa muvozanat va harakatlarni muvofiqlashtirishning kech rivojlanishi xarakterlidir.

Ushbu guruhning baʼzi bolalari nafaqat umumiy vosita noqulayligi, balki miya falajining qoldiq namoyon boʻlishi va artikulyatsion vosita mahoratining buzilishi bilan ham ajralib turadi, bu esa ularda aniq boʻlmagan dizartrik buzilishlarni keltirib chiqaradi.

Nutq nuqsonidan tashqari, ushbu bolalarning koʻpchiligida bir qator yuqori aqliy funktsiyalar, xususan, vizual-fazoviy gnoz etishmovchiligi boʻlgan aqliy zaiflik mavjud. Bolalar fazoda, tanasining yon tomonlarida, Bosh namunalarida (katta maktabgacha yoshda taklif etiladi)¹, geometrik shakllarni nusxalashda, rasm chizishda, baʼzida yozishni oʻrganish boshida ular koʻzguga ega boʻlishadi (harflar

va raqamlar elementlarining yo‘nalishi o‘zgaradi) fazoda, ular go‘yo oyna orqali qabul qilinadi). Ushbu buzilishlar ko‘pincha ritmlarni takrorlashdagi qiyinchiliklar, eshitish-nutq xotirasi, fonemik eshitish va eshitish idrokining yetishmasligi bilan birlashtiriladi.

Ushbu guruhdagi bolalar uchun juda xarakterli xususiyat - bu bir qator nevrologik kasalliklar tufayli aqliy faoliyatning aniq buzilishi:

- intrakranial bosimning oshishi (gipertenzionno-gidrospezifal sindromi). Ushbu sindromda aqliy faoliyatning buzilishi charchoq va to‘yinganlikning kuchayish (faoliyatning monoton turi bilan charchoqning o‘ziga xos murakkabligi) shaklida namoyon bo‘ladi va xotira, e‘tibor, ijtimoiylashuvi, fikrlash jarayonlarining sustligi, ularning maqsadga muvofiq emasligi, yod uyushmalarga moyillik bilan birlashtiriladi. Ba‘zi bolalar qo‘zg‘aluvchanlik, asabiylashish, tez toliqishi bilan ajralib turadi. Bu bolalar issiqlikka, betoqatlikka, transportda yurishga toqat qilmaydilar, ba’zida bosh og‘rig‘i va bosh aylanishi haqida shikoyat qiladilar;

- serebrastenik sindrom, bu neyro-psixik charchoqning kuchayishi, hissiy beqarorlik, faol e‘tibor va xotira funktsiyalarining buzilishi shaklida namoyon bo‘ladi. Ba‘zi hollarda sindrom giper qo‘zg‘aluvchanlikning namoyon bo‘lishi bilan birlashtiriladi — umumiy hissiy va motorli tashvish belgilari, boshqalarda — emotsanal notinchlik, passivlik ustunligi kuzatiladi.

Nevrozga o‘xshash sindromlar qo‘rquv, umumiy tashvish, uyqu buzilishi, yuz va oyoq-qo‘l mushaklarining tiklari, vaqtinchalik yoki doimiy enurez, shuningdek epileptik namoyishlar shaklida ham kuzatilishi mumkin.

Ushbu bolalar kognitiv faoliyatning buzilishi bilan ajralib turadi, ular miqdoriy munosabatlarni, son va natural sonlar haqidagi g‘oyalarni tushunishga o‘rgatishda aniq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu NURning murakkab versiyasi.

3. Uchinchi guruh bolalarida NURning o‘ziga xosligi mahalliy, kortikal nutq nuqsoni — motor alaliya shaklida namoyon bo‘ladi.

NURning barcha tavsiflangan variantlarini oldini olish uchun nutqni rivojlantirishdagi og‘ishlarni erta tashxislash va erta nutq terapiyasi ishlari muhim ahamiyatga ega.

Umumiy nutq rivojlanmagan bolalarda xotirani, e‘tiborni, fikrlashni rivojlantirish, rang, shakl, o‘lcham va raqam tushunchalarini shakllantirish va kengaytirish, shuningdek vosita faoliyatini rivojlantirish muhimdir.

Bola bilan nutq terapiyasi ishlarini olib borishda, albatta, barmoqlarning umumiy va kichik Moto-rikalarining xususiyatlariga e‘tibor bering. Qoida tariqasida, bu bolalarda vosita buzilishi namoyon bo‘ladi va ayniqsa barmoqlarning nozik differentsiatsiyasi, qo‘l-ko‘zni muvofiqlashtirish, vizual-fazoviy gnoz va praksisning etishmasligi e‘tiborni tortadi. Shuning uchun tuzatish ishlarida ushbu funktsiyalarni rivojlantirish uchun bir qator maxsus mashqlarni kiritish kerak.

Nutqni rivojlantirishda sustkashlik bilan bolani tarbiyalash.

Nutqni rivojlantirishda orqada qolgan bola alohida yondashuvga muhtoj. Hayotning birinchi yillarida rivojlanishdagi har qanday og‘ish, birinchi navbatda, nutqning kechikishida namoyon bo‘ladi. Istisno faqat gidrosefali bo‘lgan ba‘zi bolalar bo‘lishi mumkin, ular so‘zlar va jumalarni etarlicha erta takrorlash qobiliyatiga ega. Biroq, bu bolalar, birinchi navbatda, nutqning semantik tomonini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tuzatish ishlariga muhtoj.

Nutq bolaning tashqi dunyo bilan ijtimoiy aloqalarini shakllantirish uchun asosdir. Shuning uchun, nutqni rivojlantirishda kechikish bilan, bola har doim aloqa bilan bog‘liq qo‘shimcha muammolarga duch keladi.

Ona bola bilan og‘zaki muloqotga etarlicha e‘tibor berishi, uni so‘zlar va jumladan foydalanishga undashi kerak. Onaning birinchi vazifasi bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishdir. Va buning uchun chaqaloq, birinchi navbatda, boshqalar bilan og‘zaki muloqotning haqiqiy ustunligini his qilishi kerak. Misol uchun, agar chaqaloq onasini qo‘llariga olishini istasa, u qo‘llarini unga tortadi, qichqiriq bilan uning e‘tiborini jalb qilishga intiladi, nihoyat u so‘ziga o‘xshash tovush birikmalarini talaffuz qilishga muvaffaq bo‘ladi. olib boring, — onasi darhol uni qo‘llariga oladi.

Xuddi shu holatlar o'yinchoqlarni manipulyatsiya qilishda, bola birinchi so'zlarni yoki tovush birikmalarini talaffuz qilishni o'zi uchun muhim bo'lgan harakat yoki ob'ekt bilan bog'laganda paydo bo'ladi.

Bola to'g'ri so'zni aytishi bilanoq, onasi uni quvnoq tabassum bilan mukofotlaydi va uning iltimosini bajaradi.

Nutqni rivojlantirish bolaning ob'ektiv va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan so'zning belgilovchi funktsiyasini shakllantirishdan boshlanadi. 6 oydan boshlab bolaga ob'ektlarni uni belgilaydigan so'z bilan o'zaro bog'lashni o'rgatish kerak, ya'ni asta-sekin murojaat qilingan nutqni situatsion tushunishni rivojlantirish.

Nutqni shakllantirish uchun bolaning motor rivojlanishi, eshitish idrokini farqlash va atrofdagi yo'nalishni rivojlantirish, shuningdek muloqotga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish muhimdir.

Maktabgacha yoshda, bolaning nutqini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun rasmlar bilan ishlash juda muhimdir. Voyaga etgan kishi bolada dialogik nutqni (savollarga javoblar) rivojlanishini rag'batlantiradi, ham syujet rasmlariga, ham bir qator syujet rasmlariga tayanadi, unga hikoya tuzishni o'rgatadi.

Bir qator syujetli rasmlar ustida ishlayotganda, bola hikoyaning ichki dasturini ishlab chiqadi. Buning uchun 3-4 ta rasmdan foydalaning. Masalan, "momaqaldiraq" ning 3 ta syujetli rasmlari seriyasi: bolalar otquloqni yig'ishadi. Yomg'ir yog'a boshladi, bolalar qochib ketishdi. Bolalar kulbaga yashirinishdi. Bolaning oldida ushbu rasmlarning bir qatori tartibsizlikda joylashtirilgan-2, 1,3. Quyidagi ko'rsatma berilgan: men rasmlarni noto'g'ri tartibda joylashtirdim. Rasmlarga diqqat bilan qarang va ularni to'g'ri tartibda joylashtiring. Bolaga rasmlarni to'g'ri joylashtirish va ulardan hikoya tuzish o'rgatiladi.

Xulasa shundan iboratki, umumiy nutq rivojlanmagan bolalarni hayotga tayyorlash va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash logoped, pedagog, shifokor, tarbiyachi, ota-otalar zimmasiga muhim vazifalarni yuklaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Qattiq nutq buzilishi bo'lgan bolalarda aqliy faoliyatdagi turli xil og'ishlar bilan doimiy nutq buzilishining tez-tez kombinatsiyasiga nima sabab bo'ladi?
2. Mahalliy nutq terapiyasida nutqning umumiy rivojlanmaganligi sifatida g'ayritabiiy nutq rivojlanishining qaysi shakli aniqlanadi?
3. Umumiy nutq rivojlanmagan bolalar bilan terapevtik va pedagogik ishlarning mazmunini aniqlang.
4. Umumiy nutq rivojlanmagan bolalarda nutq signalini dekodlashning qaysi mexanizmi shakllanmagan?
5. Umumiy nutq rivojlanmagan bolalarda qaysi tovushlarni aniqlash va farqlash ayniqsa qiyin?
6. Umumiy nutq rivojlanmagan bolalarda nutqni rivojlantirishning uchta darajasini aytib bering.
7. Klinik tekshiruv va nutq va aqliy rivojlanish dinamikasiga ko'ra, umumiy nutq rivojlanmagan bolalarni qaysi guruhlariga bo'lish mumkin?
8. Nutqni rivojlantirishda sustkashlik bilan bolani tarbiyalashning o'ziga xos xususiyati nimada?

XI BOB. OG‘IR XASTALIKKA CHALINGAN BOLALARGA TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK-DIDAKTIK VA IJTIMOIIY- PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH

11. 1. Og‘ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik jarayonni tashkil etish

1. Og‘ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik jarayonni tashkil etish. Bolalar bir-biriga o‘xshamaydilar. Bir-biriga o‘xshash bo‘lgan bolaning o‘zi mavjud emas. Bolalarning yoshlari bir xil bo‘lsa-da, ular bir-biridan farq qiladi.

Ba’zi bolalar injiq, ba’zilar esa, aksincha xushchaqchaq, ba’zilar yaxshi kuylaydi, ba’zilar esa, aksincha ashula ayta olmaydilar. Bu ro‘yxat davom etaverishi mumkin.

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlab ko‘radi, eshitadi, biror narsa tekkanini, og‘riq, issiq, hid va ta’mini his etadi.

Tevarak-atrofdagi borliqni bilish - sezish va idrok qilishdan, ya’ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi.

Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki

yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta- kichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, tanish ohangni ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: ko‘rish va ko‘zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgi- lariga

qarab ajratish, ko'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi.

Bola turli taassurotlar olib turishi - buyumlarni ko'rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarning o'z vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir.

Nutq ruhiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqi rivojlanishni boshlashi bilan kattalar so'zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi.

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi.

Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati - bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi.

Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishhi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Korreksion pedagogika fanida imkoniyati cheklangan bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi.

Ular quyidagilardir:

- ☐ eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);
- ☐ ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
- ☐ aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;
- ☐ nutqiy nuqsonlari bor bolalar;

- ☐ harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- ☐ ruhiy rivojlanishi sust bolalar;
- ☐ mujassam kompleks nuqsonli ko'r-kar-soqov bolalar;
- ☐ rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
- ☐ autizm sindromiga chalingan bolalar.

Imkoniyati cheklangan bolalar me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida inkluziv yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi maqsadga muvofiq. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni imkoniyati cheklangan bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsayu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u maktab tengdoshlari qatori o'zlashtiradigan bo'lsa, u imkoniyati cheklangan bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini imkoniyati cheklangan deb hisoblash mumkin emas.

Imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus sharoit yaratilishi kerak, ya'ni ular maxsus ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda yoki me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori va agarda kerak bo'lsa, maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitilishi va tarbiyalanishi zarur, ular alohida yordamga muhtoj.

Har qanday imkoniyati cheklangan bolada kuzatiladigan nuqson markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin.

Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, noto'g'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa ko'pgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmasligiga, ulgurmovchi o'quvchilar orasiga

qo‘shilib qolishiga sabab bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, biz bunday bolani imkoniyati cheklangan bolalar toifasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bo‘lmasin biror organik yoki funksional patologik o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan.

Ota-ona, tarbiyachi va o‘qituvchilar bunday bolalarni imkoniyati cheklangan bolalardan farqlay oladigan bo‘lishlari kerak.

Kelib chiqish sabablariga ko‘ra har qanday nuqsonli rivojlanish tug‘ma yoki turmushda orttirilgan bo‘lishi mumkin.

Tug‘ma nuqsonlar ko‘p jihatdan homilador onaning sog‘lig‘i va yashash sharoitiga bog‘liq. Ona qornidagi homilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikatsiya, shikastlanish va boshqa omillar ta’sir etishi mumkin. Onaning homiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og‘rishi, o‘zboshimchalik bilan turli dori-darmonlarni bilar-bilmas iste’mol qilishi bolaning nuqsonli bo‘lib tug‘ilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tug‘ma nuqsonlar genetik, ya’ni irsiy omillar ta’siriga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, eshitish, ko‘rish analizatori faoliyatining buzilishhi, aqliy zaiflikning nasldan bolaga o‘tishi ham kuzatiladi (fenilketonuriya, Daun kasalligi, rezus faktorning mos kelmasligi va boshqalar).

Ota-onalarning alkogolizmi, narkomaniyasi, toksikomaniyalari ham bolaning nuqsonli bo‘lib tug‘ilishiga olib kelishi mumkin.

Turmushda orttirilgan nuqsonlar bola organizmiga tug‘ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta’sir etishi natijasida vujudga keladi. Tug‘ruq vaqtida miya shikastlanishi, bolaning kindigi o‘ralib, bo‘g‘ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar, ba’zan uning nuqsonli rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Bolaning ilk yoshligida (uch yoshgacha) turli kasalliklar bilan og‘rishi, masalan, meningit, meningoensefalit, otit, makraziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham nuqsonli rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Mamlakatimizda bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarning oldini olish yuzasidan ko‘pgina choralar ko‘rilmoqda, bu sohada

anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekistonda aholini davolash-profilaktikasi kengaygani hamda meditsina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan imkoniyati cheklangan bolalar soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak, o'lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida imkoniyati cheklangan bo'lib qolish hodisalari uchrab turadi. Irsiy omillar hamda intoksikatsiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning imkoniyati cheklangan bo'lib qolish hollari hali ham uchrab turadi.

11.2. Og'ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik ish

Inklyuziv ta'limga qamrab olinuvchi bolalar.

Inklyuziv ta'lim–Aqliy va jismoniy rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga olib kirish ma'nosida qo'llanib, integratsiyadan farqli ravishda «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaga muvofiq tarzda barcha bolalarning ta'lim olishdagi huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Barcha bolalarning birgalikda ta'limlari ularning har biriga individuallashtirilgan ta'lim asosida amalga oshiriladi. Ya'ni u yoki bu jihatdan rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalar barcha sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olsalarda, ular o'z imkoniyatlari doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanadilar. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta'lim ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega.

Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o'sib ulg'ayishlari ta'minlansa, sog'lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki o'zgacha rivojlanishga ega bo'lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo'ladi. SHu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi - «Inklyuziv maktablardan – inklyuziv jamiyat sari» shiori asosiga qurilgan.

Kimlarni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish lozim?

Barcha bolalarni. Bizning modelimizda esa, barcha bolalarni, agar u og'ir muammoga ega bo'lmasa va o'z-o'ziga xizmat qilishda o'ta qiyinchilik kuzatilmasa hamda atrofdagilarga o'ta halal bermasa. Hozirgi sharoitimizda eng

avval engilroq muammolarga ega bo'lgan bolalar – zaif ko'ruvchi, zaif eshituvchi, engil darajadagi aqli zaif – debil bolalar, tayanch-harakat tizimida (chuqur buzilishlari kuzatilmaydigan serebral falajligi bo'lgan) muammolari bo'lgan bolalar jalb qilishdan boshanishi maqsadga muvofiq.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida”gi Nizomda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar) uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi belgilab berilgan.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim sinfi — maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf ekanligi e'tirof etilgan.

Mazkur Nizom o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududiy xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi.

O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o'quv yili boshlanguncha hamda o'quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga yo'llangan har bir o'quvchiga ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy hujjatlar yig'majildi rasmiylashtiriladi va maktab rahbariyatiga taqdim etiladi.

O'quvchining shaxsiy hujjatlar yig'majildida quyidagi hujjatlar bo'ladi:

- ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;

- psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosaci;
- ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);
- o'qish joyidan ta'limning muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq atvori, o'quvchiga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);
- o'quvchining yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma.

11.3. Og'ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik himoya qilish

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining etishmovchiligi — pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);

- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

- hulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

- intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1 martadan oshmagan paytda).

Maktab ushbu toifadagi bolalarni qabul qilishdan bosh tortishga xaqli emas.

Quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinmaydi:

- aqli o‘ta zaif bolalar (imbitsil, idiotiya darajasidagi oligofreniya);

- xulq-atvorida og‘ir buzilishlar, hissiy-irodaviy sohasida (organik) nuqsonlari bo‘lgan bolalar;

- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan, mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsata olmaydigan bolalar;

- ko‘r-kar-soqov bolalar;

- tez-tez takrorlanadigan epileptik tutqanoqdan aziyat chekadigan (epileptik demensiya, kunduzgi va tungi vaqtlarda tutqanoq‘i tez-tez takrorlanadigan) bolalar;

- markaziy asab tizimiga shikast etganligi tufayli siydik va najasini ushlab turolmaydigan bolalar.

Nazorat uchun savollar

1. Og‘ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik jarayonni tashkil etish.

2. Og‘ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik ish

3. Og‘ir xastalikka chalingan bolalarga ijtimoiy-pedagogik himoya qilish

XII BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O'QITISH BO'YICHA PEDAGOGIK

12.1. Umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish

Markaziy Osiyoda bu masala ancha yillardan buyon tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. Olimlar ham, siyosat va jamiyat arboblari, pedagog va talabalar, jamoat uyushmalarining faollari va oddiy fuqarolar ham bu masalaga tobora ko'proq e'tibor

bermoqdalar.

O'zbekistonda yanada demokratiyani chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishdagi manfaatdor bo'lgan har bir kishi O'zbekiston xalqlarining falsafiy-siyosiy va huquqiy merosini yaxshi bilishi, hamda mutafakkirlar ilgari surgan g'oyalarga murojaat qilishi kerak.

Ko'pgina mashhur olimlar bu ta'limotning tarkibiy qismlariga murojaat etib, mazkur muammoning turli-tuman ma'nolarini ilgari surganlar. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga olib keldi va ming yillik falsafaning tarixiga qiziqisni borgan sari oshirib, uni o'rganuvchilar doirasini kengaytirib kelmoqda.

“Avesto”da tug'ilgan va tug'ilmagan bolalar huquqlari qat'iy muhofaza qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Voyaga yetmagan bolalarni ota-onalardan judo qilish, vasiysiz qoldirish og'ir jinoyat hisoblanadi. Bolalarni yoshligidan fanlarga o'qitish, harbiy ishlarga va kasb-hunarga o'rgatish tavsiya etilgan.

Ma'lumki, “Avesto”ning bizgacha yetib kelgan qismi to'rt kitobni o'z ichiga oladi:

- birinchi kitob - “Yashna” (duolar yoki qurbonlik keltirish);
- ikkinchi kitob - “Visparad” (ibodat qo‘shiqlari);
- uchinchi kitob - “Yastlar” (ma’budalarga madhiyalar);
- to‘rtinchi kitob - “Vendidot” (devlarga qarshi qonun).

“Avesto”dagi g‘oyalar ezgulikni ulug‘lashni ifodalash bilan bir qatorda ular mohiyatan bir-biri bilan bog‘liqdir.

“Avesto” dan ma’lum bo‘lishicha, o‘sha paytdagi ijtimoiy-siyosiy tizim bir biriga bog‘liq ierarxik pog‘ona-davlat, so (“kavi”), jamoa boshlig‘i (“vis”), harbiy boshliq (“dax‘yu sastar”), oliy sud‘ya (“Zaratustroema”), oqsoqollar kengashi (“varzanapati”) dan iborat bo‘lgan⁸. Ko‘rinib turibdiki, jamoa-ahlining asosiy qismi davlat boshqaruvida istirok etgan. Tom ma’nodagi, biroq o‘sha oddiy sakldagi fuqarolik jamiyati belgilarini urug‘ va qabilaga birlashgan jamoa hayotida umumiy

ijtimoiy-foydali menat bilan shug‘ullanishida, erkin jamoa a‘zolarining asosiy mulki chorva va yerlardan teng foydalanishganligida, erkaklar bilan xotin-qizlar teng huquqqa ega bo‘lganligida, qabilaning umumiy manfaati bilan bog‘liq bo‘lgan turli masalalar oqsoqollar Kengashida muhokama etilganligini ko‘rish mumkin.

12.2. Umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish bo‘yicha pedagogik jarayon

O‘rta Osiyo xalqlari ilg‘or mutafakkirlarining siyosiy-falsafiy qarashlarida odil hukmdor g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Ular davlat tepasida turgan hukmdor adolatli, xulq atvori pok, fuqarolarga rahm-shafqatli, g‘amxo‘r bo‘lsa, davlat qudratli, jamiyat faravon bo‘ladi, deb tushunadilar. Shundan kelib chiqqan holda ular insonni ma’naviy kamolatga erishishga chaqiradilar va shu orqali adolatsizlik, xulqiy buzuvchiliklarni bartaraf qilish mumkin, deb hisoblaydilar.

Qadimgi Sharq falsafasi, sotsiologiyasi uning eteologik asoslari qadimgi Movarounnahr hududida yashovchi xalqlarning ijtimoiy jarayonlarga munosabatlari va fikrlash tarziga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Xususan,

o'zbek xalqi va uning boy ma'naviyatining shakllanishiga islom dinining kirib kelishi va uning xalq tomonidan qabul qilinishi o'ziga xos hodisa bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqi Islom diniga o'z milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, turmush tarzi, an'analari bilan kirib keldi. Bu esa qabul qilingan islom etnologiyasi nazariyasiga tegishli aniqliklar va tadriijiy o'zgartirishlar kiritilishini taqozo eta bosladi.

Sharq mutafakkirlari tomonidan XI–XII asrlardayoq milliy pedagogikaning ilmiy didaktik asoslari yaratildi, shaxsning biologik va ijtimoiy mavjudot ekanligining mohiyati tadqiq etildi hamda asoslab berildi. Bunga ayniqsa o'rta asrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiyning ilmiy ijodiy faoliyatlarining ijodiy ta'siri tufayli erishildi. Sharqning buyuk mutafakkir bobokalonlari ilm rivojining hech bir tomonini chetlab o'tmaganlar. Jumladan ularning ta'lim tarbiyaga oid qarashlari bugungi kunda ham pedagogikaning boy metodologik asosi bo'lib kelmoqda.

Ularning nuqtai nazaridan maxsus pedagogikaga oid fikrlar ham chetlab o'tmagan.

Insoniyat ijtimoiy taraqqiyotining turli davrlarida maxsus yordamga mutoj bolalalarga nisbatan munosabat o'ziga xos ravishda amalga oshirib kelingan.

O'tmishda bobakalonlarimiz o'zlarining munosib nomlariga ega bo'lgan mutafakkirlar yurtida jamiyatda hech bir insoniyat qatlami nazardan chetda qolmagan. Sharq mutafakkirlarining bola ta'lim tarbiyasi va pedagogikaga oid qarashlari maxsus pedagogikaning mustahkam metodologik asosi bo'la olishi bugungi kunga kelib o'z isbotini topmoqda.

O'rta asrning tabiiy–ilmiy, ijtimoiy yo'nalishlarining qarib barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan va ikkinchi muallim nomi bilan mashhur bo'lgan mutafakkir Abu Nasr Farobiy (875–950) dir.

FAROBIY Sharq sotsiologiyasida, tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o'rganishda ma'naviy taraqqiyot jarayonida so'nmas iz qoldirgan, o'rta asrning siyosiy va huquqiy qarashlarini chuqur tahlil qilib, o'zining adolatli jamiyat

to'g'risidagi qarashlarini to'la asoslab bergan, qomusiy aql egasi, donishmand mutafakkirlaridan yana biri Abu Nasr Farobiydir (873-950).

Abu Nasr ibn Muammad ibn O'zlug' ibn Tarxon Farobiy Toshkent shahrining shimolida, undan 150-200 km uzoqlikda joylashgan Turkiston o'lkasida, Aris suvi Sirdaryoga quyiladigan yeridagi Farob (O'tror) degan joyda tug'ilgan. Tadqiqotlarga tayanib qayd etish lozimki, O'rta Osiyoda (Movarounnarda) bolalarni 5 yoshdan boshlaboq savod chiqarish va ilmga o'rganishga berganlar. Shubhasiz, Abu Nasr iste'dodli, zehni o'tkir bo'lgani bois uning ilmga qiziqishi juda kuchli bo'lgan. Bu ishtiyoqni qondirish maqsadida dastlab Forob, Toskent, Samarqand va Buxoro shaharlarida tahsil olgan, keyinchalik u o'z yurtini tark etib, ilm-fan bilan bog'liq hayot qaynab-toshgan shaharlar (Bog'dod, Qohira, Damashq, Aleppo va boshqa joylar) ga safar qiladi.

U juda ko'p xorijiy tillar bilan shug'ullanib, riyoziyot, tibbiyot, falsafa mantiq kabi fanlarni o'rgandi va bir qancha ilmiy asarlar yozdi. Shular bilan bir qatorda siyosat va davlat haqidagi ijtimoiy fanlar bilan ham shug'ullangan. Uning bu sohadagi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy mavzudagi merosi juda boy bo'lib, o'zining qator asarlarini jamiyat, davlat, huquq, siyosat, adolat kabi masalalarga bag'ishlangan.

12.3. Umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish yo'llari

Farobiy o'zga yurtlarda odamlar va jamiyat hayoti bilan tanishadi, turli millat va diniy e'tiqodga mansub olimu-fuzalolardan ilmning turli sohalari (falsafa, tib, musiqa va boshqalar) bo'yicha ta'lim oladi, o'zi uchun juda muhim bo'lgan ilmiy va, ayniqsa, hayotiy xulosalarni chiqaradi. Bu uning qator ilmiy risolalari va falsafiy-huquqiy qarashlarida o'z aksini topadi.

Farobiyning merosi nioyatda boy, u entsiklopedist olim sifatida 160dan ortiq ilmiy asarlar sohibi. Uning arab va fors tillarida she'rlar yozganligi, zo'r musiqachiligi, o'zi yaratgan musiqa asbobida ajoyib kuylar ijro etganligi manbalardan ma'lum. Farobiy ko'pgina yunon olimlari (Fales, Gippokrat, Ptolemey, Evklid)ning asarlarini o'rganib, ularga sarlar yozdi. Uni o'z davrida

“Muallimi as-Soniy”, ikkinchi muallim (Aristoteldan so‘ng), “Sharq Aristoteli” degan buyuk nomga sazovor bo‘lisiga asosiy sabab, Farobiy Aristotelning barcha asarlarini talil etib ularga sarlar yozadi.

Farobiyning inson va jamiyat, ularning o‘zaro ta’siri, davlat, siyosat, urus va tinclik, adolat kabi masalalarga bag‘islangan asarlari sirasiga “Fozil odamlar sari”, “Shaharni o‘rganish aqida”, “Urush va tinch turmush aqida”, “Baxt-saodatga erishish haqida risola”, “Davlat arboblari haqida hikmatlar” nomli asarlarida inson, jamiyat, siyosat, adolat, odob-axloq, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlari bayon etilgan.

L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o‘rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta’limotni ishlab chiqqqan. U «Korreksiya pedagogikasining asosiy muammolari» kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta’limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni yanada oshirish yo‘llarini ko‘rsatib bergan.

L.S.Vigotskiy anomal bolaning nafaqat «salbiy» balki «ijobiy» tomonlarini ham o‘rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potentsial qobiliyatini inobatga olgan holda ta’lim tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etadi. U korreksiya pedagogikasi sohasida katta zaruriy meros qoldirdi.

Nazorat uchun savollar.

12.1. Umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish

12. 2. Umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish bo‘yicha pedagogik jarayon

12. 3. Umumta’lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish bo‘yicha pedagogik jarayonni tashkil etish yo‘llari

XIII BOB. “MEHRLI MAKTAB” O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

13. 1. “Mehrli maktab” ning faoliyatida gospital ta’lim

1. “Mehrli maktab”ning faoliyatida gospital ta’lim. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulatory davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. Mehrli maktabning rahbar, pedagog va mutaxassisleri hamda Mehrli maktab tomonidan e’lon qilingan tanlovga muvofiq suhbat natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan saralab olingan nomzodlar (keyingi o‘rinlarda – nomzodlar) uchun xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda o‘quv-amaliy seminar (keying o‘rinlarda – seminar) tashkil etish.

2. A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (keyingi o‘rinlarda – Milliy-tadqiqot instituti) seminar tashkil etish.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasining Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida tashkil etiladigan filiallariga malakali pedagoglar ishga taklif qilinmoqda.

Bunda viloyatlardagi ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyot markazlarining gematologiya va onkologiya bo‘limlarida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim beriladi.

Buning uchun nomzodlardan quyidagi mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olgan bo‘lishi talab etiladi:

- Umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish uchun pedagog xodim (ona tili va adabiyot, matematika hamda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari);
- Psixolog;

- Tarbiyachi;
- Tarbiyachi yordamchisi.

Hujjat topshiruvchilarda yoʻnalishlar boʻyicha quyidagi koʻnikmalar boʻlishi shart:

✓ pedagog xodim lavozimiga: oliy (pedagogik) maʼlumotli, dars berayotgan fani boʻyicha kamida ikkinchi toifali, 3-yillik pedagogik ish stajiga ega, statsionar sharoitda uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar bilan ishlash koʻnikmasiga ega boʻlgan, rus va oʻzbek tillarini biladigan pedagoglar;

✓ psixolog lavozimiga: oliy maʼlumotli, bolalar bilan ishlash koʻnikmasiga ega, kamida 3-yil psixolog faoliyati bilan shugʻullangan, rus va oʻzbek tillarini biladigan mutaxassislar;

✓ tarbiyachi lavozimiga: maktabgacha taʼlim yoʻnalishi boʻyicha oliy pedagogik maʼlumotli, kamida 3-yillik pedagogik ish stajiga ega, statsionar sharoitda uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar bilan ishlash koʻnikmasiga ega boʻlgan mutaxassislar;

✓ tarbiyachi yordamchisi lavozimiga: oʻrta maʼlumot va maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash ishlari xususiyatlari boʻyicha maxsus tayyorgarlikka ega, kamida 3-yillik stajga ega xodimlar.

Ish oʻrinlari uchun oʻtkaziladigan tanlovda ishtirok etish istagidagi nomzodlar “Mehrli maktab” davlat taʼlim muassasasining mehrlimaktab.vakant@gmail.com elektron pochta manziliga 2025-yilning 10-fevraliga qadar (shu kun ham) pastda koʻrsatilgan hujjatlarni elektron shaklda taqdim etishi lozim:

- maʼlumotnoma-obyektivka (telefon raqam);
- pasport (ID-karta);
- oliy oʻquv yurtini tamomlaganlik toʻgʻrisidagi diplom nusxalari.

Maʼlumot uchun, yuqoridagi malaka talablariga mos kelganlar orasidan ish oʻrinlariga munosiblar suhbat asosida ishga qabul qilinadi.

Eslatib o'tish lozim, belgilangan qonunchilikka ko'ra, "Mehrli maktab" pedagog xodimlariga mehnatning alohida sharoitlari uchun 100 foizlik ustama beriladi va qo'shimcha tarzda moddiy rag'batlantiriladi.

Ta'lim hamma uchun milliy dasturida ta'lim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biridir. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida ta'lim jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi davlat siyosatini umuminsoniy qadriyatlarni, xalqning tarixiy tajribasini, madaniy va fan bobidagi an'alarini, jamiyatning istiqboldagi rivojini hisobga olgan holda yurgizadi. Ta'lim ilm berish va tarbiyani o'z ichiga oladi, u respublikaning zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Shu boisdan ham mamlakatdagi barcha kelajak avlod vakillarining ta'lim olish huquqi davlat tomonidan muhofaza etiladi.

Bundan tashqari umumta'lim olish yoshidagi har qaysiki bolalarning ijtimoiy kelib chiqishi-yu ayni vaqtdagi ijtimoiy holatidan qat'iy ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar ham yaratib berilmoqda. Buning isbotini "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hukumat qarori hamda uning ijrosi timsolida ko'rish mumkin.

Gospital ta'lim - uzoq muddatli davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarni o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogikaning bo'limidir. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi bo'lib,

o'z e'tiborini o'quvchilarning alohida toifasiga — uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi. Pedagogikaning ushbu yo'nalishini amalga oshirish va rivojlantirishning murakkabligi idoralararo mansubligi bilan belgilanadi: ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya, — chunki kasalxonada uzoq muddatli

davolanayotgan bola birinchi navbatda bemor, ikkinchidan — o‘quvchi. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtirish keng qamrovli reabilitatsiyani anglatadi.

Davolanish bilan birga ta’limga qaytish onkologik kasalligiga chalingan bola uchun ijobiy taassurot qoldirishi mumkin, ammo shu bilan birga u sinfdoshlari orasida yo‘qligi, tengdoshlari bilan muloqotning uzilishi, davolanishning nojo‘ya ta’sirlari, zaiflik bilan kurashish zarurati kabi qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Bolaga onkologik kasallik tashxisi qo‘yilganda, uning eng yaqin qarindoshlari moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishadi, ular jismoniy, ruhiy salomatlik va farovonlik nuqtai nazaridan hayot sifatini pasaytiradi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni yomonlashtiradi.

Shuning uchun, hospital ta’lim onkologik kasalligiga chalingan bolalarningva ularning yaqin qarindoshlarini ruhiy va emosional holatini yaxshilash, qo‘llab-quvvatlashi uchun xizmat qiladi.

Gospital ta’lim o‘quvchilarining yuksak ma’naviyatli, barkamol avlod etib tarbiyalash, o‘quvchilarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. Gospital ta’limning boshlang‘ich sinf darslarida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Hukumat qarorining ijrosi ko‘p vaqt o‘tmay ta’minlandi, ya’niki bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim berish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi tashkil etildi.

13.2.Mehrli maktab haqida ma’lumot

Hamda bu muassasaga yuridik shaxs maqomi berildi. Ushbu markaz hududida shifo topish uchun davolanayotgan turli yoshdagi bolalar uchun tashkil qilingan

mehrli maktabda alohida o'quv rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu reja asosida 1- 11-sinflar hajmi doirasida umumiy o'rta ta'lim berish ishlari yo'lga qo'yilgan. Bu sinflar uchun dars mashg'ulotlarining davomiyligi mamlakatdagi barcha umumta'lim maktablaridagi kabi stabil emas. Sababi xastalik tufayli bolalarda oddiy va doimiy maktablarda tahsil olayotgan bolalar singari kuch-quvvat yetmay qolishi mumkin. Aynan mana shu jihatlarni hisobga olgan holda, mehrli maktabda tashkil etiladigan dars jarayonlari boshlang'ich ta'lim(maktab)ning 1-4-sinflari uchun 35 daqiqa va 5-11-sinflar uchun 40 daqiqa etib belgilangan. Bir kunlik dars mashg'ulotlarining soat hisobi ham qisqadir. O'quv haftasining davomiyligida ham doimiy va oddiy maktablardan farq mavjud.

Bulardan tashqari bu maktabda ta'lim oluvchilarga, aniqrog'i gematologiya, onkologiya, immunologiya markazlaridagi bemoqr bolalarga qarayotganlarga bepul ovqat beriladi. Yuqorida mehrli maktabning ijtimoiy darajasi, holati haqida so'z yuritildi. Endi esa bu ta'lim muassasasidagi ta'limiy jarayonlarga alohida to'xtalish joiz. Xususan, mehrli maktabda o'qitiladigan fanlar, ularga mas'ul pedagoglar, dars mashg'ulotlarining tashkil etilishi borasida atroflicha so'z yuritish joiz deb bilindi. Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi tashkil etishdan asosiy maqsad hamda bu maktabning vazifasi uzoq vaqt mobaynida davo topish uchun markazda davolanib kelayotgan, davolalayotgan hamda oddiy maktab yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga borish imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli va uzluksiz ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish uchun ruhiy dalda berish va ko'maklashishdir. Maktab bolaning to'laqonli rehabilitatsiya bo'lishi, moslashishi va ijtimoiylashiga ham xizmat qiladi, shuningdek, jarayonda ota-onalar ham qatnashishini ta'minlaydi. Maktabda tehsil oluvchilarga ta'lim berish uchun avvalo, gospital pedagogikadan to'liq xabardor, bolalarni sevuvchi, har qanday holatda ham ularga suyanch va sirdosh do'st bo'la oladigan, eng asosiysi, gospital pedagogikaning maqsad va vazifalarini to'liq

anglagan holda ta'lim jarayonlarini mazmunli tashkil eta oladigan pedagog xodimlar tanlab olingan.

Maktabda faoliyat olib borish istagini bildirgan pedagoglarga alohida gospital pedagogikadan saboq darslari — maxsus treninglar tashkil etilganligi ham tahsinga sazovor. Bunday treninglarda gospital pedagogika bo'yicha keng ko'lamda ma'lumotlar, bilimlar berilgan. Quyida ham bu borada o'rganilgan adabiyotlardan olingan bilimlar asosida ma'lumotlar keltirildi: Gospital pedagogika - uzoq muddatli davolanishda bo'lgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasalariga bora olmaydigan bolalar uchun ta'limni tashkil etish bilan bog'liq pedagogika bo'limi. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi sanalib, o'z e'tiborini o'quvchilarning alohida toifasiga - uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi. Pedagogikaning ushbu sohasini amalga oshirish va rivojlantirishning murakkabligi idoralararo bog'liqlik bilan bog'liq: ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya. Chunki shifoxonada uzoq muddatli davolanayotgan ta'lim oluvchi birinchi navbatda bemor va faqat o'rta maktab o'quvchisidir. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogic texnologiyalarni uyg'unlashtirish, ya'ni integratsiyalash har tomonlama rehabilitatsiyani anglatadi.

13.3. Kompetensiya tushunchasi

Gospital pedagogikaning markaziy konsepsiyasi shifoxona maktabi - asosiy va qo'shimcha umumiy ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim faoliyatini amalga oshiradigan, tibbiy tashkilotda uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar o'qitiladigan tashkilot sanaladi. Uzoq muddatli davolanishda bo'lgan bolaga nisbatan ta'lim faoliyatidagi shifoxona o'qituvchisi - uzoq muddatli davolanishda bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan pedagogik ma'lumotga ega mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi. Kasalxona o'qituvchisi o'z ishida oddiy maktabda qo'llaniladigan an'anaviy usullardan sezilarli darajada

farq qiladigan usul va vositalardan foydalanadi. Har bir fan yuzasidan ta'lim beradigan o'qituvchilardan bu jarayonda o'ta ehtiyotkorlik hamda yuqori tajriba talab etiladi. Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga shunday olimlar bo'lgani, ular ham kasallik sababli qaysidir ma'noda ta'lim olishdan uzilish jarayonlariga duch kelgani, biroq shunga qaramay, o'z maqsadlari yo'lida turli darajadagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga muvaffaq bo'lganini ona tili va adabiyot fani va dars mashg'ulotlaridan unumli foydalanib, bolalarga tanishtirish hamda o'qituvchining notiqligi bilan dars mashg'ulotlarida faollikka chorlovchi fikr-mulohazalar, tavsiyalarning berib borilishi bolalarda nafaqat fanga nisbatan qiziqishni, balki ota-onasi va o'zi uchun kasallikni yengib, ruhan kuchli bo'lishga chorlaydi. So'z songida aytish joizki, mehrli maktabda ta'lim oladigan bolalar — o'quvchilar uchun ona tili va adabiyot fani ruhiy yengillikka ega bo'lishda yordam beradigan fanlar sirasidandir.

Nazorat uchun savollar.

1. "Mehrli maktab"ning faoliyatida hospital ta'lim
2. Mehrli maktab haqida ma'lumot
3. Kompetensiya tushunchasi

XIV BOB. GOSPITAL PEDAGOGIKADA OTA-ONALARGA AMALIY YORDAM KO'RSATUVCHI PEDAGOGIK XIZMAT

14. 1. Ota-ona, maktab va o'qituvchi hamkorligidagi harakat ta'limni qo'llab quvvatlashning samarali usulidir

1. Ota-ona, maktab va o'qituvchi hamkorligidagi harakat ta'limni qo'llab quvvatlashning samarali usulidir. Yuqori sinfdagi o'g'limga qaraganda boshlang'ich sinfdagisini dars tayyorlatish menga ancha mushkul vazifa. Gohida aldab, qo'lga shirinliklar tutqazib, uyga berilgan vazifani bajartirishga undasamda u kitobini qo'lga olgan hamanoq yana televizordagi fantastik multiklariga qadalib qoladi. Uning o'y-hayoli saxnasida multifilmlardagi samoviy kemalar, uchar gilamlar, yaltiroq toshchalaru, "fokus"chilar, so'ng yuziga niqob taqib olgan maskali quroli o'zidan katta robot bolakaylar paydo bo'ladi. Ana endi qo'lidan televizor pultini olishga ham xojat qolmaydi. Undagi jangarilik, betgachoparlik, qaysarlik kerak bo'lsa "bez" ligidan muammoning tugunini yecholmay halak bo'lasan kishi. Ayniqsa darsdan keyingi ta'til kunlarida kitob olish o'rniga yana o'sha teleekranga termulib qolishadi. Buni dugonalar bilan bo'lgan suhbatimizda mulohaza uchun o'rtaga tashladik. Farzandini ta'tilda kitob o'qiyotganini aytgan

o'rtoqlarimiz atigi bir nafarni, majburlab dars tayyorlatayotgani esa uchta qolganlarimiz esa har qancha imkoniyat yaratib bermaylik hamon yo televizorga yoki telefon ekraniga termulib qolganlari esa 70-80 foizni tashkil qilishi bizni hamisha o'ylantirdi. Bugun farzandini ikkita hikoyalar to'plamini o'qib Keling avvalo, yuqoridagi vaziyatlarning yuzaga kelishi, bolani o'tish davrining 5-6 yoshidanoq kitobga darsga bo'lgan ishtiyoqi so'nib, bo'sh vaqtini boshqa keraksiz ishlar bilan mashg'ul bo'lishi bizni hamisha munozara qilishga chorlaydi.

Aslini olganda oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik jarayoni ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga, bo'sh vaqtni o'tkazishga, bolalar va pedagogik jamoa bilan o'zaro munosabatlarga qaratilgan bo'lishi kerak.

Umumta'lim tashkilotining o'quvchilarning oilalari bilan hamkorligining maqsadlari va shartlari o'zaro munosabatlarni tashkil etishning muhim tarkibiy qismidir. Ularning yutug'i ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlik qilish shakllari va usullariga - ularning birgalikdagi muloqotini va faoliyatini tashkil etish usullariga bog'liq. Hamkorlikning turli shakllari va usullarini tanlash maktab tomonidan amalga oshiriladi va ushbu bosqichda hal qilinishi kerak bo'lgan muayyan vazifalarga, ota-onalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, ushbu davrda jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liq. Guruh va jamoaviy hamkorlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- ☐ maktab miqyosida va sinfda ota-onalar yig'ilishi;
- ☐ maktab tadbirlari, konsertlar o'tkazish;
- ☐ ochiq kunlar (ota-onalar kuni); ota-onalar qo'mitasining tematik konferensiyalarini tashkil etish va ular bilan yaqindan hamkorlik qilish;
- ☐ ota-onalarning ijodiy guruhlar bilan ishlash, savol-javob kuni;
- ☐ guruh maslahatlari;
- ☐ ota-onalarni maktab ma'muriyati, pedagogik jamoa bilan uchrashish;
- ☐ ota-onalar uchun ma'ruzalar;
- ☐ seminarlar, treninglar; o'quv filmlarini ko'rish va keyingi muhokamalar ota-onalar maktablari.

Agar boshqa tasnifni ko'rib chiqsak, umumiy ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlik shakllari an'anaviy va noan'anaviy bo'linadi.

An'anaviy shakllar - bu barcha umumiy ta'lim muassasalari uchun umumiy bo'lgan, yillar davomida sinovdan o'tganlar. Bunga quyidagilar kiradi:

- ota-onalar yig'ilishi;
- ota-onalar uchun ma'ruzalar;
- ota-onalar bilan pedagogik suhbatlar;
- oilaviy tashriflar;
- tadbirlarni birgalikda tashkil etish;
- individual va guruh maslahatlari; ota-onalar bilan yozishmalar;
- individual uchrashuvlar va boshqalar.

Hamkorlikning noan'anaviy shakllari oila bilan ishlashning zamonaviy shakllari bo'lib, o'qituvchilarga ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va o'qitishda imkon qadar yordam berishga yordam beradi. Har bir ota-ona o'qituvchini bolani har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan ishida qo'llab-quvvatlashga intiladi. Ammo zamonaviy ota-onalar - bu paydo bo'lgan muammolarni, mavjud vaziyatni tahlil qilishga qodir bo'lgan bilimli odamlar, shuning uchun o'qituvchi oila bilan hamkorlikning yangi shakllaridan foydalanishi kerak. Umumiy ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikning ko'plab shakllari mavjud. Belgilangan maqsadlarga erishish va yuqori natijalarga erishish uchun o'qituvchi ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyatda turli xil hamkorlik shakllarini to'g'ri birlashtira olishi kerak. Har safar o'qituvchilar tarkibi har bir oilaning xususiyatlarini hisobga olgan holda kerakli, samaraliroqlarini tanlashi kerak. Axir hamkorlikning asosiy maqsadi ota-onalar bilan ittifoqdosh bo'lishdir.

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, umumiy ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikning barcha shakllarining mazmuni o'quvchilarning barkamol rivojlanishiga qaratilgan faol ta'lim o'zaro ta'sirini yaratishdir. O'qituvchilar va ota-onalarning to'g'ri tashkil etilgan o'zaro aloqasi bolani yaxshiroq tushunishga, oilada va maktabda shaxsiy ta'lim muammolarini hal qilishning eng maqbul usullarini topishga yordam beradi. O'qituvchi esda tutishi

kerakki, u foydalanadigan barcha shakllar bolalar, ota-onalar va maktab o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatishga, ularni bir jamoaga birlashtirishga, ularning muammolarini bir-birlari bilan bo'lishish va birgalikda hal qilish zarurligini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak. Oila va maktab hamkorligi maktab hayoti davomida davom etadigan jarayondir.

Shunday qilib ijobiy maktab muhitini targ'ib qilish uchun quyidagi qadamlarni belgilaydi:

O'qituvchilar maktab va oilalar o'rtasidagi muntazam aloqani rag'batlantiradilar va qo'llab-quvvatlaydilar.

Hammaga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi. Maktab madaniyati jamiyat va g'amxo'r munosabatlar tuyg'usini rivojlantiradi.

Ota-onalar maktab faoliyatiga jalb qilingan o'quvchining eng yaxshi manfaatlariga e'tibor qaratish.

Ijobiy harakat yo'nalishini aniqlash Ota-onalarni savollar bilan uchrashuvga kelishga undash.

O'quvchining kuchli tomonlari, ehtiyojlari, dasturlash maqsadlari va o'qitish strategiyalari haqida ma'lumot almashish.

O'quvchi bilan ma'lumot almashish ota-onalar o'qituvchilari yig'ilishlarida qatnashib, talabalar o'z g'oyalari va istiqbollari taqdim etishlari va ehtiyojlarini himoya qilishni o'rganishlari mumkin.

Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali munosabatlarning asosiy tarkibiy qismlari nima?

Ota-onalar va o'qituvchilar uchun eng katta muammo - samarali muloqot qilishdir. Bu oddiy tuyulishi mumkin, lekin ko'pincha suhbatlar uzilib qoladi, chunki o'qituvchi maxsus ta'lim sohasiga xos bo'lgan tilni ishlatadi va ota-ona uchun notanish bo'lishi mumkin. O'qituvchilar suhbat boshida ota-onalarga tegishli so'z

birikmalarini, masalan, turar joy va modifikatsiyani tushunishlariga ishonch hosil qilishlari muhimdir. Bu keyinchalik muammolarga olib kelishi mumkin bo'lgan o'ziga xos tushunmovchilik yo'qligiga ishonch hosil qiladi.

O'qituvchi ham ota-onani faol tinglashi kerak. Yechimlar va usullarga berilib ketish shunchalik osonki, o'qituvchilar talaba uchun eng samarali bo'lgan narsa haqida fikr-mulohazalarini o'tkazib yuborishlari mumkin.

Ota-onalar qaysi tayanchlar ishlayotganini va qaysi biri ishlamayotganini aniqlashga yordam beradi va muvaffaqiyatga ta'sir qiladigan o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Farzandimning misolida, nutqdan matnga dasturiy ta'minot yaxshi ishlamadi, shuning o'rniga biz klaviaturada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirdik va boshqa yo'l

orqali muvaffaqiyatga erishdik. Mojaro bilan shug'ullanish O'zaro hurmat munosabatlari bilan birgalikda ijobiy maktab muhiti mutaxassislar, ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilarga dasturlar va xizmatlar bilan bog'liq muammolarni ular mojarolar manbaiga aylanmasdan oldin hal qilish uchun konstruktiv hamkorlikda ishlashga yordam beradi. Biroq, hatto eng yaxshi niyat bilan yondashilgan taqdirda ham, talaba dasturining har qanday jihatini, masalan, o'qitish metodikasi, yordamchi texnologiyalardan foydalanish, o'quv dasturiga o'zgartirishlar kiritish va hokazolar bo'yicha kelishmovchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

Mavzuga oid masalani chuqurroq tahlil qilish maqsadida Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi aksariyat maktablari o'qituvchilar hamda o'quvchilarning ota-onalari ishtirokida anonim kichik surovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalar natijasida maktab-ota-ona, o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar taxlil qilindi. So'rovnomalar 15 ta savoldan iborat bo'lib, "Farzandingiz kelajakda qaysi yo'nalishni tanlashini istaysiz?",

"Farzandingiz bilan uyda birgalikda dars tayyorlaysizmi?", "Farzandingiz bilan birga (ta'lim uchun) kuniga necha soat shug'ullanasiz?", "Farzandingiz bilan birga uy vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelganmisiz?" kabi savolnomalar matni tuzildi. Demak, savolnomalarda ota-onalar ko'pchiligi farzandi oliy ma'lumotli bo'lishini istashini anglaymiz. Shunga qaramay ota-onalarning 20 foizi farzandiga uyda dars tayyorlatishga vaqt ajrata olmaydi.

14.2. Ota-onalarga ko‘mak: Tarbiyasi qiyin bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish tartibi.

Insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri- bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi.

Shunday bo‘lsa-da jamiyatda xulq-atvorida salbiy illatlarga moyil, ijtimoiy me‘yorlarni qabul qilolmaslik xohishi, hatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan bolalarni uchratamiz. Ularni tabiatan shunday xulq-atvorga ega deb, e‘tibordan chetda qoldirish yoki chora-tadbirlar ishlab chiqmaslik jamiyat uchun kattadan-katta yo‘qotishlarga olib keladi. Shu bois tarbiyasi va xulq-atvorida o‘zgarishi bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatuvchi kishilar psixologlar, pedagoglar hisoblanadi. Chunki tarbiyasi qiyin bolalarda bir qator o‘ziga xos tipik illatlar kuzatiladiki, ular:

ota-onalar, pedagoglar va boshqa katta yoshdagilar bilan munosabatda o‘rtoqlari, sinfdoshlari va boshqa tengdoshlari bilan munosabatda o‘ziga munosabatda va o‘zini o‘zi tushunishda ichki yagonalik, boshqalar bilan do‘stlasha olmasligi o‘qishdagi qiyinchiliklarni boshdan kechiruvchi kabi tipik illatlar kuzatiladi.

Ushbu illatlardan bolalarni xalos etish yoki ularning oldini olish uchun qanday psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish mumkin?!

Uylaymizki, tarbiyasi qiyin bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatishning o‘ziga xos tartibi bo‘lish kerak. Bugungi kun psixologik-pedagogik tajribalar tarbiyasi qiyin bolalarga yordam ko‘rsatish uchun quyidagi tartibda ish tutishni taqazo etmoqda:

Yosh jihatlariga qarab proflaktika va psixokorreksiya ishlarni boshlash talabi.

Chunki, tarbiyasi qiyin bolalarga o‘smirlik yoshiga xulqdagi buzilishi qat’iy shakllangan bir davrda proflaktik va korreksion tadbirlarga qo‘l uriladi. Aslida xulq-atvorida rish yaqqol namoyon bo‘lgan davrida unga chora ko‘rishni kutib

o'tirmaslik lozim. Shu bois boshlang'ich maktab yoshdayoq maqsadli proflaktika va psixokorreksiya ishlarini boshlash maqsadga muvofiq. Balki undanda oldin.

Ishni differensial va individual tashkil etish.

Bunda bolalarning tarbiyaviy-proflaktik jarayonda yosh va jinsiga qarab differensial hamda ularni har birini individual xususiyatlarga qarab ishni rejalashtirish.

Yordam faoliyatida xilma-xillikni ta'minlash, ya'ni vaziyat, shart-sharoitga qarab usullar, vositalardan keng foydalanish.

Insoniylik munosabati bilan yondoshish. Bolalar bilan ishlayotganda ularni har bir toifasiga qanday millatga xosligi, dunyoqarashi, dinidan qat'iy nazar uning qiziqishlarini hisobga olib, unga ochiq ko'ngillik va o'ziga ishonch ortirish yo'li bilan munosabat o'rnatish lozim.

Mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan tarbiyaviy-proflaktik tadbirlarni o'tkazish jarayonida ularni ijtimoiy—madaniy va iqtisodiy vaziyatlarga tayanib, u tashkil etilayotgan mintaqaning xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Albatta, yuqorida sanab o'tilgan talablar umumiydir, ammo tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlayotgan vaqtda ularga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish uchun bir qator uslub va amallardan foydalanishni bilish lozim.

Tarbiyada ta'sir ko'rsatish usullariga ya'ni taqdirlash va jazolash yo'llariga alohida e'tibor beriladi. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash jarayonida ham pedagog-tarbiyachilar ulardan samarali foydalanishlariga to'g'ri keladi. Taqdirlash bola xatti-harakatlarida ijobiy sifatlarni tarkib topishi va mustahkamlanishi uchun, jazolash esa ixtiyor etilmaydigan salbiy xususiyatlarni oldini olish va ulardan ogoh etish maqsadida foydalaniladi. Jazolash adolatli va bolaning shaxsini kamsitmagan holda samarali tashkil etilishi zarur.

Tarbiyaviy vositalar orasida tarbiya amallari borki, ularni samarali qo'llash ijobiy natijalarga olib keladi.

Tarbiya amallari tarbiya uslublarining tarkibiy elementlari bo'lib, ular bolaga ta'sir samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Biz tarbiyasi qiyin bolalar bilan

ishlash jarayonda mutaxassislar bir qator tarbiya amallaridan foydalanishlari o‘rinlidir deb hisoblaymiz.

Tarbiya amallari. Bizning izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz tarbiya amallarini maqsad va yo‘nalishidan kelib chiqqan holda ularni quyidagi uch guruhga ajratishimiz.

Birinchi guruhga tarbiyachining tarbiyalanuvchiga murojaat etishi orqali uning shaxsiy ehtiyojlarini aniqlash yordamida tashkil etiladigan amallar.

Bu amallar toifasiga yordam ko‘rsatishga ehtiyojni aniqlash kiradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchiga maslahat ma‘nosida murojaat qilib, o‘z muammolari haqida so‘zlab berishini so‘raydi va shu asnoda muammoning yechish yo‘llarini topadi.

Yaxshi xatti-harakatlarga yo‘nalish berish amalidan tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarga yordam zarur bo‘lganda ko‘mak beradilar. Bunda ijobiy xatti-harakatlarga alohida urg‘u beriladi.

Hayot istiqbolini belgilashga ko‘maklashish amali. Pedagog suhbat jarayonida tarbiyalanuvchining hayot rejalariga aniqlik kiritadi. Shundan so‘ngra tarbiyalanuvchining rejalarini amalga oshirishiga ko‘mak beriladi.

O‘zi va boshqalar haqida so‘zlab berish amali. Tarbiyalanuvchiga o‘tgan kunlari haqida hikoya yozish tavsiya etiladi. Shundan so‘ngra ularga boshqacha yashash mumkinligi haqida suhbatlashiladi.

Mening idealim. Suhbat jarayonida tarbiyalanuvchilarning ideali aniqlanadi va uning ijobiy axloqiy sifatleri ajratilib baholanadi.

Tarbiyalanuvchilar uchun ertak. Bu ertakterapiya g‘oyalarini bajarish uchun foydalaniladi. Tarbiyachilar qahramonlar tarbiyalanuvchilarga va ularning atrofdagilariga o‘xshagan kishilar ishtiroki to‘g‘risida ertak tuzadilar. Ertak oxirida pedagog va o‘quvchilar o‘zaro mulohaza yuritadilar.

Ikkinchi guruhga guruhliy faoliyatni tashkil etishga asoslangan tarbiya amallarini kiritish mumkin.

Ushbu toifa tarbiya amallaridan biri fikrlar estafetasi bo'lib, o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha zanjirsimon tarzda biridan keyin ikkinchisi so'zlaydi, bir-birini to'lg'azadi, aniqlik kiritiladi.

O'zini o'zi ruhlantirish amali. O'quvchilar guruhlariga ajralib, bir-biriga ma'lum savollar bilan murojaat qiladilar, Berilgan savol va javoblar solishtirilib, so'ngra muhokama qilinadi.

Erkin mavzuda suhbatlashish amali. Bunda har bir tarbiyalanuvchi o'zi qiziqadigan biror mavzu bo'yicha hikoya tuzadi va guruhdagilarga hikoya qilib beradi.

Uchinchi guruhga o'qituvchilarning o'quvchilarga atrofidagi muhitni o'zgartirishga yo'naltirilgan tashkiliy faoliyatlariga qaratilgan amallar kiritiladi.

Ko'rsatma berish amali. Tarbiyalanuvchilarga muomalaga va xulq-atvor qoidalariga tayanib, berilgan topshiriqlarni bajarish so'raladi. Tarbiyalanuvchilar o'yin qoidalariga muvofiq o'z mulohazalarini bildirishlari mumkin. Takliflar jarayonida har bir tarbiyalanuvchining mavqeini himoyalash inobatga olinadi.

Rollarni taqsimlash amali. Ushbu tarbiya amalida tarbiyalanuvchilar berilgan mavzuni bilishiga qarab rollar taqsimlanadi va ular topshiriqni bajarishi so'raladi.

Bundan tashqari uchinchi guruhda topshiriqlarga tarbiyalanuvchilar ijodiy yondashtirish maqsadida har xil obrazli o'yinlar tarzidagi amallardan foydalanish mumkin.

Umuman bola tarbiyasida har bir kichkintoyga shaxs sifatida qarab, fazilatlaridan kelib chiqib amallarni bajarishga yo'naltirish, har biriga e'tiborni kuchaytirish va amallar doirasini kengaytirish lozim.

Nazorat uchun savollar.

1. Ota-ona, maktab va o'qituvchi hamkorligidagi harakat ta'limni qo'llab quvvatlashning samarali usulidir
2. Ota-onalarga ko'magi bilan nimalar qilish mumkin?
3. Tarbiyasi qiyin bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish tartibi

XV BOB. OG'IR XASTALIKKA CHALINGAN BOLALARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMINING TARKIBIY TUZILISHI

15. 1. Og'ir xastalikka chalingan bolalar

Gospital ta'lim - uzoq muddatli davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarni o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogikaning bo'limidir. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi bo'lib, o'z e'tiborini o'quvchilarning alohida toifasiga — uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi.

Pedagogikaning ushbu yo'nalishini amalga oshirish va rivojlantirishning murakkabligi idoralararo mansubligi bilan belgilanadi: ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya, — chunki kasalxonada uzoq muddatli davolanayotgan bola birinchi navbatda bemor, ikkinchidan — o'quvchi. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtirish keng qamrovli reabilitatsiyani anglatadi.

Davolanish bilan birga ta'limga qaytish onkologik kasalligiga chalingan bola uchun ijobiy taassurot qoldirishi mumkin, ammo shu bilan birga u sinfdoshlari orasida yo'qligi, tengdoshlari bilan muloqotning uzilishi, davolanishning nojo'ya ta'sirlari, zaiflik bilan kurashish zarurati kabi qiyinchiliklarni boshidan kechiradi.

Bolaga onkologik kasallik tashxisi qo'yilganda, uning eng yaqin qarindoshlari moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishadi, ular jismoniy, ruhiy salomatlik va farovonlik nuqtai nazaridan hayot sifatini pasaytiradi va ijtimoiy o'zaro ta'sirni yomonlashtiradi.

Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi. Gospital ta'limning boshlang'ich sinf darslarida bolani qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz

yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun birinchi navbatda, gosptal ta'lim o'quvchisini umumiy holatidan kelib chiqqan holda o'qish, bilim olishga ishtiyoqini o'stirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish zarur.

Darsning rejasi har bir o'quvchining imkoniyat va qobiliyatlariga moslashtirilgan holda, individual tarzda tuziladi. Baholashda birinchi o'ringa o'quvchining umumiy holati, shaxsiy sifatlari, ko'nikmalari, ya'ni tanqidiy fikrlash, jamoa oldida ma'ruza qila olish, jamoada ishlay olish, liderlik, savodxonlik darajasi, kitobxonlik, nostandart sharoitdan chiqib keta olish, kutilmagan muammolarni yechishda kreativlik kabi sifatlarni hisobga olinadi.

Qayd etilgan barcha sifat va kompetensiyalar akademik bilimlar bilan birga baholanadi.

Dars – hozirgi zamon o'quv – tarbiya jarayonida ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. O'tkazilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchilarni ham qanoatlantirish uchun javob berish kerak.

Dars – yaxlit tizim, uning tuzilish jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar, mazmun, shakl, uslub va vazifalari yuzaga chiqadi. Yaxlit tizimni tuzish uchun o'qituvchi darsni rejalashtirish, unga yaxshi tayyorgarlik ko'rish kerak.

Boshlang'ich sinflarda darslar kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmunida o'ziga xos hamda o'quvchi shaxsida o'ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, ta'lim tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bolalarni savodga o'rgatishda tahlil-tarkib qilishga undovchi mantiqiy topshiriqlardan foydalanish orqali o'quvchilarning fikrlash doirasi kengaytiriladi. Fikrlash jarayonida o'quvchilar tafakkur yuritish orqali qator mantiqiy amallarni bajaradilar.

Inson dunyo qarashining tabiiy-ilmiy asosini tabiat haqidagi bilimlar tashkil qiladi. Yosh o'quvchilar atrof-olam tog'risidagi dastlabki bilimlarni anglayotganda hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan bilimlar hajmini his qiladilar. Fanlarni birlashtirish bu muammoni hal qilishga imkon beradi. Olamda sodir bo'layotgan turli hodisa va jarayonlarni tushuntirishda tabiiy fanlarni o'zaro bog'lash asosida tabiatning turli jihatlarini tasvirlaydigan modellardan foydalaniladi. Fanlarni o'zaro bog'lab, olamda sodir bo'layotgan turli hodisa va jarayonlar haqidagi tushunchalarni kichik maktab yoshi dan anglashda "Tabiiy fanlar" darsligi o'quvchiga katta yordam beradi.

Tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi – olamning ilmiy manzarasi haqidagi tasavvurni yaratish; bilimning ilmiy usulini o'zlashtirish va uni zamonaviy inson qadriyatlari tizimiga kiritishdir.

Kichik yoshdagi o'quvchilar jamiyat hayotini o'yin orqali anglaydilar. O'yin vaziyatlari ularga ortiqcha tushuntirish va nasihatlarsiz xulq-atvor qoidalarini amaliy jihatdan oson, maroqli tarzda o'rganishga yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, darslarni turli xil ta'limiy o'yinlar va metodlardan foydalangan holda tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni "Bumerang" texnologiyasi, "Arra", "O'z o'rnini top", "FSMU", "Nima uchun?", "Ikki qismli kundalik" metodlari, , "Pinbord" usuli, "She'rni tikla" kabi mashqlaridan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi. O'quvchilar maktabda o'rganishi lozim bo'lgan barcha kasblarning muhimligi, zarurligini qulay va qiziqarli shaklda ochib berishi zarur. Ana shu maqsadda maktab ustaxonalariga, korxonalarga ishlab chiqarish ekskursiyalari uyushtirish tavsiya etiladi.

O'quvchilar bu yerda ommaviy ishlab chiqarish ishlari, o'z ota-onalarining mehnati bilan dastlabki tarzda tanishadilar. Ota-onalar bolalarga ta'lim berishning muvaffaqiyati o'quvchilarning o'zlariga taklif etiladigan mehnat topshiriqlarini o'zlashtirishga, olingan bilimlar asosida mashqlar bajarishga qanchalik tayyorgarligi bog'liq bo'ladi. Bunday bolalar o'z psixologik rivojlanishlari xususiyati tufayli barcha ish bosqichlarini zarur darajada chuqur o'zlashtirmasligi mumkin. Masalan, o'quvchi buyumning tayyorlashning butun jarayonini esda

saqlab qololmasligi mumkin. Shu sababli ish tushuntirib beriladi, ayrim usullar operatsiyalar bo'yicha namoyish qilinadi. Bundan maqsad bola butun ish jarayonini yaxlit va har bir detalni alohida tasavvur qila olsun. Tuzatish va yo'naltirish vazifasini hal qilishda o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdi-ki, gospital maktablarda o'qigan o'quvchilarning 85 foizi o'z qiziqishlari va orzulari haqida so'zlab bergan bo'lsa, maktabga qatnamagan bemor bolalarning 10tadan faqat 2 tasigina kelajak rejalari haqida so'zlab bergan. Mazkur olingan ma'lumotlar ham gospital ta'lim va gospital maktabning bemor bolalar hayotida naqadar muhimligini ko'rsatib beradi.

Shunday ekan, gospital maktab o'quvchilariga mukammal emas, hayotdan xursand pedagog kerak. Aynan shunday pedagoglar ularni zavq bilan maktabga kelishga va ishtiyoq bilan bilim olishga undaydi.

Imkoniyatlari cheklangan shaxslar mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning kasbiy ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart –sharoitlar yaratish pedagog xodimlarning asosiy vazifasi. Shunday ekan davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb-hunar dasturlarini amalga oshirishda o'quvchilarning tanlangan kasbga muvofiq o'qishni, ta'limning navbatdagi bosqichlarida davom ettirish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun zarur va yetarlicha bo'lgan bilimlari va kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish talab etiladi.

Ta'lim jarayoni kasbiy va amaliy ko'nikmalar bilan birga o'quvchilar shaxsining shakllanishiga, ularning ijtimoiy moslashuviga va jamiyatga uyg'unlashuviga ko'maklashadi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni tanlangan kasblari bo'yicha o'qish muddati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tegishli mutaxassisliklari va kasblari bo'yicha imkoniyatlari cheklangan shaxslar o'qishi uchun zarur va yetarli o'quv yuklamasining umumiy hajmi hisobga olingan holda belgilanadi. Bunda tanlangan kasblarning soni va murakkabligi e'tiborga olinadi. O'quvchilarni o'qishga qabul qilish, ularning o'qish yo'nalishlarini ixtiyoriy tanlashi hisobga olingan holda umumiy o'rta ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'qishga qabul qilishda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mutaxassisliklari va kasblar ro'yxatiga muvofiq tibbiy tavsiyalar hisobga olinadi.

1. "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (BBB) grafik organayzeri (GO)

Bilaman Bilishni xohlayman Bilib oldim

15. 2. Inklyuziv ta'limda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish.

Inklyuziv ta'lim jarayonida sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda ayrim nuqsonlari bor bo'lgan o'quvchilarning ham bilim olishlari ijobiy natijalarni berayotganligi kuzatilmoqda. Inklyuziv ta'limning asosiy yutug'i shundaki o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki ruhiy jihatdan ham o'z tengdoshlariga yetib oladi. Inklyuziv ta'lim jarayonida rivojlanishida nuqsoni bor bolalar sog'lom tengdoshlari bilan birdek harakat qilib, kelajakda hayotda o'z o'rinlarini topishga harakat qiladilar. Bu bilan imkoniyati cheklangan bolalarni ham o'z tengqurlari kabi kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasida ham inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilganligi keltirib o'tilgan [1].

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'limdir.

Imkoniyati cheklangan bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish nafaqat ularga hayotda o'z yo'lini topishga yordam berish, balki kelajakda bandlik muammolarini ham hal qilishdan iborat.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Buni to'g'ri anglash va yosh avlodni ish o'rinlariga to'g'ri taqsimlash jamiyat rivojining eng muhim jihatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-sonli qaroriga muvofiq:

- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufida professional ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda barcha hududlardagi kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha har chorakda qisqa muddatli kurslar tashkil etilmoqda. Bunda, qisqa muddatli kurslarning o'quv dasturlari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarni inobatga olgan holda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi, O'zbekiston nogironlar jamiyati, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati hamda O'zbekiston karlar jamiyati bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi.

- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham tavsiya etilgan va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar, xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi va kompyuterda dasturlash asoslari bo'yicha doimiy ravishda o'quv kurslarini tashkil etmoqda. Bunda, o'quv kurslarini tashkil etishda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bino-inshootlarni moslashtirish, tegishli shart-sharoitlarni yaratish, jihozlash, o'quv qurollari va o'quv metodik materiallar bilan ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda xorijiy grantlar va xalqaro kreditlar hisobidan amalga oshiriladi [2].

Har bir yosh bola (yoki o'quvchi) yoshligidanoq ma'lum bir kasb-hunarni egallashga intiladi, biroq aksariyat hollarda kelajakdagi egallamoqchi bo'lgan kasb-hunarlar haqida ma'lumot olishlari qiyin bo'lishi mumkin. Buning uchun maxsus pedagog va psixologlardan quyidagilarni inobatga olish talab etiladi:

- bolaning kasb-hunarlar haqida tasavvurini baholash;
- bolaning yoqtirgan kasbining o'ziga mosligini o'rganish;
- uning tanlagan kasbiga yaqin (yondosh) kasblarni ham bilish;
- tanlagan kasbini egallash imkoniyatini hisobga olish;
- bolaning sevgan kasbi haqida imkon qadar ko'proq ma'lumotlar berish;

- ularni ertangi kunga nisbatan ishonchini oshirish.

Yuqoridagi sanab o'tilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha rejalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur rejalarda amalga oshiriladigan suhbat, trening va boshqa jihatlarni faqatgina bitta o'qituvchi tomonidan emas, balki bir nechta o'qituvchi tomonidan amalga oshirish yaxshi samara beradi.

Mavjud nazariyalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, imkoniyati cheklanganlik bir tomondan insonni ma'lum bir ehtiyojlaridan cheklab tursa-da, boshqa bir tomondan ularni jamiyatda faol bo'lishga, ilmiy-ijodiy faoliyatda o'z bilimlari, ko'nikmalari va iste'dodlarini ko'rsatishga undaydi. Misol uchun, Brayl tizimi asosida jahondagi minglab ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar bilim olmoqdalar. Ular bilan tizimli ish olib borish esa bilim, ko'nikma, malakalarni to'g'ri shakllanishiga turtki bo'ladi [3].

“Kelajakda kim bo'lmoqchisan?” yoki “Qaysi kasbni egallamoqchisan?” kabi savollar bilan rivojlanishida ayrim nuqsoni bo'lgan aksariyat bolalarga murojaat qilsangiz, deyarli hamma bolalarda ikkilanish holatlarini kuzatishingiz mumkin. Shu bois, yakka tartibda suhbatlar o'tkazish afzal bo'lib, bu esa ijobiy natijalarga olib keladi.

Ma'lum bir kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishda ana shu nuqsonlarni sezdirmaslikka harakat qilish o'qituvchi (logoped), tarbiyachi va psixologlarning mahoratlariga bog'liq. Bunday hollarda shunday yo'l ko'rsatish kerakki, bolalar o'sha kasbhunardan bezib qolmasin va unga bo'lgan qiziqishlarini so'nmasin.

Bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishda muhim jihatlardan yana biri ularning yosh davrlarini ham hisobga olish zarur. O'smirlik davrida aksariyat kamchiligi bo'lgan bolalar ruhiyatida ta'sirchanlik bo'lib, har bir so'zga alohida e'tibor qaratadilar. Ayrim olimlar bu davrni o'smirlikning inqiroz krizis bosqichi deb ataydilar. Ana shu davrda bolani kasb-hunarga to'g'ri yo'naltira olish shu kasbga bo'lgan munosabatni bir umr saqlab qolishga sababchi bo'ladi.

Kasb-hunar tanlash o‘smir bolalarning balog‘atga yetish davri bilan birgalikda hamohang bo‘lib, orzu-umidlarga berilish hamda qiziqishlardan kelib chiqadi. Biror bir kasbni ongli ravishda tanlashda, birinchi navbatda, u yoki bu mehnat turiga nisbatan ehtiyoj inobatga olinsa, ikkinchi tomondan shaxsiy moyillik va qobiliyatlarni hisobga olish talab etiladi. Insonning shaxsiy sifatlari u yoki bu kasb-hunar talablariga qanchalik muvofiqligi nazarda tutiladi. Kasb-hunarni tanlashda ishlab chiqarish jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish bilan birgalikda ma‘naviy-axloqiy jihatlarni, ya‘ni ma‘lum bir kasb-hunarni egallashga bo‘lgan ishtiyoqni ham shakllantirishi muhimdir.

Xulosa o‘rnida, imkoniyati cheklangan bolalarni kasb-hunarga jalb qilishda quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- imkoniyati cheklangan bolalar uchun kasb-hunar o‘rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va to‘liq ifodalash;
- tegishli kasblar yuzasidan maslahatlar berish, o‘quvchi va uning ota-onasi bilan uning jismoniy imkoniyatiga qarab kasb-hunarga yo‘naltirish tadbirlarini ishlab chiqish;
- bolalarning imkoniyatlariga mos asosiy kasb-hunar turlari bilan tanishtirib borish;
- imkoniyati cheklangan bolalarni mehnat ta‘limi darslari davomida kasb-hunarga tayyorlash va ularda muayyan kasblarga nisbatan qiziqishlarni uyg‘otish;
- kasb-hunar tanlashga yordam beruvchi “ochiq eshiklar kuni” tadbirlarini tashkil qilish, bu jarayonga yetakchi mutaxassislarni jalb qilish;
- o‘quvchilarda kasblar olami bilan tanishish jarayonida o‘zi sevgan kasb xususiyatlari bilan yaqindan tanishish maqsadida turli o‘yinlar orqali kasb doirasida o‘zini sinab ko‘rish imkoniyatini yaratish, buning uchun kasblar olamiga taalluqli rol o‘yinlar tashkil etish;
- imkoniyati cheklangan bolalar uchun zamon talablariga javob beradigan maxsus kasbhunar tanlash xonalarini tashkil etish;

- ommaviy axborot vositalari orqali kasb tanlash yuzasidan targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish hamda bu masalada imkoniyati cheklangan bolalarga ma'lumotlar berish, ularni psixologik tayyorlash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

15.3. Rivojlanishning og'ir va ko'p kasalliklari bo'lgan bolalar bilan o'quv jarayonini amalga oshirish xususiyatlari (ROKKBB) .

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi esa - ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

- inklyuziv ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish (maqsadli malaka oshirish kurslari);
- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlarini joriy etish, inklyuziv ta'lim metodikasiga oid o'quv materiallarini takomillashtirish;
- inklyuziv ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirish, inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta'lim berishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish (olg'or xorijiy tajribalarni o'rganish);
- o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish (metodik qo'llanma va tavsiyalar);
- inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo'lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

- inklyuziv ta'limni joriy etishda avvalo chekka hududlarda joylashgan, o'quvchilar soni kam bo'lgan umumta'lim maktablaridagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitishga e'tibor qaratish;

- inklyuziv ta'lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirish va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qo'shimcha pedagogik ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish;

- xalq ta'limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo'yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish, ularga inklyuziv ta'limni amalga oshirish mexanizmlarini ko'zda tutuvchi o'quv kurslarini kiritish;

- masofaviy kurslarni yo'lga qo'ygan holda, inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini kuchaytirish va qamrovini kengaytirish;

- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul parametrlarini oshirish;

- inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida yosh o'qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o'sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

Inklyuziv ta'limda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

- Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga erishish:

- inklyuziv ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun sog'lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun sport to'garaklarini tashkil qilish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ota-onalar o'rtasida inklyuziv ta'lim tizimi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish;

- rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik (bulling) ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash zarur;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks choratadbirlarni o'z ichiga olgan tashabbusni amaliyotga tatbiq etish:

- "Barkamol avlod" bolalar maktablari to'garaklarida inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining qamrovini oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning madaniyat, san'at, sport va boshqa yo'nalishlarda erishgan yutuqlari to'g'risida targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.

O'quvchining sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, sog'lom va sog'lig'i bilan bog'liq muammolari bo'lgan o'quvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi imkoniyatlarini oshirishga e'tibordan chetda qolmasligi kerakligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Hozirgi vaqtda inklyuziv ta'lim subyektlarini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mazmuni o'rganishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayon alohida ta'lim ehtiyojli bolaning ijtimoiy muhitga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashga, uning o'zini o'zi belgilashiga, o'zini o'zi anglashiga, o'zini o'zi tasdiqlashiga hissa qo'shishga qaratilgan barcha ta'lim subyektlarining faoliyati bilan o'zaro bog'liqdir. Psixologik va pedagogik yordam muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish va har qanday ta'lim tashkiloti talabalarining shaxsiy hayoti va kasbiy o'zini o'zi belgilashi bilan bog'liq turli vaziyatlarda maqbul yechimlarni tanlashning zaruriy shartidir.

Inklyuziv ta'limning barcha ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo'llabquvvatlashni samarali tashkil etish g'oyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- inklyuziv ta'limni umumta'lim muassasalarining amaliy faoliyatida rejalashtirish va amalga oshirish uchun asos sifatida qo'llab-quvvatlashning xilmaxilligini hisobga olish;

- o'zaro bog'liq bo'lgan bosqichlarni aniqlash asosida qo'llab-quvvatlash jarayonini yaratish: strategiyalar, taktikalar va texnikalar;

- yuqorida qayd etilgan ta'lim muassasalari uchun aniq texnologiyalar, mos uslub, yo'l va vositalarni ishlab chiqish;

- ta'lim muassasalarining integratsion faoliyatini rivojlantirish sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash jarayonini takomillashtirilib boriladi.

Shunday qilib, ta'lim jarayoni qo'llab-quvvatlash obyekti bo'lib, bolaning tashqi dunyo, atrofdagi odamlar (kattalar va tengdoshlar), o'zaro munosabatlar tizimi va ularni rivojlantirish, tuzatish, tiklash hamda qo'llab-quvvatlash predmeti hisoblanadi.

Yuqoridagilar bizga inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim jarayoni ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning bir qator yetakchi tamoyillarini aniqlash imkonini beradi.

- alohida ehtiyojli bolani rivojlantirishning har qanday muammosini hal qilishda kompleks, fanlararo yondashuv;

- ta'lim va tarbiya ishlarida dastur va yondashuvlarni o'zgartirish;

- oddiy bolalarning ham, alohida ehtiyojli bolalarning ham qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda individual va jamoaviy faoliyatning turli xil turlarini tashkil qilish;

- uyg'unlashgan rejimda ishlaydigan o'qituvchilarning professionalligi va malakasi;

- o'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilarning bir-birini to'ldiruvchi faoliyati;

- alohida ehtiyojli bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

- ta'lim jarayonida alohida ehtiyojli bolaning rivojlanishini doimiy qo'llabquvvatlash kafolati;

- hududiy xususiyatlarni, hududdagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda.

Umuman olganda, alohida ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb qilishni qo'llabquvvatlash jarayonining muvaffaqiyati bir qator shartlarga bog'liq bo'ladi, ya'ni:

- bolalar rivojlanishidagi og‘ishlarni erta ijtimoiy-psixologik va pedagogik tuzatish;

- umumiy turdagi maktabgacha va maktab ta’lim muassasalarida zarur dasturiy ta’minot, uslubiy va kadrlar bilan ta’minlanganligi;

- tabaqalashtirilgan ta’lim jarayonini yaratish, o‘qitish va ta’lim dasturlarining yuqori o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligi;

- bolalar jamoasida, shuningdek, o‘qituvchilar va bolalar, o‘qituvchilar va otaonalar o‘rtasida qulay shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va qo‘llabquvvatlash.

Ushbu shart-sharoitlar majmuasi alohida ehtiyojli bolalarning inklyuziv ta’limini qo‘llab-quvvatlash, ularni rehabilitatsiya qilish va shaxsiy salohiyatini integratsiyalashning samarali tizimini yaratishga yordam beradi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarning inklyuziv ta’limini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy umumiy maqsadlari quyidagilar:

- bolaning rivojlanishidagi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olish;
- bolaga rivojlanish, tarbiya va ijtimoiylashuvning dolzarb muammolarini hal qilishda yordam berish;

- individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- ta’lim dasturlarini psixologik qo‘llab-quvvatlash;
- adekvat o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantirish;
- jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- o‘qituvchilar, ota-onalar, o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini (psixologik madaniyatini) rivojlantirish;

- jamiyatda alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish.

Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim tizimiga qarab, psixologikpedagogik yordamning mazmuni o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Maktabgacha ta’lim bosqichida rivojlanish buzilishlarini erta tashxislash va tuzatish, sog‘lig‘ida muammolar bo‘lgan bolalarning integratsiya sharoitida maktabda o‘qishga tayyorligini psixologik qo‘llab-quvvatlash zarur.

Boshlang'ich sinf ta'limi bosqichida maktabda o'qishga tayyorgarlikni aniqlash, maktabga psixologik moslashuvni ta'minlash, o'quvchining o'quv faoliyatiga qiziqishini rag'batlantirish, kognitiv va o'quv motivatsiyasini rivojlantirish, istakni shakllantirishga yordam berish muhimdir. Undan tashqari o'rganish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ham juda muhimdir.

Boshlang'ich sinf darajasida - alohida ehtiyojli o'quvchini qo'llab-quvvatlash, yangi o'quv sharoitlariga moslashish, shaxsiy muammolar va ijtimoiylashuv muammolarini hal qilishda yordam berish, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, nevrozning oldini olish, konstruktiv munosabatlarni o'rnatishga yordam berishdan iborat. Ota-onalar va tengdoshlar bilan, deviant xatti-harakatlarning oldini olish.

Yuqori sinfda kasbiy o'zini o'zi belgilash, ekzistensial muammolarni hal qilishda yordam berish (o'zini o'zi bilish, hayotning ma'nosini izlash, shaxsiy o'ziga xoslikka erishish), vaqt nuqtai nazarini rivojlantirish, rivojlanish psixosoz ijtimoiy kompetensiya va deviant xatti-harakatlarning oldini olish.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish jarayonida integratsiya nuqtai nazaridan ta'lim-tarbiya va rivojlanish muammolarini hal etishda alohida ta'lim ehtiyojli bolaga zarur psixologik-pedagogik yordam ko'rsatuvchi sinf rahbari, maxsus o'qituvchi, psixolog, tyutor yetakchi rol o'ynaydi. Ular faoliyatining asosiy maqsadi alohida ta'lim ehtiyojli bolaning noto'g'ri moslashishini oldini olish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan muammoli o'zaro munosabatlarda tanqidiy vaziyatlarning paydo bo'lishi.

Shunday qilib, turli darajadagi qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning o'tish bosqichlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Nazorat uchun savollar.

1. Og'ir xastalikka chalingan bolalar qanday yordam beriladi?
2. Inklyuziv ta'limda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish deganda nimani tushunasiz?
3. Rivojlanishning og'ir va ko'p kasalliklari bo'lgan bolalar bilan o'quv jarayonini amalga oshirish xususiyatlari nimalar kiradi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-sonli qarori. 2021 yil, 21 dekabr.
3. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent – 2021 yil.
4. Efimenkova L.N. Formirovanie rechi doshkolnikov: (deti s ONR). 2-e izd., pererab. M., Prosveshenie, 1985
5. Ippolitova G.V. Otkritaya rinolaliya. M., 1983.
6. Kashe G.A. Podgotovka detey k shkole s nedorozvitiem rechi: Posobie dlya logopedov. M., prosveshchenie, 1986.
7. Lalaeva R.I. Narushenie protsessa ovladeniya chteniya u shkolnikov. M., 1983.
8. D.R. Babayeva «Nutq o`stirish metodikasi» Fan va texnologiya T.; 2009 yil
9. F.R. Qodirova «Nutq o`stirish metodikasi» O`UM T.; 2012 yil (electron)
10. Q. Shodiyeva O`rta guruh bolalari nutqini o`stirish T.: O`qituvchi 1993yil.
11. M. Asqarova va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirish T.: 2001yil.
12. Masaru Ibuka. Uchdan keyin kech. T., "Akademnashr". 2019. 264 b.
13. Bekker.K.P., Sovak M. Logopediya. M., 1981 y.
14. Vinarskaya E.N., Nulatov A.M. Dizatriya i ee topikodiagnosticheskoe znachenie v klinike ochagovyx porajeniy mozga. Tashkent, 1973 y.
15. Ermakova I.I. Korrektsiya rechi pri rinolalii u detey i podrostkov. M., 1984

16. Pekttra Spandagou, Cathy Little, David Evans, Michelle L. Inklusive Education in Schools and Early. Childhood Settings.springer Springer Singapore. 2020.

17. Инклюзивное образование в Испании. Пашкова.М, Скуднова. Т.Д.2018.

18. Екатерина Михальч. Инклюзивное образование. 2021.

19. Наталья Микляева, Татьяна Чудесникова, Анна Виленская, Ольга Кудравец, Светлана Семенака. Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями здоровья. Москва Юрайт. 2021.

20. Nurmuhamedova L.SH. Nogiron bolalarning huquqiy asosalari va ilmiy-nazariy masalalari. Defektolog kadrlarni tayyorlash jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish: muammolar va istiqbollar.-T.,2014

Elektron resurslari

https://youtu.be/deykWH1xN_U

<https://mover.uz/watch/bwXG3uD/>

www.tma.uz.

www.asab.uzwww.neuropsychology.com

Mavzuga oid glossariylar:

Agrafiya -yozuvning buzilishi, bunda o'quvchi harflarni bo'g'inlarga va bo'g'inlarni so'zlarga qo'shish ko'nikmasini hosil qila olmaydi; bunda harflar va bo'g'inlarni tashlab ketish, so'zlarni buzib yozish hollari kuzatiladi. Tayyor matnni ko'chirib yozishda qiyinchilik sezilmaydi. Agrafiya ko'pincha nutq buzilganida uchraydi va ko'p hollarda fonematik eshitishning yetarli kam gapmasligi bilan bog'liq bo'ladi.

Adekvat-muayyan vaziyatlarga, hodisalarga mos kelish.

Akalkuliya-hisoblash qobiliyatining buzilishi, bu hoi bosh miya so'l yarim sharining old va orqa qismlari yetarli kamol topmasligi yoki kasallanishi oqibatida vujudga keladi.

Alaliya-eshitish qobiliyati saqlangan va intellektning organik tarzda izidan chiqmagan holda bolalar nutqining buzilishi. Alaliya ikki turli bo'ladi: 1) **motorli**, bunda nutqni tushunish saqlanadi, ammo uning talaffuz tomoni buziladi; 2) **senorli**, bunda bolalar nutqni tushunmaydilar va nutqning talaffuz tomoni buziladi. Alaliyaga bachadondagi davrda yoki kamol topish-nutqni egallaguncha bo'lgan ilk bosqichlarida miya qobig'idagi nutq qismlarining organik buzilishi sabab boladi. Bola nutqni egallaganidan keying nutq buzilishining xuddi shu turi afazi deb ataladi.

Aleksiya -o'qish qobiliyatining buzilishi, bu hol miya qobig'i nutq zonalarining organik kasallanishi oqibatida ro'y beradi.

Ambliopiya-ko'ruv analizatorining funksional buzilishlari natijasida ko'rish qobiliyatining pasayishi.

Analizatorlar-inson va hayvonlarning nerv mexanizmlari, bular yordamida tashqi va ichki muhitdan keladigan ta'sirlar idrok etiladi va analiz qilinadi. Sezgi organlarining hammasi-ko'z, quloq, hid bilish, sezish, ta'mni bilish organlari analizatorlar jumlasiga kiradi. Har bir analizator quyidagilardan iborat bo'ladi: 1) periferik qism yoki retseptor, ya'ni ta'sirni idrok qiluvchi pribor; 2) qo'zg'alishni retseptordan markaziy nerv sistemasiga yetkazib beruvchi nerv tolalari; 3) bosh miya yarim shari qobig'idagi oliy markaz.

Anamnez-ota-onadan yoki bolani tarbiyalovchilardan bola hayotining hamma bosqichlarida, shu jumladan, homiladorlik va tug‘ish davrida, uning o‘shish tarixi haqida vrach-pedagog yoki psixolog oladigan mufassil ma’lumotlar. Anamnezni, to‘plash vaqtida bolaning nasl-nasabi, uning qaysi kasalliklarga chalingani haqida, nutq, motorika, o‘yin var bilish faoliyati haqida, o‘qishi, ishi va yurish-turishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar aniqlanadi.

Anomaliya-kamol topishning umumiy qonuniyatlaridan chetga chiqish.

Apatiya-loqaydlik, ruhsizlik holati, qiziqishlarning bo‘lmasligi, ma’yuslik.

Artikulyatsiya-nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida nutq organlarining ishi (lab, til, tanglay, tovush pardalari, tomoq nervlari va mushaklari).

Assotsiatsiya-tasavvurlarning (psixologik) bog‘lanishi; ongda vujudga kelgan tasavvur o‘ziga o‘xshash, yondosh yoki qarama-qarshi tasavvur tug‘diradi.

Asteniya-yuqumli, somatik kasalliklar yoki miyaning lat yeyishi oqibatida vujudga keladigan, tez charchashlik, jahldorlik va ish qobiliyatining pasayishida ma’lum bo‘ladigan asabiy-ruhiy zaiflik.

Asfiksiya-bo‘g‘ilish. Bolalarda asfiksiya tug‘ilish vaqtida ona organizmidan plansent (yo‘ldosh) orqali kislorod kelishi to‘xtab qolishi oqibatida, bolaning o‘zida o‘pka bilan nafas olish hali boshlanmagan paytda vujudga keladi. Asfiksiya vaqtida nafas olish to‘xtab qoladi, yurak faoliyati buziladi. Sun’iy nafas olishdan va qo‘zg‘atuvchi doiralardan foydalanib, chaqaloqning hayoti saqlab qolinadi. Chuqur va uzoq davom etadigan asfiksiya bolaning halokatiga yoki uning umumiy kamol topishining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Affekt-ruhiy xastalikka sabab bo‘ladigan vaziyatda to‘satdan vujudga keladigan asabiy-ruhiy qo‘zg‘alish. Affekt holatida bosh miya qobig‘ining nazorat qilish faoliyati birmuncha zaiflashadi. Affekt vaqtida yuz bo‘zarib yoki qizarib ketadi, ko‘z qorachig‘i torayadi yoki kengayadi, lab va qo‘l-oyoq titraydi. Affekt ko‘pincha nerv sistemasi barqaror bo‘lmagan kishilarda uchraydi.

Alahlash-ruhiy kasallik simptomi, bunda bemorning mulohazalari, gaplari real voqelikka to‘g‘ri kelmaydi va uni korreksiya qilib bo‘lmaydi. Ruhiy xastalik vaqtida alahlash ba’zan intellekt va yurish-turish uncha buzilmagan holda ro‘y

berishi, ba'zan esa yurish-turish keskin o'zgargan holda (patologik shubhalanish, ta'qib vasvasasi, o'zini o'ldirish fikri va hokazo) ro'y beradi hamda uzoq vaqt barqaror xarakterga ega bo'ladi. O'tkir infeksiyon kasalliklar, zahar yoki alkohol bilan zaharlanish vaqtidagi alahlash uncha uzoq davom etmaydi, o'qtin-o'qtin xarakterga ega bo'ladi va hushdan ketish, umumiy betoqatlik va gallutsinatsiya (miya chalg'ishi) bilan qo'shilib ketadi.

Brayl yozuvi-ko'zi ojizlar tomonidan qo'llanuvchi nutq shakli.

Brayl sistemasida o'qitish -ko'rlarni bo'rtma nuqtali shriftga asoslanib o'qitish sistemasi; bunda olti nuqtani turlicha joylashtirish yordamida bo'rtma yozuv sistemasi beriladi. Bu sistemaning asoschisi-Lui Brayldir (1809-1852). Brayl sistemasi harf, son va nota belgilarini, tinish belgilarini o'z ichiga oladi.

Bo'g'iz bo'shlig'i – traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Unda un paychalari va bir qancha tog'aylar mavjud. Bo'g'iz bo'shlig'i ovoz manbai hisoblanadi.

Grammatik sath – til ierarxiasining morfologik va sintaktik birliklardan iborat eng yuqori pog'onasi: so'z turkumlari, Grammatik ma'no va grammatik shakllar, so'z birikmalari va gap, ularning turlari va konstruksiya modellari.

Grifel-bigizsimon qalam.

Dars-o'qitishning vazifalari, maqsadi, mazmunini, nizom va metodlarini o'zida mujassamllovchi o'quv jarayonining asosiy shakli.

Darsning turlari-ma'lum bir darslar guruhiga mos bo'lgan belgilar yig'indisi.

Depressiya-ma'yus kayfiyatdagi g'amgin, dilxastalik holati, bunda butun dunyo nash'asiz bo'lib tuyuladi.

Dizartriya-nutq apparati innervatsiyasining organik yetishmovchiligi natijasida talaffuzning buzilishi, bunda ayrim tovushlar, bo'g'inlar va so'zlarni talaffuz qilishda qiyinchiliklar tug'iladi. Dizartriya ko'pincha soxta bulbar paralich oqibatida vujudga keladi (bosh miya nervlarining IX-X-XI-XII juftlarining lat yeyishi oqibatida artikulyatsiya mushaklarining paralich bo'lishi).

Disgarmonlik-nomuvofiqlik, shaxs jismoniy va ruhiy xususiyatlarining kamol topishidagi mutanosiblikning buzilishi.

Disgrafiya-yozuvning buzilishi, bu hoi bir harf o‘miga ikkinchisini yozishda, harflar va bo‘g‘inlarni tashlab ketish va o‘mini almashtirib yozishda, so‘zlarni qo‘shib yuborishda ifodalanadi, bu hoi og‘zaki nutqning va fonematik eshitishning yetarli darajada kamol topmaganligi bilan bog‘liqdir.

Dispepsiya (bolalarda)-bolalarning ilk yoshidagi tez-tez ich ketish va qayt qilish bilan o‘tadigan me‘da-ichak kasalligi; dispepsiya uzoq davom etsa, bola ozib ketadi, nimjon bo‘lib qoladi, uyquasi buziladi, boshi og‘riydi, bu hol esa bolaning bundan buyongi jismoniy va ruhiy kamol topishini buzishi mumkin.

Zerkalnoye (ko‘zgudagidek) yozuv-yozuv buzilishining bir turi bo‘lib, bu hol harf elementlarining makonda joylashuvini yetarli darajada ajrata olmaslik bilan bog‘langandir, buning natijasida bola harflarni go‘yo ko‘zguda aks etgandek tasvirini yozadi. Normal o‘quvchilarda, ko‘pincha chapaqaylarda ko‘zgudagidek yozuv ba‘zan o‘qitishning dastlabki bosqichida uchraydi va osonlikcha bartaraf etiladi. Makon tasavvurining buzilishi natijasida vujudga kelgan yozuvdagi barqaror ko‘zgudagidek holat uzoqroq davom etadi. Ko‘zgudagidek yozuv tuzilishi o‘xshash bo‘lgan harflarni ajrata olishga va umuman makon tasavvurini kamol toptirishga qaratilgan maxsus mashqlar yo‘li bilan bartaraf etiladi.

Egosentrizm-butun diqqatini faqat shaxsiy kechinmalarga qaratish va har bir hodisani shaxsiy manfaatlar nuqtai nazaridangina idrok etish: individualizmning ashaddiy formasi.

Elektroensefalogramma-miya biatoklarining funksional holatini tadqiq qilishning grafik metodi.

Emotsiya-his-tuyg‘u, kechinma, hayajon (g‘azab, qo‘rquv, quvonch).

Endokrin bezlari faoliyatining buzilishi-ichki sekretiya bezlari (gipofiz, qalqonsimon bezlar, qalqonsimon bezlar yonidagi bezlar, buyrak osti bezlari, jinsiy bezlar va oshqozon osti bezlari) faoliyatining buzilishi. Ichki sekretiya bezlari funksiyasining buzilishi organizmda turli patologik o‘zgarishlarni vujudga keltiradi.

Enurez-siygʻoqlik, bu hoi noqulay tashqi sharoitlarda asabiy va jismoniy jihatdan zaiflashgan bolalarda roʻy berishi mumkin. Enurez bolaning umumiy kamol topishida ruhiy jihatdan qiynovchi faktor boʻlishi mumkin.

Etiologiya-kasallik sabablari toʻgʻrisidagi taʼlimot.

Fonema-til tovush tuzumining minimal birligi. Har bir tilda muayyan miqdorda fonemalar boʻladi. Oʻz akustik belgilariga koʻra, bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilgan fonemalar soʻzlarni bir-biridan ajratishga xizmat qiladi. Rus tilida 42 fonema: 6 unli va 36 undosh fonema bor.

Fonematik eshitish-nutq tovushlarini idrok etish qobiliyati, tilning tovush elementlarini oʻqib olishda ahamiyati kattadir.

Gidrotsefaliya-miyada sariq suv toʻplanish kasali, bu narsa bosh suyagi boʻshligʻida orqa miya suyuqligining koʻpayishida yuz beradi. Suyuqlikning koʻpayishi har xil -juda oz darajadan keskin koʻpaygan darajagacha boʻlishi mumkin. Yengil gidrotsefaliya ish qobiliyatining pasayishi va tez charchab qolishda ifodalanadi, bunda bosh shakli deyarli oʻzgarmaydi. Orqa miya suyuqligi koʻproq toʻplanganida bosh suyagining katta gidrotsefalik shakli paydo boʻladi, peshanada va kallaning tepa qismida katta shishlar vujudga kelishi mumkin. Baʼzan bolalardagi ogʻir gidmtsefaliya aqliy qoloqlikka, serebral paralichga, eshitish va nutq qobiliyatining buʻilishiga sabab boʻlishi mumkin.

Individual yoʻl tutish-pedagogikanmg tamoyili boʻlib, bolaning kamol topish xususiyatlarini va uning shaxsiy msiiuyjiilanni bilisb va hisobga olishga asoslangan, pedagogika jihatidan toʻgʻri taʼsirini taʼminlaydi.

Intoksikatsiya-turli zaharli moddalai mikroblar, turli zaharlar, shuningdek, modda almashuvi buzilganida organizmda vujudga keladigan moddalar taʼsiri natijasidagi organizmning kasallik holati. Homiladorlik vaqtidagi intoksikatsiya homilaning bachadonda oʻsishiga zararli taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Infantilizm-organik psixik kamol topishining ushlanib qolish. bu holat kamol topishining ilk bolalik bosqichidagi xususiyatlarning saqlanib qolisln bilan xarakterlanadi.

Isteriya-xarakter va xatti-harakatning o'zgarishi bilan xarakterlanadigan funksional asabiy-ruhiy holat. Isteriyaning eng muhim ifodasi kechinmalarning ortiq darajada namoyon bolishidan va e'tibor markazida bo'lishga intilishdan iboratdir.

Katamnez-davolash tugallanganidan keyin bemor haqida olinadigan ma'lumotlar. Maxsus kuzatish ostida bo'lgan o'quvchilarning o'qishi, mehnat hayoti qanday borayotganligi haqida vaqt-vaqti bilan axborot to'plab turish.

Kompensatsiya-buzilgan funksiyalarni baravarlalashtirish, kamol toptirish va buzilgan funksiyalar o'rnini todirish uchun saqlangan funksiyalarni qayta qurish (masalan, qoldiq eshitish qobiliyatini kamol toptirish va eshitish qobiliyati buzilganda labga qarab o'qishga o'rgatish yoki qoldiq ko'rish qobiliyatidan foydalanish va ko'rish qobiliyati buzilganda sezgi orqali idrok etishni kamol toptirish).

Korreksiya-bolaning kamol topishidagi kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan pedagogik va davolash tadbirlarining jami.

Ko'rish qoldig'i-ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslarda ko'rish qobiliyati imkoniyatlarining saqlanganlik darajasi.

Kompensatsiya-ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish.

Ko'ruv o'tkirligi-ko'zni bir-biridan eng kam masofada turgan ikki nuqtani ayrim-ayrim ko'ra olish layoqatidir.

Ko'ruv maydoni-bu odam ko'zlari va boshni qimirlatmay turganida ko'rib idrok etadigan maydondir.

Korreksion mashg'ulotlar-ta'limiy maqsadga erishishni ta'minlashda qo'llanuvchi maxsus ta'limiy shakl va vositalar majmuasi.

Ko'zi ojiz bolalar-ko'rish qobiliyatining buzilishi yoki yo'qolishi natijasida yuzaga kelgan bolalar.

Logoped-bolalar va kattalardagi nutq kamchiliklarini tuzatish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis-pedagog.

Logopediya -nutq kamchiliklarini o'rganish hamda ularni bartaraf etish yo'llari va metodlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi fan.

Leksik sath – til ierarxiyasining lugʻat boyligidan iborat yuqori poʻgʻonasi: soʻzlar, iboralar, ularning turli qatlamlari.

Maxsus MTM-koʻrishida nuqsoni boʻlgan bolalarga moʻljallangan maktabgacha taʼlim muassasalari

Mehnat tarbiyasi-koʻrishida nuqsoni boʻlgan bolalarda mehnat faoliyatini tashkil etish, koʻnikma va malakalarini hosil qilish.

Mehnat tarbiyasining maqsadi-oʻquv ishlarda mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Metod-yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, yoʻl, axloq, usul maʼnolarini anglatadi

Metodika-biror ishni maqsadga muvofiq oʻtkazish metodlari, yoʻllari majmuasi.

Motorika-insonga xos harakat reaksiyalari, koʻnikmalari, malakalari va murakkab harakatlarning jami. Bolalarda motorika elementar harakat reaksiyalaridan boshlab to murakkab harakat malakalari va predmetli harakatlar tarkib topishigacha boʻlgan darajada asta-sekin oʻsib boradi. Motorikaning buzilishi markaziy nerv sistemasi turli qismlarining kasallanishiga bogʻliq va darajasi, sifati hamda kasallangan joyga qarab turlicha boʻlishi mumkin. Motorikaning hatto ozgina buzilishi ham bolaning kamol topishiga va uning ulgurishiga yomon taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bolalarda motorikaning buzilishi koʻp hollarda oʻz vaqtida oʻtkazilgan korreksiya yordamida bartaraf etiladi.

Mutizm-biror ruhiy xastalik oqibatida tevarak-atrofdagilar bilan nutq muomalasining toʻxtalishi. Muntazam vaqtincha xarakterga ega boʻladi va nevroitik reaksiyalar guruhiga kiradi.

Nafas apparati – havo manbai. Bu apparat oʻpka, bronxlar, traxeya, diafragma, koʻkrak qafasi kabi aʼzolardan iborat

Nutq aʼzolarining fiziologiyasi – nutq aʼzolarining hayotiy kechimlari, muhit bilan munosabatlari.

Nasledstvennost (irsiyat)-belgilar va xususiyatlarning bir avloddan ikkinchi avlodga oʻtishi.

Negativizm-boshqa kishilar ta'siriga asossiz, bahonasiz qarshilik ko'rsatish; bu hol xarakter va xatti-harakat patologik tarzda buzilganida ro'y beradi, ammo noto'g'ri tarbiyalanganida normal bolalarda ham bo'lishi mumkin.

Oilaviy tarbiya-oilada shaxsni shakllantirishni nazarda tutuvchi maxsus tashkil etilgan maqsadga yo'naltirilgan jarayon.

Oligofrenopedagog-aqliy jihatdan qoloq bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagog.

Og'iz bo'shlig'i – til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglaydilar, til osti muskullaridan iborat apparat. U shovqin va qo'shimcha tonlar manbayi sanaladi.

Patogenez-patologiyaning organizmdagi kasallik jarayonlarining vujudga kelishi va o'sib borishi zaminidagi ichki mexanizmlarning o'zaro bog'lanishini o'rganuvchi bo'limi.

Patologik o'zgarishlar-ma'lum bir kasallik jarayonlari munosabati bilan inson organizmida vujudga keladigan o'zgarishlar. Bu o'zgarishlar anatomik (masalan, miya, jigar va boshqa ichki organlar hujayralarining aynishi) bo'lishi mumkin yoki funksional (masalan, anatomik jihatdan hujayralar saqlangani holda ularning buzilishi yoki lat yeyishi).

Pedantizm-tartib-intizomga ortiqcha berilish, injiqlik darajasiga yetib boradigan tartib o'rnatish ishtiyoqi, ko'pincha ishning mohiyatiga tushunmagan holda rasmiy, tashqi tartibga o'jarlik bilan rioya qilish.

Preformizm-metafizik (antidialektik) nazariya, bu nazariyaga binoan, katta yoshdagi organizmning taqdiri tuxum hujayrasida yoki spermatozoiddayoq belgilab qo'yilgan bo'ladi, uning o'sib borishi esa homila boshlangan paytda vujudga kelgan xususiyatlarning kengayishi va oddiy kattalashuvidangina iborat.

Psixik status-inson psixikasi holatining tasviri, bu narsa insonning intellektual, emotsional xarakteriga oid xususiyatlarni, xatti-harakat va faoliyatini o'z ichiga oladi.

Psixometrik mezonlar-bir qancha chet el mamlakatlarida o'tkaziladigan tajribalar, standart topshiriqlar bo'lib, aqliy kamol topish darajasini, bolalar va kattalar

shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini va boshqa jihatlarini belgilashga qaratilgan. Psixometrik mezonlardan bolalarni ommaviy maktablarga ham, maxsus maktablarga ham tanlab olishda keng foydalaniladi. Psixometrik mezonlar ilmiy asoslanmagan bo'lib, bola shaxsining asl xususiyatlarini ochib bermaydi va aqliy kamol topishga tashxis qo'yilayotganda ishonchli mezon bo'lib xizmat qila olmaydi.

Psixoterapiya-bemorga tushuntirish, ishontirish tarzida psixik ta'sir ko'rsatish yordamida davolash. Bu ish eng qulay sharoitlar yaratish va har qanday noqulay faktorlarni bartaraf etish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Har qanday bolalar muassasasidagi tarbiyaviy jarayonda, ayniqsa kamol topishida kamchiligi bo'lgan bolalarni tarbiyalash sharoitida psixoterapevtik yo'l tutish muhimdir.

Reaktiv holat -og'ir kechinmalar munosabati bilan vujudga keladigan ruhiy xastalik. Depressiya, emotsional esankirash, vahima, qo'rquv tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Rezonyorstvo (mahmadanalik)-mavhum va axloqiy mavzularda uzoq mulohaza yuritishga moyillik.

Retsidiv-yo'qolib ketgandek tuyilgan biror hodisaning takrorlanishi, qayta ro'y berishi.

Seksuallik-boshqa jinsdagi kishilarga ortiqcha qiziqish bilan qarash.

Somatik-badanga oid (psixik narsalardan farq qiladi).

Spontan faoliyat-go'yo o'z-o'zidan, o'z xohishi bilan, tashqi ta'sirlarsiz vujudga keladigan faoliyat.

Status-bemomi ko'zdan kechirish paytida uning holatini bayon qilish, bu hol jismoniy, asabiy-ruhiy sohaga yoki ayrim sistemalar va organlarga taalluqli bolishi mumkin.

Stereotiplik (harakat, fikr stereotipligi) -harakatlar, fikrlarning o'zgarmasdan takrorlanishi, bir marta o'zlashtirib olingan fikrdan boshqa fikrga o'tishning qiyinligi, bu hoi miya qobig'idagi nerv jarayonlarining yetarli darajada harakatchan emasligidan dalolat beradi.

Struktura defekta (defekt strukturası) -kamol topish anomaliyalarining har xil turlarida ba'zi psixik funksiyalar o'rtasidagi (masalan, xotira, diqqat, idrok va tafakkur o'rtasidagi) yoki bilish faoliyati va emotsional-irodaviy soha xususiyatlari o'rtasidagi, yoki tafakkur bilan nutq o'rtasidagi va hokazo (o'zaro bog'lanish va bir-birini taqozo qilishi).

Sumerechniye sostoyaniya -ongning to'satdan xiralashuvi, bir necha minutdan bir-ikki soatgacha davom etadi, shuningdek, to'satdan to'xtab qoladi, ko'pincha chuqur uyquga aylanadi. Ong xiralangan vaqtida atrof-tevarakni tasavvur qila olmaydi, xatti-harakat motivlari yo'qolib qoladi, bu davr mobaynida sodir bo'ladigan hamma narsa esda qolmaydi.

Serebral -miyaga oid.

Sheva – muayyan tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismi.

Tovush cho'ziqligi – tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi.

Tovushning sifat belgilari – tovushning balandligi, kuchi (intensivligi), temбри.

Tovushning miqdor belgisi – tovushning cho'ziqligi.

Toksikoz -organizmda zararli yoki zaharli moddalar – toksinlar to'planishi natijasida vujudga kelgan xastalik holati. Toksikozlar ba'zan homiladorlik vaqtida vujudga kelib, modda almashuvining ancha buzilishiga va qon aylanishining izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Homiladorlik vaqtidagi toksikoz homilaning o'sib borishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Toksoplazmoz-parazitar kasallik; uni vujudga keltiradigan parazit (toksoplazma) eng oddiy jonivorlar jumlasiga kiradi. Kishiga bu kasallik uy hayvonlaridan (it, sigir, cho'chqa, quyon, tovuq, kaptar) va ba'zi bir yovvoyi hayvonlardan (yumronqoziq, sichqon, yovvoyi quyon) yuqishi mumkin. Kishidagi toksoplazmoz tug'ma bo'lishi va keyinchalik vujudga kelishi mumkin. Homilador ayollardagi parazit yo'ldosh orqali homilaga o'tib miya, ko'z va boshqa organlarga og'ir zarar yetkazgan hollarda toksoplazmoz tug'ma bo'ladi. Tug'ma toksoplazmoz ko'pincha oligofreniyani vujudga keltiradi.

Tonzillit-bodomcha bezlarning shamollashi. Tonzillit o'tkir va xronik bo'lishi mumkin. Xronik (surunkasiga) tonzillit bo'lganida mushaklar og'rishi, yurakda o'zgarish ro'y berishi, bosh og'rishi, bo'shashuvchanlik va ish qobiliyatining pasayuvi ro'y berishi mumkin.

Tonus-nerv markazlarining to'xtovsiz qo'zg'alib turishi bilan ta'minlanadigan turli organlarning muayyan funksional holati.

Tiflopedagogika-grekcha typlos so'zidan olingan bo'lib, ko'r va pedagogika ma'nolarini anglatadi.

Tiflopedagog-ko'rishda nuqsoni bo'lgan (ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi) bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi.

Tarbiya-shaxsni shakllantirishni nazarda tutuvchi maxsus tashkii etilgan maqsadga yo'naltirilgan jarayon.

Taqlid usuli-biror shaxsning xatti-harakatini ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash.

Tovush cho'ziqligi – tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi.

Tovushning sifat belgilari – tovushning balandligi, kuchi (intensivligi), temбри.

Tovushning miqdor belgisi – tovushning cho'ziqligi.

Tiflotexnika-ko'rishda nuqsoni bor shaxslar mehnat faoliyatining kengaytiradigan, ularga noqulay bo'lgan kasb yoki kasbiy jarayonlarni qulaylashtiradigan texnik vositalar.

Tovush cho'ziqligi – tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi.

Tovushning sifat belgilari – tovushning balandligi, kuchi (intensivligi), temбри.

O'qitishning tiflotexnik vositalari-ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarida pedagogik jarayonida tiflopedagog tomonidan maqsadga erishish uchun qo'llanuvchi yo'l va usullar yig'indisi.

Halqum – bo'g'izdan yuqoriroqdagi bo'shliq. U rezonatorlik vazifasini bajaradi.